**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI**

**OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA’LIM VAZIRLIGI**

**QARSHI DAVLAT UNIVERSITETI**

**“MAKTABGACHA VA BOSHLANG‘ICH TA’LIM ” FAKULTETI**

**BOSHLANG‘ICH TA’LIM KAFEDRASI**

# “BOSHLANG‘ICH TA’LIM PEDAGOGIKASI INNOVATSIYASI VA INTEGRATSIYASI”




**FANINING**
**O‘QUV USLUBIY MAJMUASI**

**Bilim sohasi 100000-Gumanitar soha**
**Ta’lim sohasi 110000-Pedagogika**
**Ta’lim 5111700-Boshlang’ich ta’lim va sport tarbiyaviy ish**

**QARSHI – 2019**

Ushbu fanning O‘quv uslubiy majmuasi O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligining 2016 -yil 22.01 “26” - sonli buyrug'ining 2-ilovasi bilan tasdiqlangan fan dasturiga asosan ishlab chiqilgan

Tuzuvchilar Maktabgacha va boshlang‘ich ta’lim metodikasi kafedrasi o‘qituvchilari O. Aslonova, M. Kazakova, S.Ziyadullanva

Taqrizchilar: Boshlang‘ich ta’lim kafedrasi mudiri p.f.d. R.Shodiyev

Maktabgacha ta’lim kafedrasi katta o‘qituvchisi, p.f.n. D. Kenjayeva

Fanning O‘quv uslubiy majmuasi “boshlang‘ich ta’lim” kafedrasining 2019 yil - avgustdagi yig‘ilishida ko‘rib chiqilgan va tavsiya etilgan.

**Kafedra mudiri:____________ prof. R. Shodiyev**

O‘quv –uslubiy majmua Qarshi davlat universiteti o‘quv-metodik kengashida tasdiqlangan.(2019 yil “ ” dagi - sonli bayonnoma).

**O‘MK raisi: prof. Y. Eshqobilov**

**“ Kelishildi”**

**O‘quv uslubiy boshqarma boshlig‘i : dots. M.Fayzullayev.**

“

## Mundarija


| | | |
|---|---|---|
| I | O‘quv materiallari | |
| 1.1 | Ma’ruza mavzulari | |
| 1.2 | Amaliy mashg‘ulotlar mavzulari va topshiriqlari | |
| II | Mustaqil ta’lim mashg‘ulotlari | |
| III | Glossariy (asosiy terminlar) | |
| IV | Ilovalar:<br>Fan dasturi<br>Ishchi dastur<br>Baholash mezonlari<br>Tarqatma materiallar<br>(test va boshqa qo‘shimchalar xohish bo‘yicha) | |

**1-MAVZU. PEDAGOGIKA FANINING UMUMIY ASOSLARI**

**REJA:**

1. Pedagogikaning fan va o'quv predmeti sifatidagi taraqqiyoti.
2. Fan va o'quv predmeti, ularning aloqasi va o'ziga xos xususiyatlari.
3. Pedagogikaning o'quv predmeti sifatidagi asosiy rivojlanish davrlari.
4. O'zbek pedagogikasi fanining rivoji.
5. Pedagogika o'quv muassasalariga (pedagogika universitetlarida, institutlarda, pedagogika kollejlarida, pedagogika litseylarida pedagogikaning o'quv predmeti sifatida o'rganilishi.
6. Pedagogikaning inson haqidagi fanlar tizimidagi tavsifi.
7. Shaxsning ijtimoiylashuvi va uning tarbiyasini rivojlantirish.

Pedagogika predmeti. Pedagogika (yunoncha paidagogike bo‘lib, paidagogos («bola» va «yetaklayman») tushunchasi asosida shakllangan) shaxsni shakllantirishga yo‘naltirilgan muayyan tizimli faoliyat, shuningdek, ta’lim-tarbiya mazmuni, umumiy qonuniyatlari, shakli va metodlari haqidagi fan. Pedagogika ijtimoiy fanlar tizimiga kiruvchi fan sanalib, yosh avlod hamda kattalarni milliy istiqlol g‘oyalari asosida tarbiyalash, unga ta’lim berish muammolarini o‘rganadi.

Pedagogika fani shaxsni rivojlantirishning ikki muhim jihati – uni o‘qitish va tarbiyalashga asosiy e’tiborni karatganligi bois ta’lim nazariyasi (didaktika) va tarbiya nazariyasi fanning muhim tarkibiy qismlari hisoblanadi.

Ta’lim nazariyasi (didaktika) – shaxsni intellektual jihatdan rivojlantirish, ta’lim jarayonining mohiyati, bosqichlari, tamoyillari, qonuniyatlari, o‘qituvchi va o‘qituvchi faoliyati birligi, o‘qitishning mazmuni, shakl, metod va vositalari, ta’lim jarayonini takomillashtirish yo‘llari kabi muammolarni tadqiq etadi.

*Ta’lim o‘z mohiyatiga ko‘ra umumiy va maxsus kabi turlarga ajratiladi. Umumiy ta’lim har bir shaxsning kamol topishi hamda u tomonidan hayotiy faoliyatni tashkil eta olishi uchun zarur bo‘lgan ma’lumotlarni berishga yo‘naltiriladi. Umumiy ta’lim asosida o‘zlashtirilgan ma’lumotlar kelgusida shaxsning kasbiy tayyorgarligini ta’minlashga imkon beruvchi maxsus ta’lim*

*olishi uchun asos bo'ladi. Maxsus ta'lim – o'zida mutaxassislik xususiyatlarini namoyon qilib, shaxsga muayyan kasbiy faoliyatni tashkil etish borasida nazariy bilimlarni berish asosida amaliy ko'nikma hamda malakalarni shakllantirishga xizmat qiladi.*

Ta'lim, shuningdek, darajasi hamda hajmiga ko'ra boshlang'ich, o'rta va oliy ta'lim kabi turlarga ham bo'linadi. Kasb ta'limi (kasbiy ta'lim O'zbekiston Respublikasida barkamol shaxs va malakali mutaxassisni tayyorlashga yo'naltirilgan uzluksiz ta'limning muhim bo'lagi sanaladi.

Tarbiya nazariyasi – pedagogikaning asosiy, muhim tarkibiy qismlaridan biri bo'lib, u jamiyat va oilaning barkamol shaxs va malakali mutaxassisni tayyorlash muammolarini o'rganadi.

Tarbiya - barkamol shaxs va malakali mutaxassisni tayyorlash yo'lida amalga oshirilayotgan pedagogik faoliyat jarayoni bo'lib, ushbu tushuncha negizida odatda aqliy, axloqiy, jismoniy, mehnat, estetik, iqtisodiy, huquqiy, ekologik va jinsiy tarbiya kabi yo'nalishlarda tashkil etilgan pedagogik faoliyat mohiyati, shaxsda tarbiyalangan muayyan sifatlar hamda shakllangan dunyoharash aks etadi.

Pedagogika fanining vazifalari. Pedagogika fani shaxsni shakllantirish borasidagi ijtimoiy buyurtmani bajarish asosida jamiyat taraqqiyotini ta'minlashga alohida hissa qo'shadi. Pedagogika fani maqsadi va vazifalarining belgilanishida ijtimoiy munosabatlar mazmuni, davlat va jamiyat qurilishi, uning hayotida yetakchi o'rin tutuvchi g'oyalar mohiyatini muhim ahamiyatga ega.

O'zbekiston Respublikasida demokratik, insonparvar hamda huquqiy jamiyatni barpo etish sharoitida mazkur fan barkamol shaxs va malakali mutaxassisni tarbiyalash tizimini ishlab chiqish, milliy istiqlol g'oyasi asosida ta'lim va tarbiya nazariyasini ijodiy rivojlantirishdek ustuvor vazifani hal etadi. Mazkur jarayonda quyidagi vazifalarni bajarishga e'tibor haratiladi:

1. Barkamol shaxs va malkali mutaxassisni tarbiyalashga yo'naltirilgan pedagogik jarayonning mohiyatini o'rganish.
2. Shaxsni kamol toptirish qonuniyatlarini aniqlash.

3. Ijtimoiy taraqqiyot darajasidan kelib chiqqan holda rivojlangan xorijiy mamlakatlar ta’lim tizimi tajribasini o‘rganish asosida uzluksiz ta’lim tizimini takomillashtirish.

4. Ta’lim muassasalari hamda ularda faoliyat olib borayotgan pedagoglar faoliyati mazmunini asoslash.

5. Ilg‘or pedagogik tajribalarni umumlashtirish va amaliyotga joriy etish.

6. Pedagoglarni pedagogika nazariyasiga oid bilimlar hamda ta’lim-tarbiya usullari bilan qurollantirish.

7. Ta’lim-tarbiya birligi hamda ijtimoiy tarbiya yo‘nalishlari o‘rtasidagi o‘zaro aloqadorlikni ta’minlashning pedagogik shart-sharoitlarini o‘rganish.

8. O‘qitish hamda tarbiyalash jarayonining samarali texnologiyalarini yaratish.

9. Oila tarbiyasini muvaffaqiyatli tashkil etish yuzasidan ota-onalar uchun ilmiy-metodik tavsiyalarni ishlab chiqish.

2.Ijtimoiy tarbiya va uning bosqichlari. Insoniyatning yashash uchun kurashish va turli tabiiy ofatlardan himoyalanish yo‘lida olib borgan harakatlari tarbiya g‘oyalarining shakllanishiga asos bo‘lib xizmat qilgan.

Ibtidoiy jamoa tuzumida odamlarning guruh-guruh bo‘lib hayot kechirishi sababli bolalarga tirikchilik o‘tkazish yo‘lidagi faoliyat (o‘simlik mevalari, ildizlarini terish, hayvonlarni ovlash)ni tashkil etish borasidagi tajribalarni o‘rgatish guruh a’zolari tomonidan birdek amalga oshirilgan. Bilimlar, aksariyat hollarda, mehnat va o‘yin jarayonlarida o‘zlashtirilgan. Mehnat faoliyatini tashkil etish jinsiy xarakterga ega bo‘lganligi bois o‘g‘il va qiz bolalarni tarbiyalashda o‘ziga xos jihatlar ko‘zga tashlangan.

Oila, xususiy mulk va davlatning paydo bo‘lishi ijtimoiy tarbiya mazmunida ham tub o‘zgarishlarning sodir etilishi, quldorlarning paydo bo‘lishi olib keldi. Aynan mana shu davrdan tarbiya jamiyatning ijtimoiy talab va ehtiyojlari asosida yo‘lga qo‘yila boshladi. Erkin fuharolarni tarbiyaning maqsadi, vazifalari, mazmuni va vositalari borasidagi fikrlar Demokratik, Platon va Aristotellarning asarlarida muhim o‘rin egallagan. Mutafakkirlarning asarlarida

ushbu fikrlar mustaqil pedagogik nazariya sifatida emas, balki falsafiy harashlar yoki jamiyatni tashkil etish loyihasining muhim komponenti tarzida bayon etilgan.

Ushbu davrda tabiiy-ijtimoiy fanlar tizimi shakllanishi uchun boshlang‘ich asoslar qo‘yildi. quldorlik tuzumida erkin bo‘lmagan kishilar (qullar)ning haq-huquqlari cheklanganligi bois tarbiya tizimi faqatgina quldorlar, ularning farzandlari uchun xizmat qilgan.

quldorlik tuzumi o‘rnida shakllangan feodal tuzumda pedagogik g‘oyalar feodallar manfaatini ifoda eta boshladi. Mazkur davr pedagogik jarayonni tashkil etishda diniy g‘oyalar yetakchi o‘rin egallashi bilan tavsiflanadi. Ijtimoiy hayotda diniy muassasalar (g‘arbda cherkov, Sharqda esa machitlar)ning roli osha borib, bolalarni o‘qitish va tarbiyalash ishlari asosan shu maskanlarda tashkil etildi. Garchi dunyoviy g‘oyalarni ilgari surish, ilmiy nazariyalarni yaratish va targ‘ib etishning din peshvolari tomonidan qoralanishi kabi holatlar ham ko‘zga tashlangan bo‘lsa-da, ammo savdo-iqtisodiy aloqalar ko‘lamining kengayishi, tabiiy ofatlarga harshi keskin chora ko‘rish ehtiyoji ilmiy bilimlarning rivojlantirish hayotiy zaruriyat ekanligini isbotladi. Insoniyat tarixidan mustahkam o‘rin olgan Sharq Uyg‘onishi deb nom olgan tarixiy jarayon aynan feodal tuzumi – o‘rta asrlar davrida sodir bo‘ldi. Sharqda buyuk allomalar - Muhammad Muso al-Xorazmiy, Abu Nasr Forobiy, Abu Rayqon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Ahmad al-Farg‘oniy, g‘arbda esa T.Mor, T.Kampanella, E.Rotterdamskiy, F.Rable, M.Monten va boshqalar tomonidan har tomonlama rivojlangan, ruhiy va jismoniy jihatdan sog‘lom, antik dunyo va burjaziya davri yutuqlari asosida ilmiy bilimlarni o‘zlashtira olgan shaxsni tarbiyalash g‘oyasi ilgari surildi va puxta asoslab berildi.

Savdo, hunarmandchilik va manufaktura negizida rivojlanib borayotgan ishlab chiharishni yanada takomillashtirish yo‘lidagi amaliy harakatlar bu boradagi muvaffaqiyat murakkab texnikani boshhara oladigan shaxsni shakllantirish evaziga hal etilishi tasdiqladi. Mazkur davrda ilg‘or, progressiv

pedagogik g‘oyalar ilgari surildi. Aksariyat g‘oyalar mazmunida bilim olishga nisbatan ijtimoiy tenglikni haror toptirish borasidagi harash o‘z ifodasini topdi.

Aynan shu davrda pedagogika fani asoslari muayyan tizimga solindi va ilmiy jihatdan asoslandi. Bu o‘rinda pedagogika fani rivojiga o‘zining munosib hissasini qo‘shgan mutafakkirlar: g‘arbda - Y.A.Komenskiy, D.Didro, J.J.Russo, F.Gerbart, V.V.Disterveg, K.D.Ushinskiy, A.S.Makarenko, V.A.Suxomlinskiy, Sharqda I.Ibrat, S.Siddiqiy, A.Shakuriy, S.Ayniy, A.Avloniy, A.Fitrat, H.H.Niyoziy, M.Abdurashidov, M.Behbudiylar shaxsga ta’lim berish va uni tarbiyalash borasidagi harashlarni yanda boyitdilar hamda ta’lim tizimiga ilm-fan, texnika yangiliklarini tadbiq etish, o‘qitishni yangi tizim (izchil, uzluksiz, asoslangan) asosida tashkil etish kabi g‘oyalarni ilgari surdilar.

Sobiq SHo‘ro davrida pedagogika fani mazmunan ilm-fan, texnika va texnologiya yutuqlari asosida boyidi, ta’lim muassasalari tizimi shakllantirildi, shuningdek, har tomonlama va garmonik rivojlangan shaxsni shakllantirish nazariyasi asoslandi. Biroq, xalq ta’limi tizimi faoliyatini yo‘lga qo‘yishdagi xato va kamchiliklar maqsadga erishishga imkon bermadi.

O‘zbekiston Respublikasi mustaqillikni qo‘lga kiritgach, rivojlanish va taraqqiyot yo‘li demokratik, insonparvar va huquqiy jamiyatni barpo etishdan iboratligi e’tirof etilib, ta’lim tizimini isloh qilish, uzluksiz ta’lim tizimini takomillashtirish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri deya belgilandi. Asosiy e’tibor barkamol shaxs va malakali mutaxassisni tayyorlashga haratildi.

Respublikada ta’lim sohasida amalga oshirilayotgan islohotlarning asosiy mazmun hamda yo‘nalishlari O‘zbekiston Respublikasining «Ta’lim to‘g‘risida»gi qonuni va «Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi» kabi meyoriy hujjatlarda belgilab berilgan.

Demak, mavjud sharoitda pedagogika fani barkamol shaxs va malakali mutaxassisni tayyorlashga yo‘naltirilgan ijtimoiy hrakat istiqbollari, bu boradagi muammolar va ularni hal etish yo‘llarini o‘rganadi.

3. Pedagogika fanining asosiy kategoriyalari. Bizga yaxshi ma’lumki, har bir fan o‘zining tayanch tushunchalari, qonuniyatlari, tamoyillari, qoidalari

tizimiga ega. Aynan mana shu holat uning fan sifatida e'tirof etilishini kafolatlaydi. Fanning mohiyatini ifoda etuvchi eng muhim, asosiy tushunchalar kategoriya deb ataladi. Pedagogika fanining asosiy kategoriyalari shaxs kamolotini ta'minlash, ta'lim va tarbiya samaradorligiga erishishga haratilgan jarayonlarning umumiy mohiyatini yoritadi. Eng muhim kategoriyalar sirasiga quyidagilar kiradi: tarbiya, ta'lim (o'qitish, o'qish), bilim, ko'nikma, malaka, ma'lumot, rivojlanish.

Tarbiya – aniq maqsad hamda ijtimoiy-tarixiy tajriba asosida tashkil etilib, shaxsni mehnat va ijtimoiy faoliyatga tayyorlashga yo'naltirilgan pedagogik jarayon.

Ta'lim – maxsus mutaxassislik ma'lumotiga ega shaxslar rahbarligida tashkil etilib, o'quvchilarni nazariy bilim, amaliy ko'nikma va malakalar bilan qurollantirish, ularning bilish qobiliyatlarini o'stirish va dunyoharashlarini shakllantirishga yo'naltirilgan jarayon.

Bilim – tizimlashtirilgan ilmiy ma'lumotlar majmui.

Ko'nikma – shaxsning muayyan faoliyatni tashkil eta olish qobiliyati.

Malaka – mashq qilish jarayonida muayyan harakat yoki faoliyatni bajarishning avtomatlashtirilgan shakli.

Ma'lumot – ta'lim-tarbiya natijasini ifodalovchi tizimlashtirilgan bilim, hosil qilingan ko'nikma va malakalar, shuningdek, tarkib topgan dunyoharash majmui.
Rivojlanish – shaxsning fiziologik va intellektual o'sishida namoyon bo'layotgan miqdor va sifat o'zgarishlarning mohiyatini ifoda etuvchi murakkab jarayon.

Pedagogikaning boshqa fanlar bilan aloqasi. Ijtimoiy tarbiya mohiyatini ilmiy jihatdan asoslash ma'lum pedagogik hodisaning muayyan vaziyatlarda namoyon bo'lish qonuniyatlarini bilishni taqozo etadi. Bizga ma'lumki, pedagogik hodisa murakkab tuzilmaga ega bo'lib, uning umumiy mohiyatini to'laqonli anglash uchun bir qator fanlarning imkoniyatlariga tayaniladi. Ana shu nuqati nazardan pedagogika fani bilan quyidagi fanlar o'rtasida yaqin aloqadorlik mavjud:

1. Falsafa – shaxs rivojlanish jarayonining dialektik xususiyatlari, muayyan pedagogik g‘oya, harash hamda ta’limotlarning falsafiy jihatlari kabi masalalarni tahlil etishga imkon beradi.

2. Iqtisod – o‘quv yurtlari uchun binolarni qurish, ta’lim-tarbiya jarayonlarini tashkil etish, ta’lim muassasalari faoliyatini yo‘lga qo‘yish kabi masalalarning iqtisodiy jihatlarini anglashga xizmat qiladi.

3. Sotsiologiya – ijtimoiy munosabatlar mazmuni, ularni tashkil etish shartlari xususida ma’lumotlarga ega bo‘lish asosida ta’lim-tarbiya jarayoni ishtirokchilarining o‘zaro munosabatlarini samarali tashkil etish uchun imkoniyat yaratadi.

4. Etika- shaxs ma’naviyatini shakllantirish, unda eng oliy insoniy sifatlar, axloqiy ong va ma’naviy-axloqiy madaniyatni tarbiyalashda muhim o‘rin tutuvchi nazariy g‘oyalarni pedagogik jarayonga tatbiq etishda alohida o‘rin tutadi.

5. Estetika – shaxs tomonidan go‘zallikning his etilishi, unga intilishi, shuningdek, unda estetik didni tarbiyalashda muhim yo‘nalishlarni aniqlashga xizmat qiladi.

6. Fiziologiya- o‘quv-tarbiya jarayonida bolalarning fiziologik, anatomik xususiyatlarini inobatga olish uchun boshlang‘ich asoslarni beradi.

7. Gigiyena – o‘quvchilarning salomatligini muhofazalash, ularning jinsiy jihatdan to‘g‘ri shakllantirishda nazariy va amaliy g‘oyalari bilan yordam beradi.

8. Psixologiya – shaxsda ma’naviy-axloqiy, ruhiy-intellektual, hissiy-irodaviy sifatlarni tarkib toptirish uchun zamin yaratadi.

9. Tarix – pedagogika fani taraqqiyoti, ta’lim-tarbiya jarayonlarining dinamik, dialektik xususiyatlarini inobatga olish, shuningdek, xalq pedagogikasi g‘oyalarini kelgusi avlodga uzatish uchun yo‘naltiriladi.

10. Madaniyatshunoslik – o‘quvchilarda insoniyat tomonidan yaratilgan moddiy va ma’naviy madaniyat asoslari haqidagi tasavvurni shakllantirish, ularda madaniy xulq-atvor xislatlarini tarkib toptirish uchun xizmat qiladi.

11. Tibbiy fanlar – shaxsning fiziologik-anatomik jihatidan to‘g‘ri rivojlanishini ta’minlash, uning organizmida namoyon bo‘layotgan ayrim

nuqsonlarni bartaraf etishda amaliy yondashuv, shuningdek, nuqsonli bolalarni o'qitish hamda tarbiyalash muammolarini o'rganishda ko'maklashadi.

Pedagogika fanlari tizimi. Shaxs kamolotini ta'minlash, uning intellektual, ma'naviy-axloqiy hamda jismoniy jihatdan rivojlanishiga erishishda turli yosh davrlari, har bir davrning o'ziga xos jihatlari, shuningdek, bolaning fiziologik, psixologik holatini inobatga olish maqsadga muvofiqdir. Shu bois yaxlit pedagogik jarayon muayyan turkumni tashkil etuvchi pedagogik fanlar tomonidan o'rganiladi. Ular quyidagilardir:

1. Umumiy pedagogika – kichik maktab yoshi, o'smir hamda o'spirin bolalarni tarbiyalash va ularga ta'lim berish masalalarini o'rganadi.
2. Maktabgacha ta'lim pedagogikasi – maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarni tarbiyalash, ularni intellektual, ma'naviy-axloqiy va jismoniy jihatdan kamolotga yetkazish masalalarini o'rganadi.
3. Korreksion (maxsus) pedagogika – rivojlanishida turli nuqsonlar bo'lgan bolalarni korreksion o'qitish va tarbiyalash bilan bog'liq muammolarni o'rganadi.

**O'z navbatida korreksion pedagogika tarkibiga maxsus pedagogika va psixologiyaning turli sohalari kiradi. Ular quyidagilardir:**

Surdopedagogika va surdopsixologiya – eshitish qobiliyati buzilgan bolalarni rivojlantirish, o'qitish va tarbiyalash masalalarini o'rganadi.

Oligofrenopedagogika va oligofrenopsixologiya – aqli zaif bolalarni rivojlantirish, o'qitish va tarbiyalash masalalarini o'rganadi.

Tiflopedagogika va tiflopsixologiya – ko'rish qobiliyati buzilgan bolalarni rivojlantirish, o'qitish va tarbiyalash masalalarini o'rganadi.

Logopediya va nutqiy buzilishlar psixologiyasi – nutqi, shuningdek, motorli-harakatlanish doirasida murakkab nuqsonlar bo'lgan bolalar (ko'r, soqov va kar bolalar)ni rivojlantirish, o'qitish va tarbiyalash masalalarini o'rganadi.

4. Metodika – xususiy fanlarni o'qitishning o'ziga xos xususiyatlarini o'rganadi.

5. Pedagogika tarixi – pedagogik g‘oyalarning shakllanishi, rivojlanishi, ta’lim muassasalari tizimi, ularning faoliyati borasidagi tarixiy tajriba, tarixiy taraqqiyotning turli bosqichlarida pedagogik fikrlar rivoji masalalarini o‘rganadi.

6. Ta’limni boshharish – ta’lim muassasalarining faoliyatini yo‘lga qo‘yish, boshharish, nazorat qilish hamda istiqbollarini belgilash masalalarini o‘rganadi.

7. Ijtimoiy pedagogika – ijtimoiy munosabatlar jarayonida pedagogik g‘oyalarning tutgan o‘rni va roli, shaxsni kasbiy va ijtimoiy faoliyatga yo‘naltirish muammolarini o‘rganadi.

4. Pedagogik ilmiy-tadqiqot metodlari. Pedagogika fani rivoji muayyan pedagogik muammolarni tadqiq etish maqsadida olib borilgan tadqiqot ishlarining g‘oyasi, mazmuni hamda natijalari hisobiga ta’minlanadi. Ijtimoiy va ishlab chiharish jarayonining keskin rivojlanishi shaxsni har tomonlama kamol toptirish imkonini beruvchi omil hamda pedagogik shart-sharoitlarni aniqlash, jamiyat va shaxs ma’naviyatiga ziyon yetkazuvchi holatlarni bartaraf etishni taqozo qiladi. Tarbiya jarayonlarining mohiyatini anglash ularni keng yoki tor doirada o‘rganish, mavjud ko‘rsatkichlar vositasida ularning sodir bo‘lish sabablarini o‘rganish, zarur chora-tadbirlarni belgilash ilmiy izlanishlarni tashkil etish zaruriyatini yuzaga keltiradi. Pedagogik izlanishlarning samarali kechishi bir qator obyektiv va subyektiv omillarga bog‘liq. Mazkur jarayonda maqsadga muvofiq keluvchi, maqbul. Ayni vaqtda samarali bo‘lgan metodlarni tanlay olish ham muhimdir.

Pedagogik ilmiy-tadqiqot metodlari – shaxsni tarbiyalash, unga muayyan yo‘nalishlarda chuqur, puxta ilmiy bilimlarni berishga yo‘naltirilgan pedagogik jarayonning ichki mohiyati, aloqa va qonuniyatlarini maxsus tekshirish va bilish usullari bo‘lib, ular asosida muammoni ijobiy hal etishga yordam beruvchi tamoyillari, obyekti va subyektiv omillari aniqlanadi.

Ayni vaqtda O‘zbekiston Respublikasida pedagogik yo‘nalishda olib borilayotgan ilmiy izlanishlar dialektik yondashuvga asoslanadi. Pedagogik hodisa, voqelik va ularning qonuniyatlarilarni aniqlashga bunday yondashuv pedagogik hodisa va jarayondlarning umumiy aloqasi, ularning izchil, uzluksiz

rivojlanishi, bolaning fiziologik rivoji uning psixologik, intellektual jihatdan takomilashtirib borishini ta'minlashi, harama-harshiliklarning shaxs kamolotini ta'minlashdagi o'rni va roli, shuningdek, dialektika kategoriyalarining ahamiyatini e'tirof etadi.

Pedagogik ilmiy tadqiqotlarni amalga oshirish murakkab, muayyan muddatni taqozo etuvchi, izchillik, uzluksizlik, tizimlilik hamda aniq maqsad kabi xususiyatlarga ega bo'lgan jarayon bo'lib, uning samarali bo'lishi uchun bir qator shartlarga rioya etish zarur. Ular quyidagilardir:

1) muammoning dolzarbligi va mavzuning aniq belgilanganligi;
2) ilmiy farazlarning to'g'ri shakllantirilganligi;
3) vazifalarning tadqiqot maqsadi asosida to'g'ri belgilanganligi;
4) tadqiqot metodlar tizimiga nisbatan obyektiv yondashuv;
5) tajriba-sinov ishlari jarayoniga jalb etiluvchi respondentlarning yosh, psixologik va shaxsiy xususiyatlari, shuningdek, shaxs rivojlanishi qonuniyatlarining to'g'ri hisobga olinganligi;
6) tadqiqot natijalarini oldindan tashhislash va uning natijalarini bashoratlash;
7) tadqiqot natijalarining kafolatlanganligi.

**Zamonaviy sharoitda pedagogik yo'nalishda tadqiqotlarni olib borishda quyidagi metodlardan foydalanilmoqda:**

1. Pedagogik kuzatish metodi.
2. Suhbat metodi.
3. Anketa metodi.
4. Intervyu metodi.
5. Ta'lim muassasasi hujjatlarini tahlil qilish metodi.
6. Test metodi.
7. Pedagogik tahlil metodi.
8. Bolalar ijodini o'rganish metodi.
9. Pedagogik tajriba metodi.
10. Matematik-statistik metod.

Pedagogik kuzatish metodi. Uni qo‘llash jarayonida ta’lim muassasalarining o‘quv-tarbiya ishlari jarayonini o‘rganish asosida tadqiq etilayotgan muammo holat aniqlanadi, tajriba- avvali va yakunida qo‘lga kiritilgan ko‘rsatkichlar o‘rtasidagi farq to‘g‘risidagi ma’lumotga ega bo‘linadi. Pedagogik kuzatish murakkab va o‘ziga xos xususiyatlarga ega. Kuzatish aniq maqsad asosida, uzluksiz, izchil va tizimli amalga oshirilsa, kutilgan natijani qo‘lga kiritish mumkin. Olib borilayotgan pedagogik kuzatish ta’lim-tarbya sifatini oshirish, o‘quvchi shaxsini shakllantirishga xizmat qilsa, mazkur metodning ahamiyati yanada oshadi.

Pedagogik kuzatuvni tashkil etishda xatoga yo‘l qo‘ymaslik muhimdir. Buning uchun tadqiqotchidan quyidagilar talab etiladi:

1) kuzatuv jarayonida aniq maqsadga egalik;
2) kuzatishni tizimli ravishda yo‘lga qo‘yish;
3) kuzatishning har bir bosqichida muayyan vazifalarni hal etish;
4) har bir holatning mohiyatini sinchiklab o‘rganish;
5) xulosa chiqarishga shoshilmaslik.

1) Suhbat metodi. Bu metod pedagogik kuzatish jarayonida ega bo‘lingan ma’lumotlarni boyitish, mavjud holatga to‘g‘ri baho berish, muammoning yechimini topishga imkon beruvchi pedagogik shart-sharoitlarni yaratish, tajriba-sinov ishlari subyektlari imkoniyatlarini muammo yechimiga jalb etishga yordam beradi. Suhbat maqsadga muvofiq holda indiviudal, guruhli hamda ommaviy shaklda o‘tkaziladi. Suhbat jarayonida respondentlarning imkoniyatlari to‘la-to‘kis namoyon bilishga erishish muhimdir. Uning samarali bo‘lishi uchun quyidagilarga amal qilish maqsadga muvoiq:

2) maqsaddan kelib chiqqan holda suhbat uchun belgilanuvchi savollarning mazmuni aniqlash hamda savollar o‘rtasidagi mantiqiylik va izchillikni ta’minlash;

3) suhbat joyi va vaqtini aniq belgilash;

4) suhbat ishtirokchilarining soni xususida ma’lum to‘xtamga kelish;

5) suhbatdosh to‘g‘risida avvaldan muayyan ma’lumotlarga ega bo‘lish;

6) suhbatdosh bilan samimiy munosabatda bo‘lish;

7) suhbatdoshning o‘z fikrlarini erkin va batafsil ayta olishi uchun sharoit yaratish;

8) savollarning aniq, qisqa va ravshan berilishiga erishish;

9) olingan ma’lumotlarni o‘z vaqtida tahlil qilish.

Anketa metodi (fransuzcha – tekshirish). Ushbu metod yordamida pedagogik kuzatish va suhbat jarayonida to‘plangan dalillar boyitiladi. Anketa metodi ham tizimlangan savollar asosida respondentlar bilan muloqotni tashkil etishga asoslanadi. Anketa savollariga javoblar, ko‘p hollarda, yozma ravishda olinadi. O‘rganilayotgan jarayon mohiyatidan kelib chiqqan holda anketa savollari quyidagicha bo‘ladi:
ochiq turdagi savollar (respondentlarning erkin, bafsil javob berishlari uchun imkon beruvchi savollar);

2) yopiq turdagi savollar (respondentlar «ha», «yo‘q», «qisman» yoki «ijobiy», «qoniharli», «salbiy» va hokazo tarzdagi javob variantlarini tanlash orqali savollarga javob beradilar).

1) Anketa metodini qo‘llashda ham bir qator shartlarga amal qilish zarur. Ular quyidagilardir:

2) anketa savollari tadqiq etilayotgan muammoning mohiyatini yoritishga xizmat qilishi lozim;

3) anketa savollari yirik hajmli va noaniq bo‘lmasligi kerak;

4) anketa savollari o‘quvchilarning dunyoharshi, yosh va psixologik xususiyatlarini inobatga olish asosida tuzilishi zarur;

5) anketa savollari respondentlar tomonidan to‘la javoblar berilishini ta’minlovchi vaqtni kafolatlay olishi zarur;

6) anketa o‘quvchilarning pedagogik va psixologik tavsifnomalarini tuzish manbaiga aylantirib yuborilmasligi zarur;

7) anketa javoblari muayyan mezonlar asosida puxta tahlil etilishi shart.
Intervyu metodi respondent tomonidan tadqiq etilayotgan muammoning u yoki bu jihatini yorituvchi hodisaga nisbatan munosabat bildirilishini ta’minlaydi.

Intervyu respondent e’tiboriga turkum savollarni havola etish asosida o‘tkaziladi. Intervyu jarayonida olingan savollarga nisbatan tadqiqotchi tomonidan munosabat bildirilishi uning samarasini oshiradi.

Ta’lim muassasasi hujjatlarni tahlil qilish metodi. Pedagogik hodisa va dalillarni tekshirish maqsadida ta’lim muassasalari faoliyati mazmunini yorituvchi ma’lumotlarni tekshirish maqsadga muvofiqdir. Mazkur metod O‘zbekiston Respublikasining «Ta’lim to‘g‘risida»gi qonuni hamda «Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi» talablarining ta’lim muassasalari amaliyotidagi bajarilish holatini o‘rganish, bu boradagi faolllik darajasi, erishilgan yutuq hamda yo‘l qo‘yilgan kamchiliklarni aniqlash, ilg‘or tajribalarni ommalashtirish va ta’lim muassasasi pedagogik tajribasini oshirish maqsadida qo‘llaniladi.

Ta’lim muassasasi faoliyati mohiyatini yorituvchi hujjatlar quyidagilardan iborat: o‘quv mashg‘ulotlarining jadvali, o‘quv dasturi, guruh (yoki sinf) jurnallari, o‘quvchilarning shaxsiy varaqalari, buyruqlar, Pedagogik Kengash yig‘ilishi bayonnomalari yozilgan daftar, Pedagogik Kengash harorlari, ta’lim muassasasi smetasi hamda pasporti, tarbiyaviy ishlar rejasi, o‘quv-tarbiya ishlarini tashkil etish borasidagi hisobotlar, ta’lim muassasasi jihozlari (o‘quv partalari, stol stullar, yumshoq mebellar va hokazolar) qayd etilgan daftar va hokazolar.

Mazkur metod muayyan yo‘nalishlarda o‘quv-tarbiya ishlari samaradorligi darajasi, o‘quvchilarda hosil bo‘lgan bilim, ko‘nikma va malakalar hajmi, ilg‘or pedagogik tajribalar mazmunini o‘rganishda muhim ahamiyatga ega.

Test metodi. Ushbu metod respondentlar tomonidan muayyan fan sohasi yoki faoliyat (shu jumladan, kasbiy faoliyat) bo‘yicha o‘zlashtirilgan nazariy bilim va amaliy ko‘nikma, malakalar darajasini aniqlashga xizmat qiladi. Test o‘z mohiyatiga ko‘ra quyidagi savollardan iborat:

1) ochiq turdagi savollar (respondentlarning erkin, bafsil javob berishlari uchun imkon beruvchi savollar);

2) yopiq turdagi savollar (respondentlar «ha», «yo‘q», «qisman» yoki «ijobiy», «qoniharli», «salbiy» va hokazo tarzdagi javob variantlarini tanlash orqali savollarga javob beradilar).
3) to‘g‘ri javob variantlari qayd etilgan savollar (respondentlar o‘z yondashuvlariga ko‘ra to‘g‘ri deb topgan javob variantini belgilaydilar).

Test metodini qo‘llashda aniqlanishi zarur bo‘lgan bilim, ko‘nikma va malakalarni turkum asosida berilishiga e’tibor berish maqsadga muvofiqdir. Ushbu metodning afzalligi respondentlar javoblarini aniq mezonlar bo‘yicha tahlil etish imkoniyati mavjudligi hamda vaqtning tejalishi bilan tavsiflanadi. Biroq, metod ayrim kamchilikdan ham holi emas. Chunonchi, aksariyat holatlarda javoblar yozma ravishda olinadi, shuningdek, respondent taklif etilayotgan javob variantlardan birini tanlashi zarur. Shu bois respondent o‘z fikrini batafsil ifoda etish imkoniyaga ega emas.

Pedagogik tahlil metodi. Tadqiqotni olib borish jarayonida ushbu metodni qo‘llashdan ko‘zlangan maqsad tanlangan muammoning falsafiy, psixologik hamda pedagogik yo‘nalishlarda o‘rganilganlik darajasini aniqlashdan iborat bo‘lib, tadqiqotchi ilgari surayotgan g‘oyaning nazariy jihatdan haqqoniyligini asoslashga xizmat qiladi.

Bolalar ijodini o‘rganish metodi. Mazkur metod o‘quvchilarning muayyan yo‘nalishlardagi layoqati, qobiliyati, shuningdek, ma’lum fan sohalari bo‘yicha bilim, ko‘nikma va malakalari darajasini aniqlash maqsadida qo‘llaniladi. Uni qo‘llashda o‘quvchilarning ijodiy ishlari – kundaliklari, insholari, yozma ishlari, referatlari, hisobotlari muhim vosita bo‘lib xizmat qiladi. Metodning afzalligi shundaki, u ma’lum o‘quvchiga xos bo‘lgan individual imkoniyatni ko‘ra olish, baholash va uni rivojlantirish uchun zamin yaratadi.

Bolalar ijodini o‘rganishning quyidagi shakllari mavjud: fan olimpiadalari, turli mavzulardagi tanlovlar, maktab ko‘rgazmalari, festivallar, musobaqalar.

Pedagogik tajriba (eksperiment – lotincha «sinab ko‘rish», «tajriba qilib ko‘rish») metodi. Pedagogik tajriba metodidan muammo yechimini topish imkoniyatlarini o‘rganish, mavjud pedagogik sharoitlarning maqsadga erishishning kafolatlay

olishi, ilgari surilayotgan tavsiyalarning amaliyotda o‘z in’ikosiga ega bo‘la olishi hamda samaradorligini aniqlash maqsadida foydalaniladi. Muayyan muammo yechimini topishga yo‘naltirilgan pedagogik tajriba ma’lum doirada, soni aniq belgilangan respondentlar ishtirokida amalga oshiriladi. Mazkur metoddan foydalanish tadqiqotchi tomonidan ilgari surilayotgan maxsus metodikaning samaradorligini aniqlay hamda unga baho bera olishi zarur.

Pedagogik tajriba tashkil etilish sharoitiga ko‘ra quyidagi guruhlarga bo‘linadi:




3- chizma. Pedagogik tajriba turlari

Pedagogik tajriba ham bir qator shartlarga amal qilgan holda tashkil etiladi. Xususan:

1) tajribaning maqbul loyiha (dastur) asosida uyushtirilishi;

2) tadqiqot ilmiy farazining puxta asoslanishi;

3) tadqiqot obyektlari vv usullarining to‘g‘ri tanlanishi;

4) tajriba o‘tkazilish vaqti hamda davomiyligini aniqlanishi;

5) zarur pedagogik shart-sharoitlar (asbob-uskuna, jihozlar, vositalar)ning yaratilganligi;

6) tajriba ma’lumotlarini umumlashtirish, tahlil qilish va natijalarni qayta ishlash.

Pedagogik tajriba yakunida olingan natijalarga asoslanib umumiy xulosaga kelinadi va ilmiy-metodik tavsiyalar ishlab chiqiladi.

**Matematik-statistik metod** tajriba-sinov ishlari, shuningdek, umumiy holda tadqiqotning samaradorlik darajasini aniqlash maqsadida qo‘llaniladi, muammo holatini ifodalovchi ko‘rsatkichlar maxsus matematik formulalar yordamida qayta tahlil etiladi. Yakuniy qiymat tadqiqot samarasini ifodalovchi asosiy ko‘rsatkich hisoblanadi. Ayni vaqtda pedagogik yo‘nalishda tadqiqotlar olib borishda Styudent, Ko‘virlyag, Rokich, V.P.Bespalko hamda V.V.Grechixin metodlaridan keng foydalanilmoqda.

**Tayanch tushunchalar lug‘ati:**

**Pedagogika** (yunoncha paidagogike bo‘lib, paidagogos («bola» va «yetaklayman») tushunchasi asosida shakllangan) -shaxsni shakllantirishga yo‘naltirilgan muayyan tizimli faoliyat, shuningdek, ta’lim-tarbiya mazmuni, umumiy qonuniyatlari, shakli va metodlari haqidagi fan.

**Ta’lim nazariyasi (didaktika)** – pedagogika fanining muhim tarkibiy qismi bo‘lib, shaxsni intellektual jihatdan rivojlantirish, ta’lim jarayonining mohiyati, bosqichlari, tamoyillari, qonuniyatlari, o‘qituvchi va o‘qituvchi faoliyati birligi, o‘qitishning mazmuni, shakl, metod va vositalari, ta’lim jarayonini takomillashtirish yo‘llari kabi muammolarni tadqiq etadi.

**Tarbiya nazariyasi** – pedagogikaning asosiy, muhim tarkibiy qismlaridan biri bo‘lib, u jamiyat va oilaning barkamol shaxs va malakali mutaxassisni tayyorlash muammolarini o‘rganadi.

**Kategoriya -** fanning mohiyatini ifoda etuvchi eng muhim, asosiy tushuncha.

**Tarbiya** – aniq maqsad hamda ijtimoiy-tarixiy tajriba asosida tashkil etilib, shaxsni mehnat va ijtimoiy faoliyatga tayyorlashga yo‘naltirilgan pedagogik jarayon.

**Ta’lim –** maxsus mutaxassislik ma’lumotiga ega shaxslar rahbarligida tashkil etilib, o‘quvchilarni nazariy bilim, amaliy ko‘nikma va malakalar bilan qurollantirish, ularning bilish qobiliyatlarini

o‘stirish va dunyoharashlarini shakllantirishga yo‘naltirilgan jarayon.

**Bilim –** tizimlashtirilgan ilmiy ma’lumotlar majmui.

**Ko‘nikma** – shaxsning muayyan faoliyatni tashkil eta olish qobiliyati.

**Malaka** – mashq qilish jarayonida muayyan harakat yoki faoliyatni bajarishning avtomatlashtirilgan shakli.

**Ma’lumot** – ta’lim-tarbiya natijasini ifodalovchi tizimlashtirilgan bilim, hosil qilingan ko‘nikma va malakalar, shuningdek, tarkib topgan dunyoqarash majmui.

**Rivojlanish** – shaxsning fiziologik va intellektual o‘sishida namoyon bo‘layotgan miqdor va sifat o‘zgarishlarning mohiyatini ifoda etuvchi murakkab jarayon.

**Pedagogik ilmiy-tadqiqot metodlari –** shaxsni tarbiyalash, unga muayyan yo‘nalishlarda chuqur, puxta ilmiy bilimlarni berishga yo‘naltirilgan pedagogik jarayonning ichki mohiyati, aloqa va qonuniyatlarini maxsus tekshirish va bilish usullari bo‘lib, ular asosida muammoni ijobiy hal etishga yordam beruvchi tamoyillari, obyekti va subyektiv omillari aniqlanadi.

## Nazorat uchun savollar:

1. «Pedagogika» tushunchasi qanday mazmunni anglatadi?
2. Ta’lim nazariyasi (didaktika) nima?
3. Tarbiya nazariyasi nimalarni o‘rganadi?
4. Pedagogika fanining asosiy vazifalari nimalardan iborat?
5. Pedagogikaning asosiy kategoriyalarini ayting va mohiyatini yoriting.
6. qanday fanlar pedagogik fanlar tizimiga kiradi?
7. Qanday metodlar pedagogik ilmiy-tadqiqot metodlari hisoblanadi.

## Test topshiriqlari:

1. Qaysi javob variantida pedagogika fanlari tizimi to‘g‘ri ko‘rsatilgan?

a) umumiy pedagogika, maktabgacha ta'lim pedagogikasi, korreksion (maxsus) pedagogika; surdopedagogika, tiflopedagogika, oligofrenopedagogika va logopediya;

v) umumiy pedagogika, maktabgacha ta'lim pedagogikasi, korreksion (maxsus) pedagogika, metodika, pedagogika tarixi, ta'limni boshharish, ijtimoiy pedagogika va boshqalar;

s) umumiy pedagogika, ijtimoiy pedagogika, kasb ta'limi;

d) umumiy pedagogika, metodika, ta'limni boshharish; axloq-tuzatish pedagogikasi;

e) barcha javoblar to'g'ri.

2. Mazkur g'oya qanday tushuncha mohiyatini yoritadi: «... shaxsni tarbiyalash, unga muayyan yo'nalishlarda chuqur, puxta ilmiy bilimlarni berishga yo'naltirilgan pedagogik jarayonning ichki mohiyati, aloqa va qonuniyatlarini maxsus tekshirish va bilish usullari bo'lib, ular asosida muammoni ijobiy hal etishga yordam beruvchi tamoyillari, obyekti va subyektiv omillari aniqlanadi»?

a) pedagogik ilmiy-tadqiqot metodlarining;

v) ta'lim nazariyasining;

s) tarbiya nazariyasining;

d) pedagogik fanlar tizimining;

ye) pedagogika fani vazifalarining.

## Adabiyotlar:

1. Karimov I.A. O'zbekistonninng o'z istiqlol va taraqqiyot yo'li. – Toshkent, O'zbekiston, 1992.

2. Karimov I.A. Barkamol avlod – O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. – Toshkent, Sharq nashriyot-matbaa konserni, 1997.

3. O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi qonuni Barkamol avlod – O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. – Toshkent, Sharq nashriyot-matbaa konserni, 1997.

4. Forobiy, Abu Nasr. Fozil odamlar shahri. – Toshkent, Xalq merosi nashriyoti, 1993.

5. Pedagogika g‘A.q.Munavvarovaning umumiy tahriri ostida. - Toshkent, O‘qituvchi, 1993.

6. Podlaso‘y I.P. Pedagogika. V 2 kn. Kn. 2. – Moskva, Vlados, 1999.

## 2- mavzu: Boshlang’ich ta’lim didaktikasining mazmuni va maqsadi

**Reja:**

1.Ta’limning metodologik asoslari.

2.Zamonaviy didaktika konsepsiyasi.

3.Sharq mutafakkirlarining didaktika haqidagi fikrlari.

4.Ta'lim turlari va ularning tavsifi. Ta'lim qonuniyatlari va tamoyillari.

### 1.Didaktika haqida tushuncha. Didaktikaning predmeti va vazifalari. Didaktikaning tashkil topishi va rivojlanishi.

Insonning faoliyatida o‘qitish har doim juda muhim ahamiyatga ega bo‘lgan. Ta’lim tasodifiy, intuitiv xususiyatga ega bo‘lganda ham va asosan tasodifan axborotlarni berish hamda taqlid qilishdan iborat bo‘lganda ham shunday bo‘lgan; keyinchalik ham, ta’lim maqsadga muvofiq muntazam va rejalashtirilgan jarayonga aylanganda, maktab paydo bo‘lganida ham shunday bo‘lgan. Biroq uzoq vaqt davomida ta’limni nazariy tahlil qilish va o‘rganish ishlari olib borilmadi, shuning uchun o‘z nazariyasiga ega bo‘lmadi. Faqatgina XVII asr bu sohada muhim o‘zgarishlar olib keldi: aynan o‘sha paytda ta’lim alohida nom oldi va tarixda birinchi didaktik faoliyatning ilmiy asoslangan tizimiga asos solindi.

Didaktika so‘zi yunoncha didaktikos “o‘rgatuvchi”, didasko esa – “o‘rganuvchi” ma’nosini bildiradi.

Bu so‘z 1613 yili Germaniyada nemis pedagogi Volfgang Ratke (1571-1635 yillar) tomonidan kiritildi.

Bu tushunchani shunga o‘xshash usulda buyuk chex pedagogi Yan Amos Komenskiy (1592-1670 yillar) “Buyuk didaktika” nomli mashhur asarida tilga oladi. Lekin Komenskiy “didaktika bu faqat ta’limgina emas, balki tarbiyalash ham”, deb ta’kidlaydi. Mazkur asarda olim ta’lim nazariyasining muhim masalalari: ta’lim mazmuni, ta’limning ko‘rgazmaliligi, ketma-ketligi kabi tamoyillari, sinf-dars tizimi borasida so‘z yuritadi.

### 2. Didaktikaning predmeti, funksiyalari va vazifasi.

Pedagogik fan o‘qitish va tarbiyalashni ularning yaxlitligi va birligida o‘rganadi. Ikki faoliyatning har birining mohiyatini aniq bayon etish uchun ta’lim nazariyasi (didaktika) va tarbiya nazariyasini ajratib ko‘rsatadilar.

Hozirgi davrda didaktika o‘qitishning mazmuni, metodlari va tashkiliy shakllarini ilmiy asoslab beruvchi pedagogika sohasi sifatida tushuniladi.

Umumiy didaktikadan tashqari xususiy didaktikalar yoki alohida fanlar bo‘yicha ta’lim metodikasi deb ataluvchi didaktikalar ham mavjud.

Ularning mazmuni ta’limning ma’lum bosqichlarida u yoki bu fanlarni o‘rganish va ta’lim berishning nazariy asoslarini belgilaydi.

Didaktika – bu pedagogik fan bo‘lib, u ta’limning nazariy jihatlarini o‘rganadi. Har bir o‘qituvchi didaktika asoslarini bilishi zarur.

Didaktika predmetini aniqlash bo‘yicha turli qarashlar ilgari surilgan. qarashlarning turlicha bo‘lishi didaktikaning metodologik kategoriyalarini aniq ajratilmaganligi bilan bog‘liq.

Ko‘pchilik olimlar ta’lim obyekt deb o‘qitish jarayonining maqsadi, mazmuni, qonuniyatlari, metodlari va tamoyillarini ko‘rsatadilar.

Didaktika ta’limni ijtimoiy tajribani berish vositasi sifatida e’tirof etadi. Ta’lim yordamida yoshlarni hayotga tayyorlash amalga oshiriladi. Ta’limiy faoliyatini tashkil etishda o‘qituvchi - o‘quvchi, o‘quvchi – o‘quv materiali, o‘quvchi - boshqa o‘quvchilar o‘rtasidagi munosabatlar yuzaga keladi.

Pedagogik adabiyotlarda ulardan qaysi biri didaktika uchun asosiy hisoblanishi kerakligi borasida ham turli fikrlar keltiriladi hamda o‘quvchining o‘quv materialiga bo‘lgan munosabati, ya’ni, bilimlarni o‘rganish munosabatini asosiy deb e’tirof etuvchi qarashlar soni nisbatan ko‘p.

Darhaqiqat, o‘qish, o‘rganishi ta’lim jarayonining ajralmas xususiyatidir. Ta’limga psixologiya nuqtai nazaridan yondashilsa, ushbu munosabatning ustuvorligiga shubha qolmaydi. Biroq, ta’limga pedagogik, ya’ni, ijtimoiy tajribani berish, o‘rgatish nuqtai nazaridan qaralsa faoliyat uchun asosiy sanaluvchi munosabat – ikki shaxs (o‘quvchi va o‘qituvchi) o‘rtasidagi munosabatlar yetakchi o‘rin egallashi lozim ekanligi anglanadi.

Didaktika predmetini mohiyatini ochishga xizmat qiluvchi yana bir qarash ta’lim-tarbiya jarayonini yaxlit o‘rganish zarurligini ilgari suradi. Ta’limning tarbiyaviy vazifalari o‘quvchining bilimni o‘zlashtirishlarini ta’minlabgina qolmay, shaxs xususiyati, uning rivojlanishi, ma’lum ma’naviy-axloqiy sifatlarni o‘zlashtirishi, fe’l-atvori, xulqini tarbiyalash uchun zarur shart-sharoitni yaratishdan iborat.

Didaktikaga ta’limning mazmunli va protsessual jihatlarini birgalikda o‘rganish xosdir. Amaliyotni qayta tashkil etish va takomillashtirish masalalarini nazarda tutgan holda didaktika ta’limni faqatgina o‘rganish obyekti sifatidagina emas, balki ilmiy asoslangan loyihalashtirish obyekti sifatida qaraydi.

Umumiy didaktikaning predmeti dars o‘tish (o‘qituvchi faoliyati) va bilim olish (o‘quvchining o‘rganish faoliyati)ning o‘zaro bog‘liqligi va aloqadorligi hisoblanadi.

**Didaktikaning vazifalari quyidagilardan iborat:**

- ta’lim jarayonlari va ularni amalga oshiri shartlarini ta’riflash va tushuntirish;
- ta’lim jarayonini yanada mukammal tashkil etish, ya’ni, ta’lim tizimlari va texnologiyalarini ishlab chiqish;
- ta’lim jarayoni uchun xos bo‘lgan umumiy qonuniyatlarni aniqlash, omillarini tahlil qilish va ta’riflash.

Didaktika nazariy va bir vaqtning o‘zida meyoriy-amaliy fan. Didaktikaning ilmiy-nazariy vazifasi ta’limning mavjud jarayonlarini o‘rganish, uning turli jihatlari o‘rtasidagi bog‘liqliklar, ularning mohiyatini ochib berish, rivojlanish tendensiyalari va kelajagini aniqlashdan iboratdir.

O‘zlashtirilgan nazariy bilimlar ta’lim amaliyotini yo‘naltirish, ta’limini jamiyat tomonidan qo‘yilayotgan ijtimoiy talablarga muvofiq takomillashtirishga imkon beradi. Ta’lim mazmunini anglab olish, ta’lim tamoyillari, ta’lim metod va vositalarini qo‘llash meyorlarini aniqlash asosida didaktika amaliy-meyoriy hamda konstruktiv-texnologiya vazifani bajaradi.

**3. Didaktikaning tushunchaviy tizimi va asosiy kategoriyalari.** Muayyan fanga xos bo‘lgan tushunchalarda insoniyat tomonidan ijtimoiy taraqqiyot jarayonida to‘plangan bilimlar aks etadi. Mavjud ilmiy tushunchalar ikki asosiy guruhga ajratiladi:

1) falsafiy tushunchalar;
2) xususiy ilmiy, ya’ni, muayyan fangagina xos bo‘lgan tushunchalar.

Didaktika uchun “umumiy va alohida”, “mohiyati va hodisa”, “qarama-qarshilik”, “bog‘liqligi” kabi va boshqa falsafiy tushunchalar ham muhim ahamiyatga ega. Didaktika tomonidan foydalaniladigan umumfan tushunchalari orasida “tizim”, “struktura”, “vazifa”, “element” kabilar aloshida o‘rin tutadi. Pedagogikaga xos didaktik tushunchalar sirasiga quyidagilar kiradi: “ta’lim”, “dars berish”, “bilim olish”, “ta’lim jarayoni”, “o‘quv fani”, “ta’lim mazmuni” va boshqalar.

Didaktikada turdosh fanlarga xos bo‘lgan tushunchalar ham qo‘llaniladi: “idrok etish”, “o‘zlashtirishi”, “mahorat”, “rivojlanish” va boshqalar (psixologiya) hamda “boshqarish”, “qayta aloqa” (kibernetika).

Didaktikaning tushunchali-terminologik tizimi muntazam yangilanib va to‘ldirilib borilmoqda.

Didaktikaning asosiy kategoriyalari quyidagilardan iborat: dars o‘tish, bilim olish, ta’lim, bilim, ko‘nikma, malaka, ta’lim maqsadi, mazmuni, ta’lim jarayoni, ta’lim jarayonini tashkil etish, ta’lim turlari, shakllari, metodlari va vositalari, ta’lim natijasi.

So‘nggi paytlarda asosiy didaktik kategoriyalar sirasiga ta’limning didaktik tizimi va ta’lim texnologiyasi kabi tushunchalarni ham kiritish taklifi ilgari surilmoqda.

**Bilim olish** – idrok etish, o‘rganish, mashq qilish va egallangan tajriba asosida xulq va faoliyatda yangi shakllarning yuzaga kelishi, mavjud bilimarining o‘zgarab, takomillashib, boyib borish jarayoni.

**Ta’lim** - qo‘yilgan maqsadga erishishga yo‘naltirilgan o‘qituvchi va o‘quvchining maqsadli o‘zaro harakatlari. Ularning birgalikdagi faoliyati ikki tomonlama aloqani tashkil etish jarayonidir. Ta’lim berish asosida bolani umumiy rivojlanishi uchun qulay sharoit yaratiladi. Ta’lim - o‘qitish jarayonida o‘quvchilar tomonidan egallangan bilim, ko‘nikma, malaka, fikrlash tizimi.

**Bilim** – tizimlashtirilgan ilmiy ma’lumotlar majmui bo‘lib, ular o‘quvchining ongida borliq tushunchalari, sxemalar, ma’lum obrazlar ko‘rinishida aks etadi.

**Ko‘nikma** – shaxsning muayyan faoliyatni tashkil eta olish qobiliyati.

**Malaka** – *muayyan harakat yoki faoliyatni bajarishning avtomatlashtirilgan shakli.*

**Maqsad** (o‘qish, bilim olish maqsadi) – ta’limning nimaga intilayotgani, uning urinishlari yo‘naltirilgan.

**Mazmun** (ta’lim, bilim olishning mazmuni) – ta’lim jarayonida o‘quvchi egallab olishi zarur bo‘lgan ilmiy bilimlar, amaliy ko‘nikma va malakalar, faoliyat hamda fikrlash usullarining tizimi.

**Tashkil etish** – didaktik jarayonni aniq mezonlar asosida tartibga solish, qo‘yilgan maqsadni amalga oshirish uchun unga zarur shaklni berish.

**Shakl** (yunoncha, forma - tashqi ko‘rinishi, qobig‘i) – o‘quv jarayonining mavjudligini ta’minlovchi usul, uning ichki mantig‘i, mohiyati va mazmuni uchun qobig‘idir. Shakl sinfdagi o‘quvchilarning soni, ta’lim o‘rni hamda vaqti, uni amalga oshirish tartibi va shu kabilarga bog‘liq bo‘ladi.

**Metod** (yunoncha metodos – yo‘li, usuli)- ta’lim maqsadi va vazifasiga erishish (uni amalga amalga oshirish) yo‘li.

**Vosita** - o‘quv jarayonini predmetli ta’minlash (pedagogning nutqi, darslik, o‘quv qo‘llanmalari, ko‘rsatmali qurollar, sinfdagi jihozlar, texnik vositalar, o‘quv qurollari va boshqalar vosita hisoblanadi).

**Natija** (ta’lim mahsuli) – ta’lim nimaga erishishini qayd etuvchi tushuncha, o‘quv jarayonining oqibati, belgilangan maqsadni amalga oshirish darajasi.

**4. Didaktik nazariya (konsepsiya)lar va ularning falsafiy asoslari.** Ta’lim jarayoni psixologik-pedagogik konsepsiyalar (ular aksariyat hollarda didaktik tizimlar ham deb ataladi) asosida tashkil etiladi.

Didaktik tizim (yunoncha systema – yaxlit, qismlarda tashkil topgan, birlashtirish) – ma’lum mezonlari bo‘yicha yaxlit holatni belgilash, ajratib ko‘rsatish demakdir. U ta’limning maqsadi, tamoyillari, mazmuni, shakli, metod va vositalarining birligi asosida tashkil etilgan tuzilmalarning ichki yaxlitligini ifodalaydi. Tadqiqotchilar mavjud didaktik konsepsiya (tizim)larni umumlashtirib quyidagi guruhlarga ajratadilar:

1) *an’anaviy;*
2) *progressiv;*
3) *zamonaviy.*

Ta’lim nazariyasida Y.A.Komenskiy, I.Pestallotsi va I.Gerbartlarning didaktik konsepsiyalari muhim ahamiyatga ega.

An’anaviy didaktik tizimning yaratilishi nemis faylasufi, psixolog va pedagog I.F.Gerbart (1776-1841 yillar) nomi bilan bog‘liq. U Y.A.Komenskiyning sinf-dars an’anaviy tizimini tanqidiy nuqati nazardan qayta asoslab, etika va psixologiyaning nazariy yutuqlariga tayangan holda ta’lim tizimini yaratdi.

I.F.Gerbart ta’lim tizimining asosiy belgisi quyidagilardan iborat. o‘quvchilarning intellektual rivojlanishini ta’minlash maktabning asosiy vazifasi; bolani tarbiyalash esa oilaning vazifasidir.

Progressiv (pedotsentrik) tizim bolaning bilim olishida faoliyatining asosiy rol o‘ynashini e’tirof etadi. Mazkur tizim asosini D.Dyui tizimi, G.Kershteynning mehnat maktabi, V.Lay nazariyalari tashkil etadi.

Zamonaviy didaktik tizim. XX asrning 50-yillarida psixolog va pedagog B.Skinner qismlarga bo‘lingan axborotlarni yetkazish, bu jarayonni muntazam nazorat qilish asosida materialni o‘zlashtirishda samaradorlikka erishish g‘oyasini ilgari suradi. Mazkur g‘oya keyinchalik dasturiy ta’lim deb ataladi. Keyinchalik N.Krauder nazorat natijalariga qarab o‘quvchiga mustaqil ishlash uchun turli materiallarni taklif etadigan tarmoqlashtirilgan dasturlarni yaratdi.

D.Dyuining nazariy g‘oyalari muammoli ta’limning asosi bo‘lib qoldi. Bugungi kunda muammoli ta’lim deb nomlanuvchi, ushbu g‘oya o‘qituvchi rahbarligi ostida muammoli vaziyatni yaratish va ularni hal etishda o‘quvchilarning faollik va mustaqilliklarini ta’minlashga erishishni nazarda tutadi. Muammoli ta’limning vazifasi faol o‘rganish jarayonini rag‘batlashtirish, o‘quvchilarda fikrlash, tadqiqotchilik ko‘nikmalarini shakllantirishdan iboratdir.

L.V.Zankovning (1901-1977 yillar) rivojlantiruvchi ta’lim konsepsiyasi XX asrning 50-yillarida keng tarqaldi. Uning g‘oyalarini amalga oshirish ta’lim jarayoniga insonparvarlik g‘oyasini singdirish, shaxsni barkamol rivojlanishi uchun zarur shart-sharoitlarni yaratishga imkon beradi.

Psixolog L.S.Vigotskiy (1896-1934 yillar) tomonidan 30-yillarda ilgari surilgan “Yaqin rivojlanish zonasi” g‘oyasi ham muhim ahamiyatga ega. Unga ko‘ra bola kattalar yordamida bilim olib, o‘zi mustaqil bajara olmagan ishlarni bajara boshlaydi.

O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi qonunida ta’lim va tarbiyani insonparvarlik, demokratik g‘oyalarga muvofiq tashkil etilishi e’tirof etilgan.

Ta’limni insonparvarlashtirish ta’lim jarayonida o‘quvchi shaxsini hurmat qilish, uning sha’ni, obro‘si, qadr-qimmatini poymol etmaslik, mavjud iste’dodini rivojlantirishni nazarda tutadi. Demokratlashtirish esa pedagogik jarayonda rasmiyatchilikka yo‘l qo‘ymaslik, ta’lim dasturlarini tanlashda o‘quvchilarning fikrlarini inobatga olishni ifodalaydi.

Respublika uzluksiz ta’lim tizimi ijtimoiy buyurtmani bajarishga xizmat qiladi, barkamol shaxs va yetuk mutaxassisni tarbiyalash vazifasini bajaradi.

**Zamonaviy pedagogikada ta’lim paradigma (modeli) lari. Pedagogik paradigma** (yunoncha paradeigma - misol, namuna) – pedagogika fani rivojining har bir bosqichida ta’limiy va tarbiyaviy muammolarni hal etish namunasi (modeli, standarti) sifatida ilmiy pedagogik hamjamiyat tomonidan e’tirof etilgan nazariy hamda metodologik ko‘rsatmalar to‘plami bo‘lib, u ta’limning konseptual modeli sifatida qo‘llaniladi. Bugungi kunda ta’limning quyidagi paradigmalari keng tarqalgan:

1. An’anaviy – konservativ (bilim paradigmasi)
2. Ratsionalistik (bixevioristik)
3. Fenomenologik (gumanistik) paradigma.
4. Texnokratik.
5. Ezoterik.

Ayni vaqtda ta’lim paradigmalarini belgilashga nisbatan ikki xil yondashuv mavjud:

1. Qadriyatli (aksiologik) yondashuv - madaniyat inson hayotining mazmuni sifatida tushuniladi.

2. Faoliyatli yondashuvga asosan madaniyat moddiy va ma’naviy boyliklarini yaratishga yo‘naltirilgan faoliyatning sinalgan usullari sifatida talqin etiladi.

3. Shaxsiy yondashuv - madaniyat muayyan shaxs timsolida namoyon bo‘ladi.

Madaniyatga nisbatan turlicha yondashuvlarning mavjudligi turlicha paradigmalarning yaratilishiga zamin yaratadi.

Har bir paradigma bir qator ta’limiy muammolarni hal etishga yo‘naltiriladi. Xususan:

- ijtimoiy institut sifatida o‘quv muassasalarining vazifalari;
- ta’limning samarali tizimi;
- o‘quv yurtlari oldida turgan eng muhim, ustuvor masala;
- ta’limning ijtimoiy ahamiyatli maqsadlari;
- muayyan bilim, ko‘nikma va malakalarning qimmatli hisoblanishi.

Ayni vaqtda quyidagi paradigmalar mavjud:

1. Bilim olishning an’anaviy paradigmasi (modeli) (J.Majo, L.Kro, J.Kapel va boshqalar)

Unga ko‘ra ta’limning asosiy maqsadi - “Bilim, qanchalik qiyin bo‘lmasin bilim olish”. An’anaviy paradigma maktabning maqsadi yosh avlodga individual rivojlanishi hamda ijtimoiy tartibni saqlab qolishga yordam beruvchi madaniy meroslarning muhim elementlari – bilim, ko‘nikma va malakalar, ilg‘or g‘oyalar va qadriyatlarni saqlab qolish hamda ularni yoshlarga yetkazish muhim ekanligini yoritadi. Bilim olish paradigmasining asosiy maqsadi: ta’lim olish, taraqqiyot va madaniyatning eng muhim  elementlarini avloddan-avlodga yetkazish.

2. Ratsionalistik (bixevioristik) paradigma (P.Blum, R.Gane, B.Skinner va boshqalar). Ratsionalistik paradigma diqqat markazida ta’lim mazmuni emas, balki o‘quvchilar tomonidan turli bilimlarni o‘zlashtirilishini ta’minlovchi samarali usullari yotadi. Ta’limning ratsionalistik modeli asosini B.Skinerning ijtimoiy  injeneriya bixevioristik (inglizcha behavior - xulqi) konsepsiyasi tashkil qiladi.

Maktabning maqsadi – o‘quvchilarda g‘arb madaniyati ijtimoiy qoidalari, talablari va ko‘zlagan maqsadlariga mos keladigan moslashtiruvchi “xulqiy repertuar”ni shakllantirishdir. Shu bilan bir vaqtda, “xulqi” atamasi bilan “insonga xos hamma ta’sirlanishlar – uning fikrlari, sezgi va harakatlari” ifodalanadi (R.Tayler).

Bunda ta’limning asosiy metodlari, o‘rgatish, trening, test sinovlari, individual ta’lim, tuzatishlari bo‘lib qoladi. Buning oqibatida, ta’limninggina emas, balki dars berishning ham ijodiy xarakterini aniqlash muammosi muhokama qilinmaydi.

P.Blum barcha o‘quvchilar faqat o‘zlashtiribgina qolmay, balki muvaffaqiyatli o‘qishlari mumkin deb hisoblaydi. O‘quvchining optimal qobiliyatlari ma’lum sharoitlarda, o‘quvchiga ta’lim berish natijasi uning sur’ati

bilan aniqlanadi. Olimning firicha, o'quvchilarning 95 % i ta'lim muddatlariga bo'lgan cheklashlar olib tashlanganda o'quv kursining butun muzmunini o'zlashtirib olishga qodirlar. Ana shu nuqtai nazardan o'quvchilar tomonidan bilimlarning muvaffaqiyatli o'zlashtirishini ta'minlovchi metodika ishlab chiqiladi, uning mohiyati quyidagichadir:

1. Butun sinf yoki kurs uchun to'la o'zlashtirish etaloni, mezonnini aniq belgilab olish asosida o'qituvchi ta'lim yakunida erishilishi kerak bo'lgan aniq natijalarning ro'yxati va unga muvofiq keluvchi testlarni tuzadi.
2. O'quv birliklari, ya'ni, o'quv materiallarining yaxlit bo'limlari ko'rsatiladi, ularni o'zlashtirish natijalari aniqlanadi, yakuniy bahoga ta'sir ko'rsatmaydigan navbatdagi testlar tuziladi. Bu testlarning vazifalari – tuzatish, korreksiyalashdan iborat.
3. To'la o'zlashtirishga yo'naltirilgan har bir o'quv kurs materiallarini o'zlashtirish darajasini baholash uchun test sinovlarini o'tkazish. Bu o'rinda har bir o'quvchiga baho va ta'lim maqsadlarining ahamiyatini tushuntirish muhim.

Predmetlarni bo'sh va o'rtacha o'zlashtiruvchi o'quvchilarning qobiliyatlarini jadal rivojlantirish P.Blum konsepsiyasining asosiy mazmunini tashkil etadi.

Turli mamlakatlarning (Avstriya, Belgiya, AqSH va boshqalar) ta'lim tizimlari tajribasi ratsionalistik (bixevioristik) paradigma g'oyalariga muvofiq ish ko'rilganda 70 % o'quvchilar yuqori natijalarni qayd etganliklarini ko'rsatadi.

Yuqorida qayd etilgan ta'lim yo'nalishlari o'zida insonparvarlik g'oyalarini ifoda etmagan, ular bola dunyoqarashining rivojlanishi, shaxsning rivojlanishida shaxslararo munosabatlarning muhim o'rin tutishini nazarda tutmaydi.

3. Gumanistik (fenomenologik) paradigmada (A.Maslou, A.Kombs, K.Rodjers, L.S.Vo'godskiy va boshqalar) o'quvchini erkin shaxs, ijtimoiy munosabatlar subyekti sifatida e'tirof etib, uning o'ziga xos rivojlanish talablariga egaligini ta'kidlaydi. . Ular bolani rivojlantirish maqsadida uni shaxslararo munosabatlar jarayoniga yo'naltiradi. Ta'limning fenomenologik (fenomen – yunoncha phainomenon – hisoblangan, ya'ni, mashhur, alohida nodir odam) modeli o'quvchilarning individual-psixologik xususiyatlarini hisobga olib, ularning talab va qiziqishlariga hurmat bilan munosabatda bo'lishni ko'zda tutadi. Uning vakillari o'quvchini nodir shaxs deb hisoblaydilar. Gumanistik paradigma doirasida faoliyat olib boruvchi har bir ta'lim tizimi ijodiy rivojlanadi va o'quvchi hamda o'qituvchining erkinligi va ijodkorligini yoqlaydi.

Gumanistik paradigma g'oyalari 1991 yildan keyin respublika uzluksiz ta'lim

tizimiga joriy etila boshlandi. Paradigmaning diqqat markazida o'quvchining barkamol rivojlanishi, uning intellektual ehtiyojlari, "erkin fikrlaydigan shaxsni tarbiyalash" masalasining ijobiy hal etilishi yotadi. Ayni vaqtda respublika ta'lim muassasalarida qo'yidagi g'oyalarga amal qilinmoqda: "Demokratik jamiyatda bolalar, umuman har bir inson erkin fikrlaydigan etib tarbiyalanadi. Agar bolalar erkin fikrlashga o'rganmasa, berilgan ta'lim samarasi past bo'lishi muqarrar. ... Mustaqil fikrlash – ham katta boylikdir"1.

Ezoterik paradigma (yunoncha esoterikos – ichki, sirli, yashirin, faqatgina biluvchilar uchun mo‘ljallangan insonning dunyo bilan o‘zaro aloqalari yuksak darajalarini aks ettiradi). Modelning mohiyati haqiqatga abadiy va o‘zgarmas, doimiy sifatida munosabatda bo‘lishdan iboratdir. Paradigma tarafdorlari haqiqatni bilib bo‘lmaydi deb ta’kidlaydilar. Unga faqatgina fahmlash asosida erishish mumkin. Pedagogik faoliyatning oliy maqsadi koinot bilan muloqot, o‘quvchining tabiiy kuchlarini ozod etish va rivojlantirishdan iborat. Shu bilan birga, o‘qituvchining himoyalash vazifasi muhimdir, u o‘quvchining mavjud imkoniyatlarini uni ma’naviy, jismoniy, psixik jihatdan rivojlantirishga yo‘naltiradi.

Ilmiy-texnik, texnokratik paradigmaning asosiy maqsadi amaliyotni takomillashtirish asosida o‘quvchilarga “aniq” ilmiy bilimlarni berish va ularning o‘zlashtirishlarini ta’minlash. “Bilim - kuchdir”, shuning uchun insonning qimmati uning o‘rganish, bilim olish, imkoniyatlari bilan belgilanadi. Odam o‘z-o‘zidan qimmatli emas, u faqatgina ma’lum (o‘rtacha, standartlashtirilgan) bilim yoki xulq egasi sifatida qimmatga ega g‘oyalari mazkur paradigmaning asosini tashkil etadi.

So‘nggi yillarda noinstitutsional paradigma rivojlana boshladi. U ta’limni ijtimoiy institutlar, ya’ni, maktab va oliy o‘quv yurtlardan tashqarida tashkil etish g‘oyasini ilgari suradi. Bu ta’lim “tabiatda” - Internet, “ochiq maktablar” – kompyuterlar vositasida ta’lim dasturlariga (masofadan o‘qitish) muvofiq o‘qitish samarali deya hisoblaydi.

## Tayanch tushunchalar lug‘ati:

**Didaktika** – (yunoncha didaktikos “o‘rgatuvchi”, didasko esa – “o‘rganuvchi”) - pedagogik fan bo‘lib, u ta’limning nazariy jihatlari (ta’lim jarayonining mohiyati, tamoyillari, qonuniyatlari, o‘qituvchi va o‘quvchi faoliyatlari, ta’lim maqsadi, shakl, metod va vositalari, natijasi va hokazolar)ni o‘rganadi.

**Bilim** – tizimlashtirilgan ilmiy ma’lumotlar majmui bo‘lib, ular o‘quvchining ongida borliq tushunchalari, sxemalar, ma’lum obrazlar ko‘rinishida aks etadi.

**Bilim olish** – idrok etish, o‘rganish, mashq qilish va egallangan tajriba asosida xulq va faoliyatda yangi shakllarning yuzaga kelishi, mavjud bilimarining o‘zgarab, takomillashib, boyib borish jarayoni.

**Ta’lim** - qo‘yilgan maqsadga erishishga yo‘naltirilgan o‘qituvchi va o‘quvchining maqsadli o‘zaro harakatlari. Ularning birgalikdagi faoliyati ikki tomonlama aloqani tashkil etish jarayonidir.

**Ko‘nikma** – shaxsning muayyan faoliyatni tashkil eta olish qobiliyati.

**Malaka** – muayyan harakat yoki faoliyatni bajarishning avtomatlashtirilgan shakli.

**Ta’lim maqsadi** (o‘qish, bilim olish maqsadi) – ta’limning nimaga intilayotgani, uning urinishlari yo‘naltirilgan.

**Mazmun** (ta’lim, bilim olishning mazmuni) – ta’lim jarayonida o‘quvchi egallab olishi zarur bo‘lgan ilmiy bilimlar, amaliy ko‘nikma va malakalar, faoliyat hamda fikrlash usullarining tizimi.

**Ta'lim natijasi (ta'lim mahsuli)** –ta'lim nimaga erishishini qayd etuvchi tushuncha, o'quv jarayonining oqibati, belgilangan maqsadni amalga oshirish darajasi.
**Pedagogik paradigma** – (yunoncha paradeigma - misol, namuna) – pedagogika fani rivojining har bir bosqichida ta'limiy va tarbiyaviy muammolarni hal etish namunasi (modeli, standarti) sifatida ilmiy pedagogik hamjamiyat tomonidan e'tirof etilgan nazariy hamda metodologik ko'rsatmalar to'plami bo'lib, u ta'limning konseptual modeli sifatida qo'llaniladi.
**Verbal** – so'z bilan, og'zaki.
**Gnostik** – o'rganuvchi.

## Nazorat uchun savollar:

1. "Didaktika" tushunchasini ta'riflab bering.
2. Didaktikaning predmeti va obyekti nimalardan iborat?
3. Didaktikaning asosiy vazifalari nimalardan iborat?
4. Didaktikaning asosiy kategoriyalari qaysilar?
5. Didaktik konsepsiyalardan qaysilari bilan tanishsiz?
6. Rivojlantiruvchi konsepsiyaning mohiyati nimadan iborat?
7. Rivojlantiruvchi ta'limnig asosiy tamoyillari qaysilar?
8. Muammoli ta'limning mohiyati nimadan iborat?
9. "Ta'lim va tarbiyaning insonparvarlik, demokratik xususiyatlari" tushunchasini Siz qanday tushunasiz?
10. Zamonaviy didaktik tizimning o'ziga xos belgilari nimalardan iborat?
11. Pedagogik paradigma nima? Ta'limning asosiy paradigmalarini aytib bering.

## Testlar topshiriqlari:

Didaktika deb nimaga aytiladi?
a) didaktika bu shaxsning rivojlanishi qonuniyatlari haqidagi fan;
v) ta'lim mazmuni, metodlari va tashkiliy shakllarini ilmiy asoslab beruvchi ta'lim pedagogik nazariyasi, pedagogikaning sohasi;
s) bola shaxsini shakllantirish qonuniyatlari haqidagi fan;
d) tarbiyalovchi ta'lim mohiyatini o'rganadigan soha;
e) darsni самарали ташкил этиш шартларини белгилайдиган ёндашув.

2. Umumiy didaktikaning predmeti nimadan iborat?
a) dars o'tish va bilim olishning o'zaro aloqalari va bog'liqligi;
v) alohida fanga ta'lim nazariyasi
s) ta'lim faoliyatning alohida turi sifatida
d) ta'lim jarayonida shaxsning psixologik rivojlanishi
ye) o'quvchilarni shakllantirish va ta'lim olishning ijtimoiy sharoitlari.

3. qaysi javob variantida didaktikaning asosiy kategoriyalari ko'rsatilgan?
а) тарбия, шакллантириш, ривожлантириш, таълим, таксология;
в) синф-дарс тизими, жараён, тузилиш, бошқариш, қайта алоқа;
с) муқобиллик, синф, самарадорлик, идрок қилиш, ўзлаштириш, ўқув фани
д) дарс ўтиш, билим олиш, таълим, таълим жараёни, шакл, метод;

e) ўқувчи, тарбия, шакллантириш, бошқариш, натижа.

4. Bu ifoda ta’limning qaysi paradigmasi g‘oyasini ifodalaydi: «... paradigmalar o‘quvchini hayot subyekti sifatida o‘zini rivojlantirish ehtiyojiga ega erkin va ma’naviy shaxs sifatida, diqqat markaziga qo‘yadi»?

a) an’anaviy (bilimli);
v) texnokratik;
s) insonparvarlik (fenomenologik);
d) ezoterik;
ye) ratsionalistik (bixevioristik).

**Adabiyotlar:**


1. O‘zbekiston Respublikasining «Ta’lim to‘g‘risida»gi qonuni g‘g‘Barkamol avlod – O‘zbekiston taraqqiyotining poydevori. – Toshkent, Sharq nashriyot-matbaa konserni, 1997.
2. O‘zbekiston Respublikasining «Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi» g‘g‘Barkamol avlod – O‘zbekiston taraqqiyotining poydevori. – Toshkent, Sharq nashriyot-matbaa konserni, 1997.
3. Karimov I.A. Barkamol avlod – O‘zbekiston taraqqiyotining poydevori. - Toshkent, Sharq nashriyot-matbaa konserni, 1997.
4. Mavlonova R. Va boshq. Pedagogika. – Toshkent, O‘qituvchi, 2001.
5. Podlaso‘y I.P. Pedagogika. Novo‘y kurs. V 2 kn. Kn. 1. – Moskva, Vlados, 1999.


Chizma №1

**Didaktika** – (yunoncha didaktikos “o‘rgatuvchi”, didasko esa – “o‘rganuvchi”) - pedagogik fan bo‘lib, u ta’limning nazariy jihatlari (ta’lim jarayonining mohiyati, tamoyillari, qonuniyatlari, o‘qituvchi va o‘quvchi faoliyatlari, ta’lim maqsadi, shakl, metod va vositalari, natijasi va hokazolar)ni o‘rganadi

**Ta’lim** - qo‘yilgan maqsadga erishishga yo‘naltirilgan o‘qituvchi va o‘quvchining maqsadli o‘zaro harakatlari. Ularning birgalikdagi faoliyati ikki tomonlama aloqani tashkil etish jarayonidir.

**Ko‘nikma** – shaxsning muayyan faoliyatni tashkil eta olish qobiliyati.
**Malaka** – muayyan harakat yoki faoliyatni bajarishning avtomatlashtirilgan shakli.

**Ta’lim maqsadi** (o‘qish, bilim olish maqsadi) – ta’limning nimaga intilayotgani, uning urinishlari yo‘naltirilganligi.

## 3-МАВЗУ: SHAXSNI SHAKLLANTIRISH VA RIVOJLANTIRISH METODLARI

### REJA:

1.Shaxsni shakllantirish va rivojlantirish metodlari.

2.Shaxsning bilish qobiliyatlarini shakllantirish.

3.Shaxsning ijtimoiy xulq malakalarini shakllantirish va faoliyatni tashkil qilish metodlari.

4. Shaxs xulqi va faoliyatida motivatsiya va rag'batlantirish metodlari.

5. Shaxsga texnologik ta'sir metodlari.

6. Shaxsning yosh xususiyatlari, qobiliyat va iqtidorlilarni rivojlantirish. Shaxsga o'zaro ta'sir metodlari.

1.Shaxs rivojlanishi haqida tushuncha. Individ, shaxs, individuallik. Shaxs tushunchasi insonga taalluqli bo‘lib, konkret kishi, ya’ni, muayyan jamiyatning a’zosini ifodalashga xizmat hiladi. Odam shaxs bo‘lishi uchun psixik jihatdan rivojlanishi, o‘zini yaxlit inson sifatida his etishi, o‘z xususiyatlari va sifatlari bilan boshqalardan farq qilmog‘i kerak.

“Individ” nima? Bola ma’lum yoshga qadar “individ” sanaladi. Individ lotincha “individium” so‘zidan olingan bo‘lib, «bo‘linmas», «alohida shaxs», «yagona» ma’nolarini anglatadi.

Individuallik esa tarbiya jarayonini amalga oshirishda bolaning shaxsiy xususiyatlari va yashash sharoitlarini chuqur bilish hamda hisobga olishdan iborat.

Individual yondashuv o‘quvchilarning aqliy qobiliyatlari, bilishga bo‘lgan qiziqish hamda iste’dodini namoyon etishda muhim ahamiyatga ega.

Bola harakatlari ongli, ijtimoiy munosabatlar jarayonidagi ishtiroki natijasida shakllana boradi.

Shaxs – muayyan jamiyatning a’zosi bo‘lib, u psixologik jihatdan taraqqiy etgan, o‘z xususiyatlari va xatti-harakatlari bilan boshqalardan ajralib turadi.

Kadrlar tayyorlash milliy modelida ham shaxs – kadrlar tayyorlash tizimining bosh subyekti va obyekti, ta’lim sohasidagi xizmatlarining iste’molchisi va ularni amalga oshiruvchi sifatida ta’riflanadi.

Kadrlar tayyorlash sohasidagi davlat siyosati insonni intelektual va ma’naviy-axlohiy jihatdan tarbiyalash, uning har tomonlama rivojlangan shaxs sifatida namoyon bo‘lishiga erishishni nazarda tutadi. Mazkur ijtimoiy talabning amalga oshirilishi har bir fuharoning bilim olish, ijodiy qobiliyatini namoyon etish, intellektual jihatdan rivojlanishi hamda muayyan kasb yo‘nalishi bo‘yicha mehnat qilish huquqni kafolatlaydi.

Odamning ijtimoiy mavjudot sifatida shaxsga aylanishi uchun ijtimoiy muhit sharoitlari va tarbiya kerak bo‘ladi. Ana shular ta’sirida odam inson sifatida rivojlanib boradi va shaxsga aylanadi.

*Rivojlanishning o‘zi nima?*

**Rivojlanish** oddiyda murakkabga, quyidan yuqoriga, eski sifatlardan yangi holatlarga o‘tish, yangilanish, yangining paydo bo‘lishi, eskining yo‘qolib borishi, miqdor o‘zgarishining sifat o‘zgarishiga o‘tishini ta’minlovchi murakkab harakat jarayoni sanaladi. Rivojlanishining manbai qarama-qarashliklarni o‘rtasidagi kurashdan iboratdir.

Bola shaxsining rivojlanishi inson ijtimoiy mavjudotdir, degan falsafiy ta’limotga asoslanadi. Ayni vaqtda inson tirik, biologik mavjudot hamdir. Demak, uning rivojlanishida tabiat rivojlanishining qonuniyatlari ham muhim ahamiyatga ega. Shuningdek, shaxs bir butun mavjudot sifatida baholanar ekan, uning rivojlanishiga biologik va ijtimoiy qonuniyatlar birgalikda ta’sir etadi, ularni bir-biridan ajratib bo‘lmaydi.

Chunki shaxsning faoliyati, hayot tarziga yoshi, bilimi, turmush tajribasi bilan birga boshqa fojiali holatlar, kasalliklar ham ta’sir etadi.

Inson butun umri davomida o‘zgarib boradi. U ham ijtimoiy, ham psixik jihatdan kamolga yetadi, bunda bolaga berilayotgan tarbiya maqsadga muvofiq bo‘lsa, u jamiyat a’zosi sifatida kamol topib, murakkab ijtimoiy munosabatlar tizimida o‘ziga munosib o‘rin egallaydi. Chunki rivojlanish tarbiya ta’siri ostida boradi.

Shaxsning fazilatlarini to‘g‘ri ko‘rish va bexato baholash uchun uni turli munosabatlar jarayonida kuzatish lozim.

Demak, shaxsni rivojlantirish vazifasini to‘g‘ri hal etish uchun uning xulqiga ta’sir etuvchi omillar hamda shaxs xususiyatlarini yaxshi bilish zarur.

Tarbiya bolaga samarali ta’sir etishi uchun o‘sish va rivojlanish qonuniyatlarini bilish va hisobga olish maqsadga muvofiq. Shunday qilib, rivojlanish va tarbiya o‘rtasida ikki tomonlama aloqa mavjud.

**Shaxs tarbiyasiga ta'sir etuvchi omillar.** Fanda odamning shaxs sifatida rivojlanishiga biologik va ijtimoiy omillarning ta'siri o'rtasidagi munosabatni belgilashga oid munozara ko'pdan buyon davom etmoqda.

Insonning shaxs sifatida rivojlanishiga ijtimoiy voqealar, tabiiy omillar yoki tarbiya ta'sir etadimi? Bu uch omilning o'zaro munosabati qanday?

Fanda biologik yo'nalish deb nomlangan nuqtai nazar yetakchi o'rinlardan birini egallab, uning vakillari Aristotel, Platonlar tabiiy-biologik omillarni yuqori qo'yadi. Ular tug'ma imkoniyatlar, taqdir, tole har kimning hayotdagi o'rnini belgilab bergan, deydilar.

XVI asr falsafasida vujudga kelgan preformizm oqimi namoyandalari esa shaxs rivojlanishidagi naslning roliga katta baho berib, ijtimoiy muhit va tarbiyaning rolini inkor etadi.

Xorij psixologiyasidagi yana bir ohim – bixeviorizm XX asr boshlarida yuzaga kelgan bo'lib, uning namoyandalari, ong va aqliy qobiliyat nasldan-naslga o'tib, insonga u tabiatan berilgan, deyiladi. Mazkur ta'limot vakili amerikalik olim E.Torndaykdir.

Progmatizm oqimi va uning vakillari D.Dyui, A.Kombe ham shaxs rivojlanishini biologik nuqtai nazarda asoslaydilar. Ular rivojlanishni fahat miqdoriy o'zgarishdan iborat, deb qaraydilar. Naslning rolini absolyutlashtirib, uni inson taqdirida hal qiluvchi ahamiyatga ega deb biladilar.

Demak, bir guruh xorijiy olimlar rivojlanishni biologik (nasliy) omilga bog'laydilar.

Biologik oqimga qarshi falsafiy oqim vakillari rivojlanishi ijtimoiy omil omil bilan belgilaydilar. Bu oqim vakillari bola shaxsining jismoniy, psixik rivojlanishi u yashaydigan muhitga bog'liq deb ko'rsatadilar.

Muhit deganda odam yashaydigan sharoitdagi barcha tashqi ta'sir tushuniladi. Shu nuqtai nazardan tarbiya tufayli bolani o'zi yashaydigan ijtimoiy sharoitga moslashtirish mumkin, degan xulosa kelib chiqadi.

Ular ijtiomiy muhitning rolini hal qiluvchi omil deb hisoblaydilar. Demak, odam bolasining shaxs sifatida rivojlanib, taraqqiy etib borishi, uning shaxs bo'lib kamolga yetishida nasl (biologik omil), ijtimoiy muhit (bola yashaydigan sharoit), shuningdek, maqsadga muvofiq amalga oshadigan tarbiya ham birdek ahamiyatga ega. Bu omillarning ta'sirini aniqlashda ilg'or pedagogik olimlar, psixolog va faylasuflar ta'limotiga suyaniladi.

Falsafada shaxsni jamiyat bilan bog'liq bo'lgan ijtimoiy hayotdagi murakkab voqelik deb qaraladi. Ular individning ma'naviy boyligi uning munosabatlariga bog'liq, deb hisoblaydilar.

Haqiqatdan ham, shaxs mehnat faoliyati zaminida rivojlanadi, kamolga yetadi. Inson sharoitni, sharoit esa odamni yaratadi. Bu esa o'z navbatida inson faolligini namoyon etadi. Zero, shaxs ma'lum ijtimoiy tuzum mahsulidir. Jamiyat shaxs kamolotining muayyan imkoniyatlarini ro'yobga chiqarishi yoki yo'q qilishi mumkin.

Faylasuflar shaxsni tabiatning bir bo'lagi deb baholaydilar. Bu insondagi layoqat kurtaklari bo'lib, uning rivojlanishi uchun tarbiya kerak, degan g'oyani ifodalaydi.

Jamiyat taraqqiyoti shaxs rivojlanishi uchun keng imkoniyatlar yaratadi. Demak, shaxs bilan jamiyat oʻrtasida ham uzviy aloqa mavjud.

Shunday qilib, odam shaxsining jamiyatdagi rivojlanishi tabiat, muhit, inson oʻrtasidagi murakkab aloqa ta’siri ostida roʻy beradi, inson ularga faol ta’sir etadi va shu yoʻl bilan hayoti va oʻz tabiatini oʻzgartiradi.

Shaxsga ijtimoiy muhitning ta’siri ham muhim. Bu tarbiya tizimi orqali amalga oshiriladi.

Birinchidan, tarbiya ta’sirida muhit bera olmagan bilim, ma’lumot egallanadi, mehnat va texnik faoliyat bilan bogʻliq koʻnikma va malakalar hosil boʻladi.

Ikkinchidan, tarbiya tufayli tugʻma kamchiliklar ham oʻzgartirilib, shaxs kamolga yetadi.

Uchinchidan, tarbiya yordamida muhitning salbiy ta’sirini ham yoʻqotish mumkin.

Toʻrtinchidan, tarbiya kelajakka qaratilgan maqsadni belgilaydi.

Demak, tarbiya bilan rivojlanish bir-biriga ta’sir etadi, bu tarbiya doimiy va uzluksizdir.

Shunday qilib, bola shaxsining rivojlanishida tarbiya ham yetakchi oʻringa ega boʻlib, tarbiya tufayli nasl-nasabi, oila muhiti, ijtimoiy muhit ta’sirida har tomonlama rivojlanishga qodir, degan xulosani chiqarish mumkin.

**2.Shaxs rivojlanishida faoliyatnig oʻrni.** Shaxs rivojlanishida irsiyat, muhit, tarbiya bilan bir qatorda inson faoliyati ham muhim ahamiyat kasb etadi. Bu degani inson qanchalik mehnat qilsa, uning rivojlanishi shunchalik yuqori boʻladi.

*Faoliyat oʻzi nima?* **Faoliyat** inson tomonidan tabiiy va ijtimoiy hayotni maqsadga muvofiq oʻzgartirishga yoʻnaltirilgan ijtimoiy-tarixiy turmushning oʻziga xos shaklidir. Insonning qobiliyati va yoshi u tomonidan tashkil etilayotgan faoliyat mohiyatiga koʻra belgilanadi.

Faoliyat jarayonida inson shaxsi, har tomonlama va bir butun, yaxlit holda rivojlanadi. Lekin faoliyatni maqsadga muvofiq amalga oshirishi uchun uni toʻgʻri tashkil etish lozim. Lekin koʻp holatlarda shaxsning rivojlanishi uchun imkoniyatlar yaratilmaydi, tarbiyalanuvchilarning ijtimoiy mehnat, bilish faoliyatlari cheklangan boʻladi.

Oʻsmir va oʻspirinlar faoliyatining asosiy turlariga oʻyin, oʻqish va mehnat kiradi. Ular yoʻnalishiga koʻra bilishga doir, ijtimoiy, sport, badiiy, texnik, hunarmandchilik hamda shaxsiy qiziqishga koʻra tanlangan sohalardan iborat. Faoliyatning asosiy turi – muloqotdir.

**Faoliyat faol va passiv** boʻlishi mumkin. Oʻsmir faoliyati muhit va tarbiya ta’sirida faollashishi yoki susayishi mumkin. Inson shaxsining rivojlanishida uning butun vujudi bilan sevib, oʻz imkoniyatlarini namoyon etib, mehnat qilish, oʻzini shaxs sifatida koʻrsata olishi unda oʻz faoliyatidan qoniqish hosil qiladi. Uning ijtimoiy mehnatdagi ishtirokida faollik koʻzga tashlanadi.

Ta’lim jarayonida faollik oʻquvchiga bilimlarni chuqur va mustahkam egallashga, oʻz qobiliyatini namoyon etishga yoʻllaydi. Bilishga boʻlgan faollik oʻquvchining intellektual rivojlanishini ta’minlaydi.

Faollik ko‘rsatishning asosini esa hamma vaqt ehtiyoj tashkil etadi. Ehtiyojlarning xilma-xilligi faoliyatining ham turlarini kengaytiradi. Shunga ko‘ra, o‘quvchining turli yosh davrlarida ularning faoliyati turlicha bo‘ladi. Ta’lim muassasasida hamma vaqt bir xil talab shaxs rivojlanishida ijobiy natija beravermaydi. Turli yosh davrlarida faoliyatning turlari va mohiyati o‘zgarib turishi kerak.

Insonning ijtimoiy faolligi, qobiliyati barcha muvaffaqiyatlarining garovidir. Chunki har bir inson o‘z mehnati, g‘ayrati, intilishi bilangina faollashadi. O‘qituvchi qanchalik yaxshi o‘qitmasin yoki tarbiya bermasin, tarbiyalanuvchining o‘zi harakat qilmasa, rivojlanish muvaffaqiyatli kechmaydi. Zero, barcha ma’naviy-axlohiy kamchiliklarning asosiy sababi ham insonning o‘z faoliyatini to‘g‘ri yo‘lga qo‘ymaganligidadir.

Shuning uchun ham inson faoliyati uning rivojlanishi natijasi hamdir. Demak, shaxs faolligi asosida ijtimoiy faollik, tashabbuskorlik, ijodkorlik xislatlarini shakllantirish – uning shaxslik imkoniyatlarini namoyon etishi orqali faoliyatini rivojlantirish muhim sanaladi.

1. **3.Rivojlanishning yosh va o‘ziga xos xususiyatlari.** Ma’lum bir yosh davriga xos bo‘lgan anatomik, fiziologik (jismoniy) va psixologik xususiyatlari yosh xususiyatlari deb ataladi. Ana shu yosh xususiyatlarni hisobga olgan holda ta’lim va tarbiya ishi tashkil etiladi. Shunda bola rivojlanishiga tarbiya ta’siri kuchli bo‘ladi.

2. Bolalarning tarbiyasiga to‘g‘ri yondashish, uni muvaffaqiyatli o‘qitish uchun bola rivojlanishidagi turli yoshdagi davrlariga xos xususiyatlarni bilish va uni hisobga olish muhimdir. Chunki bola orginizmining o‘sishi ham, rivojlanishi ham, psixik taraqqiy etishi ham turli yosh davrlarida turlicha bo‘ladi. Abu Ali Ibn Sino, Yan Amos Komenskiy, K.D.Ushinskiy, Abdulla Avloniylar ham bolani tarbiyalash zarurligini uqtirib o‘tganlar.

3. Bolaning o‘ziga xos xususiyatini hisobga olish juda murakkab. Chunki bir xil yoshdagi bolalar ham psixik jihatdan turlicha bo‘lishi mumkin.

4. Masalan, ko‘rish va eshitish qobiliyati, faolligi, tez anglash, sust fikr yuritishi, hovliqma yoki vazminligi, sergap yoki kamgapligi, serg‘ayrat yoki g‘ayratsizligi, yalqov yoki tirishqoqligi, pala-partish va chala ishlaydigan, yig‘inchoqligi yoki ishga tez kirishib ketishi, qobiliyati kabilar nerv faoliyati tizimining ta’siri bo‘lib, o‘qituvchi yoki tarbiyachi ularni bilishi zarur.

5. Bolaning individual – o‘ziga xos xususiyatini bilish uchun temperamentning umumiy tiplari va bolaning o‘ziga xos xususiyatini o‘rganish metodikasini bilish muhim.

6. Shuningdek, turli yosh davrlarining o‘ziga xos rivojlanish qonuniyatlari ham mavjud. Masalan, 5-sinf o‘quvchilari bilan 10-sinf o‘quvchisini tenglashtirib bo‘lmaydi. Shuning uchun bolaning jismoniy va psixik kamoloti quyidagi davrlarga bo‘linadi:

7. Go‘daklik davri – chaqaloqlik (1 oy) davri tugagandan to bir yoshgacha bo‘lgan davr.

8. Bog‘chagacha bo‘lgan yosh davri – 1 yoshdan 3 yoshgacha.

9. Maktabgacha ta’lim yoshi – 3 yoshdan 7 yoshgacha.

10. Kichik maktab yoshidagi o‘quvchilar –7-11-12 yoshgacha.
11. O‘rta maktab yoshidagi o‘quvchilar (o‘smirlar) 14-15 yosh.
12. Katta yoshdagi maktab o‘quvchilari (o‘spirinlar) – 16-18 yosh.

**Kichik maktab yoshida** o‘yin faoliyatining o‘rnini endi o‘qish faoliyati egallaydi. Bu juda qiyin o‘tish davri bo‘lib, bolaning bo‘yi, og‘irligi jihatdan uning tashqi ko‘rinishi kam farq qiladi. Suyaklari qotmagani tufayli tez shikastlanadi. Muskullari tez o‘sishi tufayli serharakat bo‘ladi. Bosh miyasi tez rivojlanadi.

Jismoniy o‘sishiga xos bu xususiyatlar tarbiyachidan ehtiyotkorlikni talab etadi. Bu yoshda bola bilim olish va o‘rganishga qiziquvchan bo‘ladi.

Bolalar qiziqishini qanoatlantiruvchi qiziqarli uchrashuv, sayr va tomosha va ekskursiyalarni tashkil etish zarur. Mazkur yosh davri o‘quvchilariga emotsionallik xos, ularning fikrlashi obrazli bo‘ladi, his-tuyg‘ulari mazmuni o‘zgaradi. Ular odamlar bilan aloqa qilishga qiziqadilar.

**O‘rta maktab yoshi** (o‘smirlik 12-15 yosh). O‘smirlikning murakkabligi anotomik-fiziologik va psixologik xususiyatdagi kuchli o‘zgarishlar bilan bog‘liqdir. Bolaning o‘sishi tezlashadi. Bu davrni o‘tish davri ham deyiladi. Bu davrda jinsiy yetilish davri boshlanadi. Bu bolaning fe’l-atvoriga ta’sir etadi. O‘smir hayotida mehnat, o‘yin, sport va jamoat ishlari katta rol o‘ynaydi. Ba’zilarining o‘zlashtirishi pasayadi, intizomi bo‘shashadi.

Hozirgi davr o‘smirlarining ruhiyatida quyidagi holatlar ko‘zga tashlanadi:

1. Intellektual rivojlanish – tafakkur qobiliyati, aqliy faoliyatni yuqori saviyada tashkil etishni talab etadi, bilishga qiziqishi ortadi. Bu davrda to‘garaklar, studiya, seksiya, turli tadbirlar o‘tkazish katta ahamiyatga ega. Ularning kitob o‘qishga qiziqishi ortadi.

2. O‘z-o‘zini anglash, baholash, tarbiyalash shakllanadi. U o‘zini boshqalar bilan solishtira boshlaydi.

Ammo yuqoridagilar bilan bir qatorda o‘smir xarakterida murakkab qarama-qarshiliklar ham mavjud bo‘ladi. Bu o‘smir faoliyati, xulqida yangi xislatlar – yosh xususiyatning yangidan boshlanishi sanaladi.

Lekin o‘smirlarnig hammasida ham bilishga qiziqish darajasi yuqori emas. 38 % o‘smir hech qaysi o‘quv fanlarini o‘qishga qiziqmaydi. Boshqalarida 2-3 o‘quv fani yoki bittasiga qiziqadi. Kichik yoshdagi o‘smirlar qiziqishi o‘qituviga bog‘liq. Lekin ularning qiziqishlari, shuningdek, kitob o‘qishlari ham barqaror emas.

Turli to‘garaklarga 21 % o‘smir qatnashadi, qolganlari sport yoki musiqa bilan shug‘ullanadi. 40 % o‘quvchida sinfdan tashqari ishlarda qatnashishda ham barqarorlik yo‘h.

Eng muhim qiziqish – teleeshittirishlarga qaratilgan. TVni har kuni 88 % o‘smir tomosha qiladi.

Ular oddiy kunni o‘z ixtiyorlari bilan qanday o‘tkazadilar, degan savolga javob topish uchun o‘tkazilgan tadqiqot natijalari quyidagilarni qayd etdi: 85 % o‘smir vaqtini o‘z holicha o‘tkazadi, 70 %i kino yoki televizor ko‘radi, 50 %i

sport bilan shug‘ullanadi, 45 %i uxlab yoki yotib dam oladi. Shuningdek, yomon baho olmaslik uchun maktabga borganlar o‘smirlarning soni 15 %ni tashkil etadi.

O‘smirlarda biror narsaga erishishga nisbatan talab rivojlanadi. Ular tomonidan ijtimoiy talablarning bajarilishi asab tizimining rivojlanishiga ta’sir etadi. Shuning uchun maktab hayoti “qiyin” vazifalarga to‘liq bo‘ladi.

Bu yoshda o‘smirlar kattalar oldida o‘zining erkinligini namoyish etishga harakat qiladi. O‘z-o‘zini tarbiyalashga bo‘lgan talab o‘sadi. “Dangasa”, “qo‘pol”, “bee’tibor”, “qobiliyatsiz” degan kattalarning baholarini ular og‘rinib qabul qiladilar.

O‘smir yoshida o‘g‘il va qiz bolalar o‘rtasida farq kuchayadi. VII sinfdan intellektual malakalar pasayadi. Shuning uchun bu davrda bolalar rivojlanishiga katta e’tibor berish lozim.

O‘z-o‘zini tarbiyalashda o‘g‘il bolalar kuchli, erkin, e’tiborli, jasur; qizlar esa – o‘ta ko‘nikuvchan, kamtar, jiddiy bo‘ladi.

Shuning uchun o‘smirga o‘z vaqtini rejalashtirishda yordam berish zarur. 13-14 yoshgacha o‘smirda burch hissi, mas’uliyatni his etish, vazminlik paydo bo‘la boshlaydi. Muhimi, o‘smir shaxsini hurmat hilish, kamsitmaslik, katta bo‘lib qolganligini tan olish zarur.

**Katta maktab yoshi** – kollej, litsey o‘quvchilari (o‘spirinlik davri 15-18 yosh). Bu davr o‘spirinlarning ilk balog‘atga yetgan davridir. Mazkur davrda jinsiy yetilish tugaydi. Ularda mustaqillik sezila boshlaydi. O‘spirin yoshlar hayotga kelajak nuqtai nazaridan qaray boshlaydilar. Madaniy darajasini orttirishga intilish kuchaya boradi. his-tuyg‘ularida ham o‘zgarish yuz beradi. O‘z-o‘zlarini tarbiyalashga kirishadilar. Ideal tanlash va unga ergashish kuchayadi. Bu davrda ular o‘rtasida munozaralar o‘tkazish yaxshi natija beradi. O‘spirinlar o‘z guruhiga intiladi. Shuning uchun ham o‘spirinning barcha intilishlari ma’lum maqsadga yo‘naltirilgan bo‘lishi zarur. Ularda o‘quv fanlarini tanlashga nisbatan ehtiyoj kuchaya boradi.

**O‘**spirinlik bu ahliy faoliyatning ham rivojlanish davri sanaladi. Ular o‘z fikrlarini mustahil ifodalashga harakat qilib, shaxslik xislatlarini namoyish eta boshlaydilar. Shunda o‘qituvchilar va katta yoshlilar ularning hali g‘o‘r fikrlari va dunyoqarashlarini to‘g‘ri yo‘naltirishlari muhim. Zero, bu davrda o‘z-o‘zini anglash, ma’naviy-axloqiy, ijtimoiy xislatlari tez shakllanadi.

Bunga uning faoliyati, jamoada va jamoat joylarida o‘zini tutishi, odamlar bilan tez muloqotga kirishishi ham turtki bo‘ladi. O‘zini kattalardek his etish, o‘ziga xosligini namoyon etish, boshqalarning diqqatini o‘ziga qaratishga harakat qiladi. Axloqiy muammolarni o‘z qarashlari nuqtai nazaridan hal eta boshlaydi. Hayot mohiyati, baxt, burch, shaxs erkinligini o‘z qiziqishlari bilan o‘lchaydilar. Shu bois ularga katta yoshlilarning beg‘araz, to‘g‘ri yo‘nalish berishlari o‘ta muhim.

Mazkur davrda yoshlar xulqi ham tarkib topa boshlaydi. Bunda shaxsning jamoadagi mavqei, jamoa shaxslari bilan muomala-muloqoti muhimdir.

Albatta, bu borada ta’lim muassasasida faoliyat ko‘rsatayotgan yoshlar ijtimoiy harakati ta’siri katta ahamiyatga ega. Chunki o‘spirin-yoshlar mustahil

hayot ostonasida bo‘lib, ularning bu hayotga to‘g‘ri qadam qo‘yishi uning jamiyatning faol fuqarosi bo‘lishining muhim shartidir.

**Shaxsning ijtimoyilashuvi**. Shaxs ijtimoiy munosabatlar jarayonida shakllanadi. Chunki ta’lim jarayonida bolalarga jamiyatda birga yashash bilan bog‘liq bo‘lgan holat va hodisalar o‘rgatiladi. Bu jarayonda o‘quvchi jamiyatga «kirishadi» va u bilan o‘zaro munosabatda bo‘ladi. Ular ma’lum ijtimoiy tajriba (bilim, qadriyat, axloqiy qoida, ko‘rsatma) orttiradilar, ya’ni, ijtimoiylashadilar.

Ijtimoiylashuv uzoq davom etadigan murakkab jarayon. Chunki har qanday jamiyat rivojlanish jarayonida ijtimoiy va axloqiy qadriyatlar, ideallr, axloqiy meyorlar va qoidalar tizimini ishlab chiqadi, har bir bola yuqoridagi qoidalarni qabul qilib, o‘rganib mazkur jamiyatda yashash, uning a’zosi bo‘lish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Buning uchun jamiyat u yoki bu shaklda shaxsga maqsadga muvofiq ta’sir etadi. Bu ta’sir ta’lim vositasida amalga oshadi. Ikkinchi tomondan, shaxsning shakllanishiga turli g‘oyalar, ijtimoiy muhit ta’sir ko‘rsatadi.

Odamlar ijtimiy meyorlar va axloqiy qoidalar bilan munosabatga kirishadilar va uni o‘rganadilar.

Ijtimoiylashuv jarayoni ichki qarama-qarshiliklarga ega. Ijtimoiylashgan inson jamiyat talablariga mos kelishi, unga «kirishib» ketishi, jamiyat rivojlanishidagi salbiy jihatlarga, shaxsning individual rivojlanishiga to‘sqinlik qiluvchi hayotiy holatlarga qarshi turishi kerak. Lekin hayotda ba’zan aksi ham bo‘ladi: to‘liq ijtimoiylashgan, jamiyatga kirishib ketadigan, ammo muhitda ba’zi salbiy holatlarga qarshi kurashishda faollik ko‘rsatmaydigan odamlar ham mavjud.

Bu holat ko‘p jihatdan butun jamiyat, tarbiya muassasalari, o‘qituvchilar hamda ota-onalarga ham taalluqli. Tarbiyada qarama-qarshilik insonparvarlik g‘oyasi yordamidagina bartaraf etilishi mumkin.

Zero, O‘zbekiston Respublikasining «Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi»da ham ta’kidlab o‘tilganidek, uzluksiz ta’limni tashkil etish va rivojlantirish tamoyillari ta’limning ijtimoiylashuviga erishish dolzarb masaladir. Ta’lim oluvchilarda estetik boy dunyoqarashni shakllantirish, ularda yuksak ma’naviyat, madaniyat va ijodiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirish kabilar muhim ijtimoiy talablar hisoblanadi.

## Tayanch tushunchalar lug‘ati:

**Shaxs** - konkret kishi, ya’ni, muayyan jamiyatning a’zosi bo‘lib, u psixologik jihatdan taraqqiy etgan, o‘z xususiyatlari va xatti-harakatlari bilan boshqalardan ajralib turadi.

**Individ** (lotincha “individium”) - bo‘linmas, alohida shaxs, yagona ma’nolarini anglatadi.

**Individuallik** - tarbiya jarayonini amalga oshirishda bolaning shaxsiy xususiyatlari va yashash sharoitlarini chuqur bilish hamda hisobga olish.

**Rivojlanish –** shaxsning fiziologik va intellektual oʻsishida namoyon boʻlayotgan miqdor va sifat oʻzgarishlarning mohiyatini ifoda etuvchi murakkab jarayon.

**Faoliyat** - inson tomonidan tabiiy va ijtimoiy hayotni maqsadga muvofiq oʻzgartirishga yoʻnaltirilgan ijtimoiy-tarixiy turmushning oʻziga xos shakli.

**Yosh xususiyatlari** - muayyan bir yosh davriga xos boʻlgan anatomik, fiziologik (jismoniy) va psixologik xususiyatlar.

***Ijtimoiylashuv*** *–ijtimoiy munosabatlar jarayonida faol ishtirok etishi asosida shaxsning hayot va ishlab chiqarish jarayoniga moslashuvi boʻlib, uzoq davom etadigan murakkab jarayon.*

**Test topshiriqlari:**

1. Shaxsning rivojlanishida muhim ahamiyatga ega individual xususiyatlariga berilgan toʻgʻri ta’rifni belgilang:

а) шахс ривожланишидаги умумийлик;

в) шахс ривожланишидаги ўзига хослик;

с) тарбия жараёнини амалга ошириш;

д) ўқувчиларнинг ёш ва педагогик-психологик хусусиятларига асосланиш;

e) barcha javoblar toʻgʻri.

2. Nima uchun V-VII ba’zi oʻquvchilarning oʻzlashtirishi va intizomi susayadi?

a) sinf rahbari va oʻqituvchilar ularga boshlangʻich sinfdaginga qaraganda kam e’tibor beradi;

v) oʻquvchilar oʻqishning yangi talablari va sharoitiga oʻrganmagan yoki tayyor emaslar;

s) boshlangʻich sinf oʻquvchilari rivojlanishida V sinfda oʻqish uchun zarur boʻlgan masalalarga e’tibor berilmagan;

d) mazkur davrda oʻquvchilarning rivojlanishi ularning yosh xususiyatlariga bogʻliq;

ye) barcha javoblar toʻgʻri.

## 4-mavzu: Pedagogik texnologiyalarning predmeti, maqsadi va vazifalari

1.Pedagogik texnologiyalar kadrlar tayyorlash milliy modelini metodik va didaktik ta'minlash omili sifatida.

2.Pedagogik texnologiyalarning predmeti, maqsadi hamda vazifalari.

3.Sharq mutafakkirlari va ma'rifatparvar pedagoglari asarlarida o'ziga xos pedagogik texnologiyalar elementlarining mayjudligi.

4.Pedagogik texnologiyalarning shakllanishi va tadrijiy rivojlanish tarixi.

5. Pedagogik texnologiyalar tushunchasi, uning ta'riflari, ko'rinishlari, darajalari, asosiy yo'nalishlari, manbalari, ta'siri, ayrim asoslari va mezonlari.

6.Pedagogik texnologiyalar bilan ta'lim metodlari orasidagi ayrim farqlar.

7.Pedagogik texnologiyalami qo'llash metodlari va vositalari.

O‘zbekiston Respublikasi ijtimoiy taraqqiyotning demokratik- huquiy, fuqarolik jamiyati qurish yo’lidan dadil bormoqda. Iqtisodiy, madaniy-ma`rifiy, xalq ta`limi sohalarida isloxotlar va yangilanish jarayonlari bosqichma-bosqich, izchillik bilan amalga oshirilmoqda.

Mustaqillik tufayli pedagogika fanining taraqqiyotida ham olamshumul o’zgarishlar yuz berdi. Mamlakatimizning ma`naviy salohiyatini oshirish, ta`lim tizimini tubdan islox qilish, Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi, Ta`lim to’g’risidagi Qonunni tayyorlash va amalga oshirish pedagogika fanining zimmasiga tushdi.

Mustaqil O’zbekiston taraqqiyotida hal qiluvchi muammolar: xalqimizning ming-ming yillik milliy qadriyatlarini, pedagogik merosini o’rganish va ta`lim-tarbiya jarayonini milliylashtirish; jamiyat taraqqiyotida ma`naviyatning ustivorligini ta`minlash va ma`naviy tarbiya nazariyasini, amaliyotini takomillashtirish; yoshlar ongiga milliy mafkura, milliy g’oyani singdirish, vatanparvarlik tarbiyasini yangi mazmun va metodikasini ishlab chiqish; jaxon andozalariga mos ta`lim tizimini yaratish, ilg’or pedagogik tajribalarni ommalashtirish: pedagogik kadrlarni hozirgi davr talabi asosida ta`lim-tarbiya ishiga tayyorlash, pedagogik texnologiya bilan qurollantirish kabilar pedagogika fanining dolzarb vazifasi bo’lib qoldi.

Kadrlar tayyorlash milliy dasturida, ko’p marotaba ilg’or pedagogik texnologiyalarni o’rganib, ularni o’quv muassasalarimizga olib kirish zarurligi ko'p marta takrorlanadi.

Keyingi 10 yillar ichida yaratilgan, pedagogikaga bag’ishlangan adabiyotlarda “Pedagogik texnologiya”, “Yangi pedagogik texnologiya”, “Ilg’or pedagogik texnologiya”, “Progressiv pedagogik texnologiya” kabi tushunchalar ko’p uchrab turgani bilan, ularning o’zbek tilidagi maromiga etgan ta’rifi hali tuzilmagan.

Respublikamizning pedagogik olim va amaliyotchilar ilmiy asoslangan hamda O’zbekistonning ijtimoiy-pedagogik sharoitga moslashgan ta’lim texnologiyalarini yaratish va ularni ta’lim-tarbiya amaliyotida qo’llashga intilmoqdalar.

Birinchidan: ma’lum sabablarga ko’ra jahon hamjamiyati taraqqiyotdan ortda qolib ketgan jamiyatimiz, taraqqiy etgan mamlakatlar qatoridan o’rin olishi uchun, aholi ta’limini jadallashtirish va samaradorligini oshirish maqsadida eng ilg’or pedagogik tadbirlaridan foydalanish zarurligi:

Ikkinchidan: an’anaviy o’qitish tizimi yozma va og’zaki so’zlarga tayanib ish ko’rishi tufayli “Axborotli o’qitish” sifatida tavsiflanib, o’qituvchi faoliyati birgina o’quv jarayonining tashkilotchisi sifatida emas, balki nufuzli bilimlar manbaiga aylanib qolganligi:

Uchinchidan: Fan-texnika taraqqiyotininig o’rta rivojlanganligi natijasida axborotlarning keskin ko’payib borayotganligi va ularni yoshlarga bildirish uchun vaqtning chegaralanganligi:

To’rtinchidan: kishilik jamiyati o’z taraqqiyotining shu kundagi bosqichida nazariy va empirik bilimlarga asoslangan tafakkurdan tobora foydali natijaga ega bo’lgan, aniq yakunga asoslangan texnik tafakkurga o’tib borayotganligi:

Beshinchidan: yoshlarni hayotga mukammal tayyorlash talabi ularga eng ilg’or bilim berish usuli hisoblangan ob’ektiv borliqqa yondoshuv tamoyilidan foydalanishni talab qilishidadir.

Pedagogik texnologiya fani yuqorida sanab o’tilgan 5 ta sababiy shartlarning barcha talablariga javob beradigan ta’limiy mehanizmidir.

Pedagogik texnologiyaning maqsadi – ta'lim jarayonining etarli samaradorligini ta'minlash va talabalar tomonidan o'qitishning ko'zlangan natijalariga erishish kafolatidan iboratdir.

Pedagogik texnologiyaning vazifasi:

Pedagogik texnologiyalarni qo'llash bo'yicha ko'nikmalarni shakllantirish hamda pedagogik texnologiyalarni loyihalash bo'yicha bilimlar va ko'nikmalarni shakllantirish.

Pedagogik texnologiyalarni o'zlashtirish psixologiya, pedagogika, kasbiy ta'lim uslubiyoti va pedagogik mahorat fanlaridan olingan bilimlarga asoslanadi.

Pedagogik texnologiyaning bosh vazifasi ommaviy ta'lim sharoitida oddiy «o'rtacha» pedagoglarga o'qitishning samaradorligiga erishishini ta'minlash hisoblanadi.

Pedagogik texnologiyaning o'rganish sohasi predmeti o'qitish tizimi hisoblanadi.

Oliy ta'lim muassasalarida, o'qitish – o'quv materialining to'la o'zlashtirilish prinsipiga tayanmog'i lozim, ya'ni fanning o'quv dasturiga asoslangan o'quv materiali, guruhning barcha talablari tomonidan to'la o'zlashtirilishi zarur.

«O'quv materialining to'la o'zlashtirilishi» tushunchasi nimani anglatadi? Har qaysi mavzu bo'yicha o'rnatilgan darajadagi bilim olishga erishilishi, o'quv materialini to'la o'zlashtirish prinsipini anglatadi. Chet elda o'tkazilgan ko'p sonli tadqiqotlarga ko'ra «talabalarning to'la o'zlashtrilishi» tushunchasi o'quv materialining guruhdagi har bir talaba tomonidan 80-90% ga o'zlashtirilishi tushuniladi, ya'ni har bir talaba o'quv fanini o'rtacha 85% ga o'zlashtirishi zarur. Bunday natija faqat juda katta tajribali ajoyib professor-o'qituvchilarda esa o'quv materialining bunday o'zlashtirilishini faqat iqtidorli talabalar berishi mumkin.

Bu sharoitda, qanday qilib talabalarning to'la o'zlashtirishiga erishish mumkin? Bunga erishishning uch yo'li bor:

Birinchi yo'l: o'zlashtirish mezonini pasaytirish, hozirgi paytda shundan foydalanayapti, shuning uchun ham hozirgi paytda o'quv materialini, o'quv fanini 55% o'zlashtirgan talaba o'zlashtiradigan talaba deb hisoblanadi.

Oliy ta'limning Davlat ta'lim standarti kadrlarning saviyasi va tayyorgarlik darajasiga qo'yiladigan minamal talablar chegarasini belgilaydi. Agar bu minimal talablar 55% ga o'zlashtirilsa, har bir fan bo'yicha talaba o'zlashtirishining

umumiy integral bahosi qancha bo'ladi degan savol tug'iladi. Tabiiyki bu yo'lning istiqboli yo'qdir.

Ikkinchi yo'l: professor-o'qituvchilar tarkibini faqatgina oliy darajali ajoyib professor va dosentlar asosila tuzish. Ularning har biri o'ziga xos o'qitish usullari va yo'llari tufayli tayyorgarlik darajasi butunlay har xil bo'lgan, talabalarni to'la o'zlashtirishni ta'minlaydilar. Haqiqatda, bir guruhda kirishdagi bali 80 dan 200 gacha bo'lgan talabalar o'qishi mumkin. Bu yo'l – haqiqatdan uzoq, ideallashtirilgan yo'ldir.

Talabalarning hammasi iqtidorli bo'lmaganidek, professor o'qituvchilar tarkibining hammasi ham iqtidorli, oliy darajali bo'la olmaydi.

Uchinchi yo'l: o'quv jarayoniga pedagogik texnologiyalarni joriy etish bo'lib, ular o'qish va o'rgatishning asosiy elementlarini o'rnatib, o'zida oliy darajadagi pedagog olimlarning o'qitishdagi uslub va yo'llarini mujassamlashtirgan bo'ladi.

Ishlab chiqarishda, malakasi uncha yuqori bo'lmagan oddiy ishchi tayyor texnologiya bo'yicha oliy sifatli mahsulot ishlab chiqarganidek, oddiy o'qituvchi, pedagogik texnologiyani qo'llab, ajoyib natijalarga erishadi. Pedagogik texnologiyaning qimmati va ahamiyati aynan shu bilan belgilanadi.

Ommaviy o'qitish sharoitida talabalarning to'la o'zlashtirishga erishishini ta'minlaydigan yagona to'g'ri yo'l – shu yo'ldir. Pedagogik texnologiya, ishlab chiqarish texnologik jarayoniga o'xshab ko'zlangan (rejalashtirilgan) natijalarga erishishni kafolatlaydi.

Pedagogik texnologiyalarning o'zi nima va u an'anaviy ta'limdan nima bilan farq qiladi?

Hozirgi kunda pedagogik adabiyotlar, ta'lim muammolariga oid ma'ruzalar, rasmiy hujjatlarda «Progressiv pedagogik texnologiya», «Zamonaviy ta'lim texnologiyasi» iboralari keng qo'llanilmoqda. Ammo «Pedagogik texnologiya» tushunchasi hali ham bir qolipga tushirilmagan, ensiklopediyalarda izohlanganicha yo'q, mazmunining yagona talqini ham ishlab chiqilmagan va shuning uchun iboraning bir-biridan farqlanuvchi ko'pgina ta'riflari mavjud.

Respublikamizning pedagogik olim va amaliyotchilari ilmiy asoslangan hamda O'zbekistonning ijtimoiy-pedagogik sharoitiga moslashgan ta'lim texnologiyalarini yaratish va ularni ta'lim amaliyotida qo'llashga intilmoqdalar. Bu erda nima uchun bugungi kunda pedagogik texnologiyalarning milliy nazariy asosini yaratish va amaliyotga tadbiq etish zarurati tug'ildi, degan savol paydo bo'lishi mumkin. Jamiyatimizga qanchadan-qancha bilimli kadrlarni va yuqori malakali olimlarni etishtirib kelgan pedagogika klublari mavjudki, ularning eskirib, talabga javob bermay qolgan va mafkuralashtirilgan joylarini o'zgartirib, milliy tus berib, foydalanaversa bo'lmaydimi? Degan mulohazalar ham yo'q emas. O'zbekistonning shu kundagi pedagogik jamoatchiligining aksariyati, aynan mana shu yo'ldan bormoqda. Bu yo'l ilojsizlikdan izlab topilgan bo'lib, qisqa muddat xizmat qilishi mumkin. Mustaqillikni qo'lga kiritgan va buyuk kelajak sari intilayotgan jamiyatga bu yo'l uzoq xizmat qilolmaydi. Chunki, birinchidan, ma'lum sabablarga ko'ra jahon hamjamiyati taraqqiyotidan ortda qolib ketgan jamiyatimizning taraqqiy etgan mamlakatlar qatoridan o'rin olishi uchun, axolii

ta'limini jadallashtirish va samaradorligini oshirish maqsadida eng ilg'or pedagogik tadbirlardan foydalanish zarurligi; ikkinchidan, an'anaviy o'qitish tizimi yozma va og'zaki so'zlarga tayanib ish ko'rishi tufayli «axborotli o'qitish» sifatida tavsiflanib, o'qituvchi faoliyati birgina o'quv jarayonining tashkilotchisi sifatida emas, balki nufuzli bilimlar manbaiga aylanib qolganligi; uchinchidan, fan-texnika taraqqiyotining o'ta rivojlanganligi natijasida axborotlarning keskin ko'payib borayotganligi va ularni yoshlarga bildirish uchun vaqtning chegaralanganligi; to'rtinchidan, kishilik jamiyati o'z taraqqiyotining shu kundagi bosqichida nazariy va empirik bilimlarga asoslangan tafakkurdan tobora foydali natijaga ega bo'lgan, aniq yakunga asoslangan texnik tafakkurga o'tib borayotganligi; beshinchidan, yoshlarni mukammal tayyorlash talabi ularga eng ilg'or bilim berish usuli hisoblangan ob'ektiv borliqqa tizimli yondashuv tamoyilidan foydalanishni talab qilishdadir.

Ta'lim texnologiyasi sanab o'tilgan beshta sababiy shartlarning barcha talablariga javob beradigan ta'limiy tadbirdir.

Bu zaruriyat shu vaqtgacha tahsil oluvchilar yopiq tafakkur paradigma (namuna, misol)lari asosida o'qitilganligi, ularda o'zgacha nuqtai nazarni tan olmaslik, faqat o'z fikrini to'g'ri deb bilish shakllanganligidandir. Bu hol har qanday taraqqiyotga g'ov bo'lib, shu paradigmada yurgan kishilarni inqiroz sari etaklaydi.

Jamiyatimiz jadallik bilan taraqqiy etib, iqtisodiy va siyosiy mavqei kundan-kunga ortib bormoqda. Ammo ijtimoiy sohada va ayniqsa, ta'lim-tarbiyada depsinish va umumiy taraqqiyotdan orqada qolish sezilmoqda. Bunday noxush vaziyatdan chiqib ketish yo'llaridan biri ta'lim-tarbiya jarayonini qabul qilingan davlat standartlari asosida texnologiyalashtirishdir.

Ta'lim jarayoniga mukamallik, aniqlik, yo'lga solinganlik, tartiblilik, ravonlik, vazminlik alomatlarini berish orqali samaradorligini oshiruvchi tadqiqot olib borilgan.

Didaktikaning asoschisi Yan Amos Komenskiy XVII asrdayoq ta'limning «Vaqt, fanlar va uslublarni mohirona taqsimlashni boshqa narsani talab qilmaydigan umumiy tartibdagi o'qitishning yagona mukammal uslubi topilsa, hamma narsa toshlari to'g'ri muvozanatlangan soatdek, faqat ana shunday mahorat yaratilgan asbobda erishish mumkin bo'lgan bexatolik bilan ilgarilaydi».

Zamonaviy pedagogikada ham, ta'limni shunday modellari, unga nisbatan shunday yondashuvlar ishlanmoqdaki, ular ta'limga, ishlab chiqarish – texnologik jarayon, ma'lum sharoitlarda va belgilangan vaqt ichida ko'zlangan ta'lim maqsadlariga erishishni kafolatlaydigan xarakterni berish imkoniyatini yaratadi.

T.S. Nazarovaning qayd etishicha, pedagogik texnologiya 70-yilarning boshlarida AQShda yuzaga kelgan bo'lib, uning asoschisi taniqli olimlar B.Blum, D.Kratvol, N.Gronlund, J. Kerrol, J. Blok, L. Anderson va boshqalardir.

Pedagogik texnologiya oqimi deyarli barcha rivojlangan mamlakatlarga tez tarqaldi, YuNYESKO kabi nufuzli tashkilot tomonidan tan olindi va qo'llab-quvvatlandi va hozirgi kunda ko'pgina mamlakatlarda muvaffaqiyatli o'zlashtirilmoqda, qo'llanilmoqda. Ko'pgina mamlakatlar pedagogik texnologiyadan foydalanib, o'quvchilar o'zlashtirishini oshirishda sezilarli

muvaffaqiyatlarga erishdilar. Masalan, Janubi Koreyada pedagogik texnologiya bo'yicha tajriba-sinov tarzida o'qitayotgan 50 ming boladan 75 foizida an'anaviy o'qitishda faqat eng yaxshi o'quvchilar erishadigan natijalar qo'lga kiritilgan. Ta'limni texnologiyalashtirishning asosini, ta'lim jarayonini, uning samaradorligini oshirish va ta'lim oluvchilarni, berilgan sharoitlarda va ajratilgan vaqt ichida vaqt ichida loyihalashtirilayotgan o'quv natijalariga erishishlarini kafolatlash maqsadida to'liq boshqarish g'oyasi tashkil etadi. Bunday yondashishning mohiyati, ta'lim jarayonini tizimlashtirishdan – uni aniq rasmiylashtirilgan va detallari bo'yicha aniq elemntlarga bo'lib tashlash yordamida maksimal shakllantirishdan iborat.

Ta'lim texnologiyasining predmeti – ta'lim tizimini konseptual asoslariga dalil keltirishdan, maqsadlarni qo'yishdan, natijalarni shakllantirishdan, o'quv materialini tanlash va strukturalashtirishdan, ta'lim modelini tanlashdan, to ularni amalga oshirishgacha, ularning optimallik va samaradorlik darajasini baholashgacha loyihalashtirishdan tarkib topgan.

Bizda ta'lim nazariyasi va amaliyotida o'quv jarayoniga texnologik xarakterni kiritish 50-yillardan boshlangan. Ular an'naviy o'qitish uchun texnik vositalar majmuasini yaratishda o'z ifodasini topgan. Hozirgi vaqtda pedagogik texnologiyaga oddiygina «o'qitishning texnik vositalaridan yoki kompyuterlardan foydalanish sohasidagi tadqiqotlar sifatida qaralmaydi: bu o'qitish samaradorligini oshiruvchi omillarni tahlil qilish va qo'llash yo'li bilan qo'llanilayotgan usullarni baholash vositasida ta'lim jarayonining tamoyillarini aniqlash va optimallashtirish usullarini ishlab chiqish maqsadidagi tadqiqotlardir». (Mejdunarodny ejegodnik po texnologii obrazovaniya i obucheniya, 1978-79. – London: Nyu-York, 1978. s. 258 (ingliz tilida)).

V.P. Bespalko fikri bo'yicha, barcha ta'lim va tarbiya ishlarini pedagogik texnologiya yo'liga o'tkazish – o'quv amaliyotini, pedagogik jarayonni qurish va amalga oshirishda ixtiyoriylikdan, uning har bir elementini va bosqichini tartibli asoslashga, ob'ektiv tashxis qilinadigan yakuniy natijaga ietilishiga keskin ravishda burilishini ifodalaydi.

Ma'rifatli va rivodlangan mamlakatlarda muvaffaqiyat bilan qo'llanib kelinayotgan ta'lim texnologiyalarini o'rganb, xalqimizning milliy pedagogika an'analaridan hamda ta'lim sohasining shu kundagi holatidan kelib chiqqan holda O'zbekistonning milliy ta'lim texnologiyasini yaratish lozim.

O’zbekistonda kadrlar tayyorlashning milliy dasturi: ta`lim-tarbiyani tubdan isloh qilish ilg’or pedagogik texnologiyalarni joriy etish; ta`lim berishning ilg’or pedagogik texnologiyalarni, zamonaviy o’quv-uslubiy majmualari yaratish va o’quv- tarbiya jarayonini didaktik jihatdan ta`minlashga bog’likligi ko’rsatiladi. Ma`lumki, Milliy dastur bosqichma-bosqich amalga oshiriladi. Birinchi bosqich (1997-2001yillar) mavjud kadrlar tayyorlash tizimini isloh qilish va rivojlantirish uchun xuquqiy, ilmiy-uslubiy, moliyaviy moddiy shart-sharoitlar yaratish.

«….jumladan pedagog va ilmiy –pedagogik kadrlar tayyorlash xamda ularni malakasini oshirishni zamon talablariga javob beradigan darajada tashkil etish;

Ikkinchi bosqich: (2001-2005 yillar) milliy dasturini to'la ro'yobga chiqarish, mehnat bozorini rivojlantirish va real ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarini hisobga olgan holda unga aniqlik kiritish, «Ta`lim muassasalarini moddiy texnika va axborot ba`zasini mustahkamlash davom ettiriladi, o'quv-tarbiya jarayoni yuqori sifatli o'quv adabiyotlar va ilg'or pedagogik texnologiya bilan ta`minlanadi».

Uchinchi bosqich: (2005 va undan keyingi yillar) to'plangan tajribalar tahlil etiladi. Ular umumlashtirish asosida mamlakatini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlan-tirish istiqbollariga muvofiq kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirish va yanada rivojlantirish» ko'zda tutiladi.

Ta`lim muassasalarini resurs, kadrlar va axborot bazalari yanada mustahkam-lanadi, o'quv tarbiya jarayoni yangi o'quv-uslubiy majmualar, ilg'or pedagogik texnologiya-lar bilan to'liq ta`minlanadi. Bunda biz pedagogik texnologiya Milliy dasturni amalga oshirishning muhim vositasi ekanini ko'rsatamiz.

Pedagogik texnologiya asrimizning 60-yillarida Amerika Qo'shma Shtatlarida, 70-80 yillarda boshka rivojlangan mamlakatlarda keng qo'llanila boshlandi.

YUNESKONING 1996 yildagi xalqaro konferensiyasida Mamlakatning ma`naviy iqtisodiy salohiyatini oshirishda va ta`lim-tarbiyani intensivlashtir-ishda pedagogik texnologiya muhim ahamiyatga ega ekanligi ilmiy asoslanadi.

«Pedagogik texnologiya bilimlarni o'rganish yaxlit jarayonida ta`lim shakllarini optimallashtirish, texnikaviy, insoniy imkoniyatlar, ularning o'zaro hamkorligi amalga oshirish metodlar tizimidir», -degan xulosaga kelinadi.

O'zbekistonda Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi mustaqillik sharofati bo'lsa, uni amalga oshirishning asosiy ilmiy metodik omillaridan biri yangi pedagogik texnologiyadir. ***Pedagogik texnologiyaning predmeti***-ta`lim-tarbiya jarayonini optimal loyixalash, modellashtirish tizimi, mexanizmi. Ya`ni pedagogik qonuniyatlarga asoslangan ta`lim-tarbiya tizimini samarali, ommabop mexanizmlar. Pedagogik texnologiya ommabopligi ilmiy asoslanganligi bilan individual mahoratdan farq qiladi. ***Yangi pedagogik texnologiya fanini o'qitish maqsadi*** – bo'lajak mutaxassisga asosan ta`lim –tarbiya jarayonining loyihalash samarali metod va vositalarni tanlashga o'rgatishdan iborat.

***Kursning vazifasi***- bo'lajak o'qituvchilarga pedagogik texnologiya, texnika rivoj-langan mamlakatlar ilg'or pedagogik texnologiyasi, O'zbekistonda kadrlar tayyorlashning dasturini amalga oshirish tajribalari xaqida naziriy bilim berish:

- Pedagogik jarayonni loyihalash;
- Ta`lim-tarbiya maqsadi, mazmuni, optimal metodlarini ko'nikma va malakasini shakllantirish;
- Pedagogik diagnostika qobiliyatini o'stirishdan iborat

Albatta, yangi pedagogik texnologiya ta`lim- tarbiya jarayonning mavjud qonun-lariga, mamlakatimiz rivojlanishining o'ziga xos xususiyatlariga, tarixiy taraqqiyot tajribalariga asoslanadi. Pedagogik texnologiyani yaratish milliylik va

umum-insoniylik tamoyillariga, insonparvarlik va demokratiya prinsiplariga ijodkorlik va tashabbuskorlikka tayanadi.

Pedagogika fani va amaliyotida «pedagogik texnologiya», «ta'lim texnologiyasi», «o'qitish texnologiyasi» kabi atamalardan keng foydalanilmoqda. Shu bilan birga ularni tushunish paytida alohida fikrlar mavjud. Avvalambor, «texnik texnologiya» va «pedagogik texnologiya» tushunchalarining mohiyatini aniqlaylik.

«Texnologiya» - yunoncha ikki so'zdan – «texnos» (techne) – mahorat, san'at va «logos» (logos) – fan, ta'limot so'zlaridan tashkil topgan. Bu ifoda zamonaviy texnologiya jarayonini to'liq tavsiflab berolmaydi.

Texnologiya deganda sub'ekt tomonidan ob'ektga ko'rsatilgan ta'sir natijasida sub'ektda sifat o'zgarishiga olib keluvchi jarayon tushuniladi. Texnologiya har doim zaruriy vositalar va sharoitlardan foydalanib, ob'ektga yo'naltirilgan maqsadli amallarni muayyan ketma-ketlikda bajarishni ko'zda tutadi.

Ushbu tushunchalarni o'quv jarayoniga ko'chiradigan bo'lsak, o'qituvchi (pedagog)ning o'qitish vositalari yordamida o'quvchi (talaba)larga muayyan sharoitlarda ko'rsatgan tizimli ta'siri natijasida ularda jamiyat uchun zarur bo'lgan va oldindan belgilangan ijtimoiy sifatlarni intensiv tarzda shakllantiruvchi ijtimoiy xodisa, deb ta'riflash mumkin.

Texnik texnologiya quyidagilarni bildiradi:

Xom-ashyo, materiallar, yarim fabrikatlar yoki mahsulotlarni olish, ularga ishlov berish yoki qayta ishlash yo'lari va usullarining yig'indisi (texnologiyaning jarayonli – bayonli aspekti);

Yuqorida ko'rsatilgan yo'llar va usullarni ishlab chiquvchi va takomillashtiruvchi fan. Texnologiyani fan sifatidagi vazifasi, moddiy resurslar va vaqtni eng kam sarflashni talab qiladigan samarali va tejamkor ishlab chiqarish jarayonlarini aniqlash hamda amalda qo'llash maqsadida qonuniyatlarni topish hisoblanadi (ilmiy aspekti);

Jarayonning o'zi – qazib olish, topish, ishlov berish, qayta ishlash, tashish, omborga joylash, saqlash hamda ishlab chiqarishni texnik nazorat qilish (texnologiyaning jarayonli – harakat aspekti).

Ishlab chiqarishda «texnologiya» so'zidan kelib chiqadigan quyidagi tushunchalar ishlatiladi:

Texnologik jarayon – ishlab chiqariladigan mahsulotga ishlov berishning yagona jarayonini hosil qiluvchi texnologik operasiyalarning yig'indisi.

Texnologik operasiya – ishchi tomonidan o'zining ish joyida bajariladigan, yakuniga etkazilgan harakat ko'rinishidagi jarayonning bir qismi.

Texnologik xarita – ma'lum bir mahsulotni ishlab chiqarish texnologik operasiyalarning ketma-ketligini bayon qiluvchi texnik hujjat.

Texnologik reja – texnologik operasiyalarni amalga oshirishni belgilovchi tartib bo'lib, ma'lum bir mahsulotni ishlab chiqarishda bajariladigan operasiyalarning vaqti, shartlarini belgilaydi.

Ushbu tushunchalarni o'quv jarayoniga ko'chadigan bo'lsak, o'qituvchi (pedagog)ning o'qitish vositalari yordamida tahsil oluvchilarga muayyan

sharoitlarda ko'rsatgan tizimli ta'siri natijasida ularda jamiyat uchun zarur bo'lgan va oldindan belgilangan ijtimoiy sifatlarni intensiv tarzda shakllantiruvchi ijtimoiy hodisa deb ta'riflash mumkin. Ta'riflar nazariyasi bo'yicha bunday ijtimoiy hodisani pedagogik texnologiya desa bo'ladi (B. Ziyomuhammedov).

Pedagogik texnologiya ijtimoiy zaruriyat bo'lganligidan dastavval AQIIIda 70-yillarda falsafaning bixiviorizm oqimi zaminida yuzaga kelib, boshqa rivojlangan mamlakatlarga tez tarqalib ketdi.

YEr yuzi mamlakatlari ikki qarama-qarshi lagerga bo'linib, sovuq urush avjiga chiqqan davrda sosializm tarafdorlari bu ijtimoiy hodisani mafkura nuqtai nazaridan tan olmay, ko'p yillar davomida uni ko'r-ko'rona inkor qilib kelishdi.

XX asr 90-yillarning boshida sosializm nurab, unga a'zo bo'lgan davlatlar birin-ketin mustaqil bo'lganidan keyin, har jihatdan taraqqiy etgan xorijiy mamlakatlarga, shu jumladan O'zbekiston uchun ham, keng yo'l ochildi.

Mustaqillikka erishgan O'zbekiston olimlari xorijiy mamlakatlar bilan iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy va ilmiy-ma'rifiy aloqalar o'rnata boshladilar. Natijada yurtimizga ilg'or va samarali texnologiyalar kirib kela boshladi. Shular qatori jahondagi progressiv pedagogik texnologiya degan tushunchalar ham kirib, pedagogik jamoatchiligimiz fikrini chulg'ab oldi.

Keyingi yillarda Rossiya bilan O'zbekistonda pedagogik texnologiyani o'rganish yo'lida ancha ishlar qilindi. Pedagogik texnologiyaning hududga mos variantini yaratishga qo'l urgan Mustaqil davlatlar hamdo'stligi (MDH)ning peshqadam pedagog olimlariga tasannolar aytish bilan birgalikda, ular yo'l qo'yayotgan ba'zi kamchiliklarni aytib, ularni tuzatib o'tishni lozim ko'rdik. Chunki bu kamchiliklar pedagogik texnologiyaning mazmun va mohiyatini to'g'ri tushunishga halal bermoqda. Buning uchun MDHda shu yo'nalishda faoliyat ko'rsatayotgan pedagog olimlarning «pedagogik texnologiya» tushunchasiga bergan ta'riflarini hamda ular tuzib chiqqan pedagogik texnologiya loyihalarini tahlil qilib chiqamiz.

Pedagogik texnologiyaning o'quv jarayoniga olib kirish zarurligini MDHga kiruvchi mamlakatlar ichida birinchilar qatorida har tomonlama ilmiy asoslab bergan rossiyalik olim V.P. Bespalkoning fikricha, «PT – bu o'qituvchi mahoratiga bog'liq bo'lmagan holda pedagogik muvafaqqiyatni kafolatlay oladigan o'quvchi shaxsini shakllantirish jarayonining loyihasidir».

Rossiya olimlaridan V.M. Monaxov: «PT – avvaldan rejalashtirilgan natijalarga olib boruvchi va bajarilishi shart bo'lgan tartibli amallar tizimidir», - degan qisqacha ta'rifni bera turib, uning asosiy xususiyatlariga e'tiborni qaratadi.

«PT – o'quv jarayonini texnologiyalashtirib, uning qayta tiklanuvchanligini hamda pedagogik jarayon turg'unligini oshirib, bu jarayon ijrochisining sub'ektiv xususiyatlaridan uni ozod qiladi”, - deydi V.M. Monaxov.

M.V. Klarin fikricha, PT – o'quv jarayoniga texnologik yondashgan holda, oldindan belgilab olingan maqsad ko'rsatgichlaridan kelib chiqib, o'quv jarayonini loyihalashdir.

I.Ya. Larnerning fikriga ko'ra, PT – o'quvchilar harakatlarida aks etgan o'qitish natijalari orqali ishonchli anglab olinadigan aniqlanadigan maqsadni ifodalaydi.

V.P.Bespalkoning o'zbekistonlik shogirtlaridan Nurali Sayidahmedov va Abdurahmon Ochilovlarning fikricha, PT – bu o'qituvchi (tarbiyachi)ning o'qitish (tarbiya) vositalari yordamida o'quvchi (talaba)larga muayyan sharoitda ta'sir ko'rsatishi va bu faoliyat mahsuli sifatida ularda oldindan belgilangan shaxs sifatlarini intensiv shakllantirish jarayonidir.

O'zbekistonlik pedagog olim B.L. Farberman pedagogik texnologiyaga quyidagicha ta'rif beradi: «PT – ta'lim jarayoniga yangicha yondashuv bo'lib, pedagogikada ijtimoiy muhandislik ong ifodasidir. U pedagogik jarayonni texnika imkoniyatlari va insonning texnikaviy tafakkuri asosida standart holga solib, uning optimal loyihasini tuzib chiqish bilan bog'liq ijtimoiy hodisadir».

Bu ta'riflarni uzoq xorijda berilgan ta'riflar bilan solishtirib ko'rish uchun yapon pedagog olimi T. Sakomoto bergan ta'rifni keltiramiz. “PT, - deydi Sakomoto, - bu tizimli fikr yuritish usulini pedagogikaga singdirish, boshqacha qilib aytganda, pedagogika jarayonni muayyan bir tizimga keltirishdir».

Aynan tizmli yondashuv pedagogik texnologiyalarni o'qitishga boshqa yondashuvlardan farqlovchi asosiy belgi hisoblanadi.

Pedagogik adabiyotda pedagogik texnologiyaga berilgan boshqa ta'riflar (V. Gushaeev, V. Slastenin, B. Lixachev, I. Volkov, M. Choshanov, Ch.Yudit va boshqalar) ham keltiriladi, ammo ularning birontasi YuNYESKO ta'rifi drajasiga ko'tarila olmagan.

Birlashgan millatlar tashkilotining nufuzli idoralaridan biri bo'lgan YuNYESKOning ta'rifi bo'yicha, «PT – bu bilim berish va uni egallashda texnika va inson resurslarini o'zaro uzviy bog'lik holda ko'rib, butun ta'lim jarayonini loyihalashda va amalda qo'llashda majmuli yondashuv usulidan foydalanishdir».

Keltirilgan ta'riflarni ilmiy-falsafiy nuqtai nazardan tahlil qiladigan bo'lsak, uzoq xorijda berilgan ta'riflar bilan MDH mamlakatlari olimlarining bergan ta'riflari bir-biriga yaqin kelsa-da, farqi ham anchaligini ko'ramiz. Jumladan, Sakomoto va YuNYESKO ta'riflarida tizimli yondashuv tamoyiliga alohida urg'u berilgan. MDH olimlarining PT ga bergan ta'riflarida majmu yondashuv eslatib o'tilgani bilan, o'quv jarayonining loyihasini tuzishganda uni mutloq unutib, tizimli yondashuv tamoyilining qonun va qoidalariga sira ham amal qilishmaganini ko'ramiz.

Haqiqatda esa, ob'ektiv borliqqa tizimli yondashuv tamoyilini yaxshi bilgan kishiga Sakomoto aytganidek, «PT – o'quv jarayonini muayyan bir majmuga keltirishdir», degan tushuncha kifoya qiladi. Bu tushuncha orqali PT ning boshqa hamma xususiyatlarini, ya'ni maqsadga yo'naltirilganligini, bir necha o'zaro uzviy bog'liq bo'lgan qismlardan tashkil topganligini va boshqalarni anglab olsa bo'ladi. Chunki bu xususiyatlarning hammasi, tizimlar nazariyasiga binoan, tizim deb nom olgan narsa va hodisalarning ajralmas sifatlaridir.

Undan tashqari, Rossiya va O'zbekiston olimlari «ta'rif» deb aytganlarining hammasi ham «ta'rif» maqomiga ega bo'lolmaydi. Ta'rif tuzishning o'z qonun-qoidalari, ya'ni ta'rif tuzish nazariyasi bor. Ta'rif ushbu nazariyadan kelib chiqib tuzilsa, u haqiqiy hisoblanadi. Biz tahlil qilgan ta'riflar esa, Sayidahmedov va Ochilovlarnikidan tashqari, pedagogik texnologiyaning u yoki bu xususiyatlarini

ochib beruvchi yo uning tasnifini ifoda etuvchi tushunchalar yoki ularning omuxtalaridir.

Pedagogik texnologiyaning asosiy tushunchasi, so'zsiz, o'quv jarayoniga tizim sifatida yondashishdir. Bunda ta'lim-tarbiyada ishtirok etuvchi barcha narsa va hodisalar o'zaro funksional bog'liqda bo'lib, bir butunlikni, ya'ni pedagogik jarayon majmuini tashkil qiladi. Pedagogik jarayon majmuini muayyan bir vaqt mobaynida bosqichma-bosqich amalga oshirilishi pedagogik texnologiya deyiladi.

O'zbekistonlik pedagog olim L.V. Golish ta'lim texnologiyasini texnik texnologiyadan kelib chiqqan holda uch xil atamasini ifodalab bergan:

Pedagogik texnologiya – o'quv jarayonini texnologiyalashtirishni butunligicha aniqlovchi tizimli kategoriya. Texnologiyalarning barcha tushunchalarini belgilash uchun, sinonim sifatida ta'lim texnologiyasi, o'qitish texnologiyasi kabilarni ishlash mumkin.

O'qitish texnologiyasi – birinchidan, pedagogik texnologiyani jarayonli harakat aspektini anglatadi. Bu ta'lim jarayonini o'zgaruvchan sharoitlarda, ajratilgan vaqt davomida istiqbollashtirilgan natijalariga kafolatli erishishga va konkret ta'lim-tarbiya jarayonlarini amalga oshirishni  instrumental ta'minlovchi usul va vositalar (texnologik operasiyalar)ning tartibli birligini o'zida mujassamlashtirgan ta'lim modulini ishlab chiqish va amalga oshirishning texnologik jarayoni; ikkinchidan, pedagogik texnologiyaning jarayonli – bayonli aspektini ifodalaydi. Bu maqsadni amalga oshirish va istiqbolda belgilangan natijalarga erishish bo'yicha pedagogik hamda o'quv faoliyatini loyihasini bajarishning bayonidir (texnologik xarita).

Ta'lim texnologiyasi – pedagogik texnologiyaning ilmiy aspektini belgilash uchun ishlatiladi. Bu (fan predmeti) «texnika va inson resurslarini hamda ularning o'z oldiga ta'lim shakllarini optimallashtirish vazifasini qo'yuvchi hamkorligini hisobga olgan holda dars beri shva bilimlarni o'zlashtirishning barcha jarayonlarini yaratish, qo'llash va belgilashning tizimli usuli».

O'zbekistonlik pedagog olim B.G'. Ziyomuhammedov pedagogik texnologiyaga quyidagicha ta'rif bergan: «PT – bu jamiyat ehtiyojidan kelib chiqib, oldindan belgilangan kishi ijtimoiy sifatlarini samarali shakllantiruvchi va aniq maqsadga yo'naltirilgan o'quv jarayonini tizim sifatida ko'rib, uni tashkil qiluvchi qismlari bo'lgan o'qituvchi (pedagog)ning o'qitish vositalari yordamida tahsil oluvchilarga ma'lum bir sharoitda muayyan ketma-ketlikda ko'rsatgan ta'sirini nazoratda tutuvchi va ta'lim natijasini baholab beruvchi texnologiyalashgan ta'limiy tadbirdir».

Ijtimoiy texnologiyalar safiga kiruvchi «pedagogik texnologiya» tushunchasining mazmunini aniqlaymiz. Ko'pchilik pedagog olimlarning fikricha, ushbu keng ishlatiladigan so'zlar birikmasi inglizcha “an educa – tional technology”, ya'ni «ta'lim texnologiyasi» ifodasini noaniq tarjima qilishdan kelib chiqqan.

Bizning fikrimizcha, ta'lim texnologiyasiga dastlab asos solgan AQSh olimlari pedagogik texnologiyani emas, balki aynan ta'lim texnologiyasini nazarda tutishgan. Buni tushunib etish uchun pedagog atamasining lug'aviy

ma'nosini esga olaylik, bu atama yunoncha «payne» - bola, «agogeyin» - etaklamoq so'zlaridan tashkil topgan bo'lib, bola etaklamoq ma'nosini anglatadi. Bunday «bola etaklash texnologiyasi» degan atama kelib chiqadi, bu tushuncha ta'lim texnologiyasi maqsadi va mantig'i zid bo'lib, ta'lim texnologiyasini maqsadi va mantig'iga zid bo'lib, ta'lim texnologiyasining haqiqiy ma'nosini bermaydi. Amerikalik olimlar va yapon olimi Sakomoto «bola etaklash» texnologiyasini emas, balki tahsil oluvchilar faolligini ta'minlaydigan, ta'lim jarayonining samaradorligini kafolatlaydigan texnologiyani yaratish g'oyasini ilgari surishgan. Shunga asoslangan holda biz mazkur atamani «ta'lim texnologiyasi» deb atalishi tarafdorimiz.

Pedagogik texnologiya fani bo’lajak o’qituvchilarni ilmiy metodik tayyorlashda alohida o’rin tutadi. Pedagogika nazariyasi va tarixidan mukammal bilim va malakaga ega bo’lgandan keyin pedagogik texnologiya yoki yangi pedagogik texnologiya fani o’rganiladi.

Demak, pedagogik texnologiya, pedagogika, pedagogik maxorat, psixologiya, matematik modellashtirish fanlari bilan o’zaro bog’liklikda o’rganiladi. Pedagogik texnologiya fanining dasturi uch yunalishda:

Pedagogik texnologiyaning nazariy asosi, tarix va amaliy ko’nikmalar shakllantirishga qaratilgan.

Ilmiy adabiyotlarda pedagogik texnologiyaning uch aspekti to’g’risida fikr yuritiladi; ilmiy, tavsifiy, amaliy.

Ilmiy aspektda: o’qitishning maqsadi, mazmuni va metodlari ilmiy asoslanadi, pedagogik jarayon loyihalashtiriladi.

Tavsifiy apektda: rejalashtirilgan o’qitish natijalariga erishishning maqsadi, metodlari va vositalarining ishtiroki asosida algoritm jarayoni ishlab chiqiladi.

Amaliy aspektda; pedagogik texnologiya jarayoni amalga oshiriladi.

Ta`lim amaliyotiga nisbatan pedagogik texnologiyaning uch sathi belgilanadi: umumpedagogik, xususiy metodik, lokal (modul).

Umumpedagogik texnologiya yaxlit ta`lim jarayonini ifoda etadi.

Xususiy metodik texnologiya bir fan doirasidagi o’quv-tarbiya jarayonini amalga oshirish metodlari va vositalaridan iborat.

Lokal texnologiya o’quv tarbiya jarayonining maxsus bo’limlariga texnologiyani tadbiq qilishni ifoda qiladi. Bu texnologiya xususiy didaktik tarbiyaviy vazifalarni hal qilishga qaratiladi.

### “Pedagogik texnologiyalar fanining maqsad va vazifalari.”

-litsey va kollejlarninng bo’lajak o’qituvchilarininng zamonaviy pedagogik texnologiyalar nazariy asoslari bilimlari bilan qurollantirish;

- yangi pedagogik darajada pedagogik jarayonlarni samarali tashkil etishlari uchun zarur mahoratlarga ega bo’lishlari;
- zamonaviy pedagogik texnologiyalar, g’oyalar maktablar, yo’nalishlar, keng turlarida yo’l topa bilish mahorati;
- pedagogik faoliyatni ijodiy va metodik to’g’ri bajarishga tayyorlikni shakllantirish;

- mustaqil ishlash, mustaqil bilim olish, o'zini tarbiyalash va o'zini mutaxasislik darajasini doimiy oshirib borishga intilishni faollashtirish.

**"Pedagogik texnologiyalar" fanining boshqa fanlar bilan aloqasi.**

"Pedagogik texnologiyalar" fanini o'rganish pedagogik nazariyasi va tarixi, pedagogik mahorat, psixologiya, demokratik jamiyat qurish nazariyasi va amaliyoti, falsafa, mantiq, etika, ma'naviyat, O'zbekiston tarixi, maktab gigienasi va fiziologiyasi, ona tili bilan o'zaro bog'liqlikda quriladi.

Pedagogik texnologiya fan sifatida bir qancha asoslarga ega. Bulardan eng ahamiyatlilari ijtimoiy, falsafiy, metodologik, gigienik, mafkuraviy, huquqiy-me'yoriy, iqtisodiy, tarixiy, nazariy, amaliy va boshqa asoslar hisoblanadi. Ular bilan qisqacha tanishib chiqamiz.

Pedagogik texnologiyaning **ijtimoiy asosi** har bir shaxs, jamiyat va davlatning ta'lim-tarbiya sohasidagi ehtiyojlaridan kelib chiqadi va shu ehtiyojlarni qondirishning maqsad va talablarini tashkiliy shakllari va usullarini belgilaydi. U shaxsning jamiyatning va davlatning rivojlanishida asosiy omillardan hisoblanadi. Pedagogik texnologiyaning **falsafiy asosi** uning maqsadlari hamda tashkiliy shakl va usullarini falsafiy jihatdan to'g'ri yo'nalishda bo'lishini ta'minlashga xizmat qiladi. Falsafiy oqimlar va yo'nalishlarning har biri ta'lim-tarbiya masalalariga o'ziga xos yondoshadi. Shu sababli «Pedagogik texnologiya» fanining falsafiy yo'nalishi uning to'g'ri yoki noto'g'riligini, jamiyatning ma'lum maqsadlariga muvofiq yoki zidligini ko'rsatadi. Bu pedagogik texnologiyalarga baho berishda asosiy ko'rsatkichlardan hisoblanadi.

Pedagogik texnologiya fanining **metodologik asosi** uni amalga oshirishda qanday metodlarga asoslanishini belgilaydi, insonlarning olamini hamda o'zlarini bilishlari turli tarixiy davrlarda turlicha asoslarga ega bo'lgan va ular o'ziga xos metodlarni keltirib chiqargan. Hozir olam va uninng hususiyatlari haqida xolis ma'lumotlar olish haqqoniy bilimlar hosil qilishninng ilmiy metodikasi pedagogik texnologiyalarning metodologik asosi hisoblanadi. Metodologik asosning ilmiy jihatdan to'g'ri bo'lishi texnologiyalar uchun zaruriy shartdir. Pedagogik texnologiyaning **didaktik asosi** uning ta'lim-tarbiya qoida va tamoyillariga muvofiqligini belgilaydi. Didaktik talablar ta'lim-tarbiyaviy vazifalarning nazariy jihatdan to'g'ri bajarilishini ta'minlaydi.

Pedagogik texnologiyaning didaktik jihatdan to'g'ri bo'lishi uning yuqori samaradorligining zaruriy sharti hisoblanadi. Buning uchun zamonaviy didaktikaning ilmiy hulosalaridan ijodiy foydalanish talab qilinadi.

Pedagogik texnologiyaning **pedagogik asosi.** Zamonaviy pedagogika fanining ilmiy hulosalaridan kelib chiqadi. Bunda pedagogik texnologiyaning umumiy tarkibiy tuzilmasi, mazmuni, shakli, usullari, vositalari, pedagogik jarayonninng tashkil qilinishi, olib borilishi, uninng diagnostikasi, monitoringi, o'quv-mavzu rejalar va shu kabilarninng ilmiy jihatdan to'g'ri bo'lishi ta'minlanadi. Pedagogik texnologiyalar hozirgi pedagogika faninng rivojlanishida katta o'rin egallab bormoqda.

Pedagogik texnologiyaninng **psixologik asosi** psixologiya fanining ilmiy hulosalari va tavsiyalari bilan belgilanadi. Ulardan ta'lim-tarbiya jarayonida to'g'ri foydalanish orqaligina kutilgan natijaga erishish mumkin. Shu sababli pedagogik texnologiya psixologiya qonunlarini to'liq hisobga olishi talab etiladi.

Ta’limninng har bir bosqichida tegishli yosh psixologiyasi hususiyatlariga moslashtirilgan pedagogik texnologiyalar qo’llaniladi. Har bir bosqichda tegishli darajadagi bilim va tarbiya beriladi. Bu masalalarni o’rganish bilan pedagogik psixologiya fani shug’ullanadi.

Pedagogik texnologiyaninng **fiziologik asosi** o’quvchilarning turli yoshdagi fiziologik hususiyatlarini hisobga olishdan iborat. Bunda o’g’il va qiz bolalar fiziologiyasidagi farqlar alohida hisobga olinishi lozim. Pedagogik texnologiya jarayonida fiziologik talablarni hisobga olish sog’lom avlodni voyaga etkazishninng zaruriy sharti hisoblanadi.

Pedagogik texnologiyaninng **gigiyenik asosi** ta’lim- tarbiya jarayonida salomatlikni saqlash talablariga rioya qilishdan iborat. Bunda turli zararli va ortiqcha ta’sirlarni bartaraf qilish, o’quv sharoiti: yoritilganlik, harorat, havoninng tozaligi, o’quvchininng va o’qituvchininng ish o’rni, jihozlar, o’quv nagruzkalarininng me’yorlari, didaktik vositalarninng qulayligi sifati va shu kabilar tibbiyot, fiziologiya, ekologiya talablariga, insonparvarlik va xalqparvarlik g’oyalariga muvofiq bo’lgan ilmiy asoslarda belgilab boriladi.

Bu talab va me’yorlarga rioya qilish pedagogik texnologiyani amalga tadbiq etish imkoniyatini yaratadi. Bu masalalarni o’rganish bilan maktab gigienasi fani shug’ullanadi.

Pedagogik texnologiyaninng **mafkuraviy asosi** uninng milliy istiqlol g’oyasi va mafkurasi tamoyillarini o’zida mujassam etishi va ularni amalga oshirishga yo’naltirilgan bo’lishidan iborat. Bunda barkamol insonni shakllantirishda mafkuraviy tarbiyaning fidoiy, mustaqil fikrlay oladigan, xulq-atvori bilan boshqalarga ibrat bo’ladigan bilimli, ma’rifatli, ijtimoiy faol insonni voyaga etkazishdan iborat asosiy vazifalarni amalga oshirib borishi har bir pedagogik texnologiya uchun dolzarb masalalardan hisoblanadi.

Pedagogik texnologiyaning **huquqiy-me’yoriy asosi** ta’lim-tarbiya jarayonini tashkil qilish va amalga oshirishga doir qonuniy va meyoriy hujjatlar bilan belgilanadi. Bular O’zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi “Ta’lim to’g’risida”gi Qonun, Kadrlar tayyorlash milliy dasturi, davlat ta’lim standartlari, o’quv reja va dasturlar; O’zbekiston Respublikasi Prezidentining ta’lim-tarbiya sohasiga tegishli Farmonlari, Vazirlar qaror va buyruqlari, ular asosida tayyorlanib o’rnatilgan tartibga tasdiqlangan nizomlar, ustavlar va boshqa me’yoriy hujjatlar hisoblanadi.

Pedagogik texnologiya jarayoni ishtirokchilari ushbu huquqiy-me’yoriy asoslarni tegishli darajada bilishlari va amalga oshirib borishlari lozim.

Pedagogik texnologiyaning **iqtisodiy asosi** ta’lim menejmenti xulosalari va marketing tadqiqotlari natijalariga muvofiq belgilanadi. Pedagogik texnologiya ijtimoiy sohadagi faoliyat bo’lgani sababli uning iqtisodiy samarasi o’ziga xos tartiblarda aniqlanadi va ta’minot masalalari hal qilib boriladi. Pedagogik texnologiya iqtisodiy asosini mustahkam bo’lishi uni amaliyotda davom ettirish uchun zaruriy shart hisoblanadi.

Pedagogik texnologiyaning **tarixiy asosi** ta’lim-tarbiya masalalarini turli tarixiy davrlarda amalga oshirishning shakl va usullari, mazmuni hamda turli pedagogik nazariyalar haqidagi ma’lumotlardan iborat bo’lib ular zamonaviy pedagogik texnologiyalarning kelib chiqishi uchun zamin hisoblanadi. Hozirgi pedagogik

texnologiyalar turli davrlarda boshlangan ishlar, olib borilgan tahlillar, chiqarilgan hulosalar, mutafakkirlar bildirgan fikr-mulohazalarninng rivojlantirilishi asosida paydo bo'lib, takomillashib bormoqda. Pedagogik texnologiyaning tarixiy asosi uning o'ziga xos ildizlarini tashkil qilishini hisobga olgan holda ularni bilish va chuqur o'rganish kelgusi rivojlanish yo'llarini belgilashda muhim ahamiyatga ega.

Yuqorida aytilgan va boshqa asoslar umumlashtirilsa, har bir pedagogik texnologiyaning o'z **nazariy va amaliy asoslari** kelib chiqadi. Ular alohida maqsad, vazifalari, mazmuni, shakl, usul, vositalariga muvofiq belgilanadi.

**Test topshiriqlari**

**1. "Texnologiya" so`zining lug`aviy ma'nosi nima?**

A) "Hunar fani";
B) "Hunar san'ati";
V) "Ta'lim fani";
G) Javoblarning barchasi to'g'ri.

**2. Pedagogik texnologiyalar ustuvor metodlar bo'yicha qanday tasniflanadi?**

A) Tabaqalashtirilgan, dunyoviy;
B) Tarbiyalovchi, demokratik;
V) O'yin, o'z - o'zini rivojlangiruvchi ta'lim;
G) Javoblarning barchasi to'g'ri.

**3. Metodika bilan pedagogik texnologiya tushunchalarini izohi qaysi javobda ko'rsatilgan?**

A) Metodika - bu o'quv jarayonini tashkil etish va o'tkazish bo'yicha tavsiyalar majmuasi;
B) Pedagogik texnologiya – pedagogik muvaffaqiyatni kafolatlay oladigan o'quvchi shaxsini shakllantirish jarayonining loyihalash tashkiliy - pedagogik muolajalar majmuas;
V) Pedagogik texnologiya metodikaning tarkibiy qismiga kiradi;
G) Faqat A va B javoblar to'g'ri.

**4. Pedagogik texnologiyalarni qanoatlantiradigan mezonlar nimalardan iborat?**

A) Izchillik;
B) Boshqaruvga asoslanganlik;
V) Samaradorlik;
G) Javoblarning barchasi to'g'ri.

***O'z-o'zini nazorat qilish uchun savollar va vazifalar:***

1. "Pedagogik texnologiya" tushunchasining mohiyatini ochib bering.
2. Pedagogik texnologiyalar kursining maqsad va vazifalari nimalardan iborat?
3. Pedagogik texnologiyalar fanining boshqa pedagogik turkum fanlar o'rtasidagi bog'liqligini qanday izohlaysiz?
4. Pedagogik texnologiyalar fanining metodologik asosi nimalardan iborat?

**ADABIYOTLAR**

1. I.A.Karimov "Yuksak ma`naviyat – yengilmas kuch". T-Ma`naviyat-2008 y.

2. I.A.Karimov “Barkamol avlod orzusi” T-1999 y.
3. Azizxodjayeva N. “Pedagogik texnologiya va mahorat”., Toshkent., TDPU., 2006 y.
4. R. A.Mavlonova, M.Arabova, G` Saloxiddinova, M.Shirinov “Pedagogik texnologiya” ma`ruza matn 2009 y.
5. J.G` Yo`ldoshev “Pedagogik texnologiya asoslari” T., O`qituvchi, 2004.

## 5-мавзу: O'quv-tarbiyaviy jarayonni tashkil etishda zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanishning tatbiqiy asoslari

**Режа:**

1.O'qitish texnologiyasining asosiy ko'rsatkichlari.

2.Didaktik jarayonni zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etish.

3.Tarbiyaviy jarayonni va tarbiyaviy tadbirlami tashkil etishga zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida yondashuv.

**O’z-o’zini nazorat qilish uchun savollar**

1. Ta’limda "innovatsion jarayonlar" termini nimani anglatadi?
2. Adabiyotlarda innovatsion jarayonning sxemasi qanday ko’rsatiladi.
3. Innovatsion faoliyatning asosiy funktsiyalarini ayting.
4. Hozirgi davrda innovatsion faoliyatga bo’lgan zarurat nimalardan iborat.
5. Innovatsion faoliyatdagi akmeologik yondashuvga izoh bering.

**ADABIYOTLAR**

1. I.A.Karimov “Yuksak ma`naviyat – yengilmas kuch”. T-Ma`naviyat-2008 y.
2. I.A.Karimov “Barkamol avlod orzusi” T-1999 y.
3. Azizxodjayeva N. “Pedagogik texnologiya va mahorat”., Toshkent., TDPU., 2006 y.
4. R. A.Mavlonova, M.Arabova, G` Saloxiddinova, M.Shirinov “Pedagogik texnologiya” ma`ruza matn 2009 y.
5. J.G` Yo`ldoshev “Pedagogik texnologiya asoslari” T., O`qituvchi, 2004.

## 6-мавзу: Interaktiv metodning o'ziga xosligi

**Режа:**

1."Aqliy hujum" metodi,

""6x6x6" metodi,"Klaster" metodi,

"Qarorlar shajarasi" (qarorlar qabul qilish texnologiyasi) metodi,

"Beshinchisi (oltinchisi, yettinchisi, ...) ortiqcha" metodi

"Rasmlarni to'g'ri joylashtiring" metodi,

"Videotopishmoq" metodi, "Grafik organeyzerlar" haqida.

**Interfaol ta’lim** – ta’lim beruvchi va ta’lim oluvchi o’rtasidagi (ta’lim oluvchi va kompyuter) o’zaro harakatni amalga oshiruvchi dialogli ta’lim.

Interfaollik – ta'lim doirasida prinstipial yangi hodisa – shu tufayli ta'lim oluvchi:

(1) ta'lim jarayonining hamma sub'ektlari bilan faol o'zaro harakatda bo'lishi, faqatgina o'kituvchi bilan shaxsiy munosabat yulidagina emas, balki boshqa talabalar, ma'muriyat bilan hal qila olishi mumkin;

(2) multimedia ob'ektlarini taxlil kilish jarayonida ularning mazmunini, shaklini, o'lcham va ranglarini dinamik ravishda boshqarishni, turli tarafdan ularni kuzatishni, boshqa shunga o'xshash manipulyastiyalarini kayta ta'minlashni, ko'prok aniq ko'rsatuvga erishish uchun hohlagan joyidan to'xtatib va davom ettira olish mumkin bo'ladi. Shunday qilib, interfaollik faqatgina axborotlarni passiv qabul qilish uchungina emas, balki o'rganilayotgan ob'ektlar yoki jarayonlarda va virtual modellarning o'zaro harakatlarida multimedia modellari xususiyatlarini faol tadqiqot qilish uchun xam imkoniyat yaratib beradi.

Interfaollik darajasi qanchalik yuqori bo'lsa, ta'lim jarayoni ham shunchalik samarali bo'ladi.

Ushbu zamonaviy metodlar yoki interfaol usullar, o'qitishning samarasini oshirishga yordam beruvchi texnologik trenninglar o'quvchi talabalarda mantiqiy, ijodiy, tanqidiy, mustaqil fikrlashni shakllantirishga, qobiliyatlarini rivojlantirishga, raqobatbardor, etuk mutaxasis bo'lishlariga hamda mutaxasisga kerakli bo'lgan kasbiy fazilatlarni tarbiyalashga yordam beradi.

Ushbu o'quv jarayonini tashkil etish uchun havola etilgan texnologik treninglarni xuddi shu tartibda, o'tkazishlari shart emas, har qaysi o'qituvchi bu treninglarni umumiy shaklni olgan holda o'zlarining dars texnologiyalarini yaratishlari, berilgan treninglarni to'liq yoki ularning ba'zi bir bosqichlari, elementlarni ishlatishlari mumkin.

Biz quyidagi o'qitish jarayonida qo'llash mumkin bo'lgan ba'zi bir treninglar (texnologiyalar)ga tavsifnoma berib, ba'zilarni o'tkazish tartibi to'g'risida metodik tavsiyanoma berib o'tamiz.

**"TARMOQLAR"** metodi – o'quvchi-talabani mantiqiy fikrlash, umumiy fikr doirasini kengaytirish, mustaqil ravishda adabiyotlardan foydalanishni o'rgatishga qaratilgan.

**"3x4"** metodi – o'quvchi-talabalarni erkin fikrlashi, keng doirada turli g'oyalarni bera olishi, ta'lim jarayonida yakka, kichik guruh holda tahlil etib, xulosa chiqara olishi,ta'rif bera olishiga qaratilgan.

**"BLITS O'YIN"** metodi - harakatlar ketma-ketligini to'g'ri tashkil etishga mantiqiy fikrlashga, o'rganayotgan predmeti asosida ko'p, xilma xil fikrlardan, ma'lumotlardan kerakligini tanlab olishni o'rgatishga qaratilgan.

**“INTERVYU”** texnikasi – o’quvchi-talaba savol berish, eshita olish, to’g’ri javob berish, savolni to’g’ri tuzishni o’rgatishga qaratilgan.

**“IERARXIYA”** texnikasi - oddiydan murakkabga, murakkabdan oddiyga o’tish usullarini qo’llash orqali ularni mantiqiy, tanqidiy, ijodiy fikrlashga o’rgatishga qaratilgan.

**“BUMERANG”** texnikasi – o’quvchi-talabalarni dars jarayonida, darsdan tashqarida turli adabiyotlar, matnlar bilan ishlash, o’rganilgan materiallarni yoddan saqlab qolish, so’zlab bera olish, fikrni erkin holda bayon eta olish hamda bir dars davomida barcha o’quvchi talabalarni baholay olishga qaratilgan.

**“TALABA”** treningi – o’quvchi-talabalar bilan individual holda ishlash o’qituvchi va talaba o’rtasidagi to’siqni yo’q qilish, hamkorlikda ishlash yo’llarini o’rgatishga qaratilgan.

**“O’QITUVCHI SHAXSI”** trening - o’qituvchi innovastion faoliyatini ochib beruvchi “O’qituvchi shaxsiga qo’yiladigan talablar” mavzusidagi mustaqil fikrlashga, ijodiy insho yozish orqali bayon qilishga qaratilgan.

**“MULOQOT”** texnikasi o’qituvchilarni auditoriya diqqatini o’ziga jalb etish, dars jarayonida hamkorlikda faoliyat ko’rsatishga, uni tashkil etishni o’rgatishga qaratilgan.

**“BOSHQARUV”** texnikasi o’qituvchilarni auditoriyani boshqarishdagi usullari hamda o’quvchi talabalarni ish jarayonida boshqaruv usullari bilan tanishtiruvchi va shunga o’rgatishga qaratilgan.

**“Tarmoqlar metodi” (Klaster)**

Fikrlarning tarmoqlanishi - bu pedagogik stratigiya bo’lib, u o’quvchilarni Biron bir mavzuni chuqur o’rganishlariga yordam berib, o’quvchilarni mavzuga taalluqli tushuncha va aniq fikrni erkin va ochiq ravishda ketma-ketlik bilan uzviy bog’lagan holda tarmoqlashlariga o’rgatadi.

Bu metod biron mavzuni chuqur o’rganishdan avval o’quvchilarning fikrlash faoliyatni jadvallashtirish hamda kengaytirish uchun hizmat qilishi mumkin. Shuningdek, o’tilgan mavzuni mustahkamlash, yaxshi o’zlashtirish, umumlashtirish hamda o’quvchilarni shu mavzu bo’yicha tasavvurlarini chizma shaklida ifodalashga undaydi. Quyida biz, namuna sifatida misol keltirdik;

**“Bumerang” texnologiyasi**

Mazkur texnologiya bir mashg'ulot davomida o'quv materiallini chuqur va yaxlit holatda o'rganish, ijodiy tushunib etish, yorqin egallashga yo'naltirilgan. U turli mazmun va xarakterga (muomala, munazarali, turli mazmunli) ega bo'lgan mavzularni o'rganishga yaroqli bo'lib, o'z ichiga og'zaki va yozma ish shakllarini qamrab oladi hamda bir mashg'ulot davomida har bir ishtirokchining turli topshiriqlarni bajarishi, navbat Bilan o'quvchi yoki o'qituvchi rolida bo'lishi, kerakli ballni to'plashiga imkoniyat beradi.

"**Bumerang" texnologiyasi** tanqidiy fikrlash, mantiqli shakllantirishga, imkoniyat yaratadi; xotirani, g'oyalarni, fikrlarni, dallillarni yozma va og'zaki shakllarda bayon qilish ko'nikmalarini rivojlantiradi.

Ta'lim Bilan bir qatorda mazkur metod tarbiyaviy xarakterdagi qator vazifalarni amalga oshirish imkonini beradi:

-Jamoa bilan ishlash mahorati;

-Muomalalik;

-Xushfe'llik;

-Ko'nikuvchanlik;

-O'zgalar fikriga hurmat;

-Faollik;

-Rahbarlik sifatlarini shakllantirish;

-Ishga ijodiy yondoshish;

-O'z faoliyatining samarali bo'lishiga qiziqish;

-O'zini xolis baholash.

Asosiy tushunchalar quyidagilar:

Ochiq savollar - bu savollar muomala, so'zlashuvni davom ettirishga imkon beradi. Ularga qisqa, bir xil javob berish mumkin emas.

Yopiq savollar - bu savollar oldindan "ha" yoki "yo'q" tipidagi to'g'ri, ochiq, javoblarni berishni ko'zda tutadi.

Ko'ndalang so'roq - bir-biriga guruhlab beriluvchi qisqa savollar qatori bo'lib, bu o'ziga xos axborotlar izlash hamda dallillarni, opponentlar pozistiyasini aniqlash va muayyan qarorlar qabul qilish uchun ajoyib imkoniyatdir.

Ko'ndalang so'roq paytida munoazaraga kirishish mumkin emas. Bu vaqtda faqat savollar beriladi, munozaraga kirishilmaydi.

**"Skarabey" texnologiyasi**

"Skarabey" interaktiv texnologiya bo'lib, u o'quvchilarda fikriy bog'liqdir, mantiq, xotiraning rivojlanishiga imkoniyat yaratadi, qandaydir muammoni hal qilishda o'z fikrini ochiq va erkin ifodalash mahoratini shakllantiradi. Mazkur texnologiya o'quvchilarga mustaqil ravishda bilimning sifati va saviyasini holis baholash, o'rganilayotgan mavzu haqidagi tushuncha va tasavvurlarni aniqlash imkonini beradi. U ayni paytda, turli g'oyalarni ifodalash hamda ular orasidagi bog'liqliklarni aniqlashga imkon yaratadi.

"Skarabey" texnologiyasi har tomonlama bo'lib, undan o'quv materialining turli bosqichlarini o'rganishda ifodalanadi:

-boshida-o'quv faoliyatini rag'batlantirish sifatida ("Aqliy hujum");

-mavzuni o'rganish jarayonida - uning mohiyati, tuzilishi va mazmunini beligilash; ular orasidagi asosiy qismlar, tushunchalar, aloqalar xarakterini aniqlash, mavzuni yanada chuqurroq o'rganish, Yangi jihatlarni ko'rsatish;

-oxirida- olingan bilimlarni mustahkamlash va yakunlash maqsadida.

"Skarabey" texnologiyasi o'quvchilar tomonidan oson qabul qilinadi, chunki u faoliyatning fikrlash, bilish xususiyatlari inobatga olingan holda ishlab chiqilgan. U o'quvchilar tajribasidan foydalanishni ko'zda tutadi, reflektiv kuzatishlarni amalga oshiradi, faol ijodiy izlash va fikriy tajriba o'tkazish imkoniyatlariga ega.

Mazkur texnologiyalarning ayrim afzalliklari sifatida idrok qilishni engillashtiruvchi chizma shakllardan foydalanishni ko'rsatish mumkin.

"Skarabey" alohida ishlarda, kichik guruhlarda hamda o'quv jamoalarida qo'llanishi mumkin.

Ta'limdan tashqari mazkur metod tarbiyaviy xarakterdagi qator vazifalarni amalga oshirish imkonini beradi;

-O'zgalar fikriga hurmat;

-Jamoa bilan ishlash mahorati;

-Faollik;

-Xushmuomalalik;

-Ishga ijodiy yondashish;

-Imkoniyatlarini ko'rsatish ehtiyoji;

-O'z qobiliyai va imkoniyatlarini tekshirishga yordam beradi;

-"men"ligini ifodalashga imkon beradi;

-o'z faoliyati natijalariga mas'ullik va qiziqish uyg'otadi.

Asosiy tushunchalari quyidagilar:

Assotsiatsiya mantiqiy bog'liqlik bo'lib, sezgilar, tasavvurlar, idrok qilish, g'oyalar va boshqalar orasida hosil qilinuvchi mantiqiy aloqadir.

Zanjirlash (muayyan tartib) - ahamiyati, muhimligi, mazmuni darajasiga qarab tartiblash.

**"VEER" texnologiyasi**

Bu texnologiya murakkab, ko'ptarmoqli, mumkin qadar, muammo xarakteridagi mavzularni o'rganishga qaratilgan.

Texnologiyaning mohiyati shundan iboratki, bunda mavzuning turli tarmoqlari bo'yicha bir yo'la axborot beriladi. Ayni paytda, ularning har biri alohida nuqtalardan muhokama etiladi. Masalan, ijobiy va salbiy tomonlari, afzallik, fazilat va kamchiliklari, foyda va zararlari belgilanadi.

Bu interaktiv texnologiyasi tanqidiy, tahliliy, aniq mantiqiy fikrlashni muvaffaqiyatli rivojlantirishga hamda o'z g'oyalari, fikrlarini yozma va og'zaki shaklda ixcham bayon etish, himoya qilishga imkoniyat yaratadi.

"VEER" texnologiyasi umumiy mavzuni ayrim tarmoqlarini muhokama qiluvchi kichik guruhlarning har bir qatnashuvchining, guruhning faol ishlashiga qaratilgan.

"VEER" texnologiyasi mavzuni o'rganishning turli bosqichlarida qo'llanilishi mumkin:

-boshida: o'z bilimlarini erkin faollashtirish;

-mavzuni o'rganish jarayonida; uning asosilarini chuqur fahmlash va anglab etish:

-yakunlash bosqichida; olingan bilimlarni tartibga solish.

Asosiy tushunchalar quyidagilar:

Aspekt (nuqtai nazar) bilan predmet, hodisa, tushuncha tekshiriladi.

Afzallik - biror narsa bilan qiyoslangandagi ustunlik, imtiyoz.

Fazilat-ijobiy sifat.

Nuqson-nomukammallik, qoidalarga, mezonlarga nomuvofiqlik.

Xulosa-muayyan bir fikrga, mantiqiy, qoidalar bo'yicha dalildan natajaga kelish.

Ta'limdan tashqari "Yelpig'ich" texnologiyasi tarbiyaviy xarakterdagi qator vazifalarni amalga oshirish imkonini beradi:

-Jamoa, guruhlarda ishlash mahorat;

-Muammolar, vaziyatlarni turli nuqtai nazardan muhokama qilish mahorat;

-Murosali qarorlarni topa olish mahorati;

-O'zgalar fikriga hurmat;

-Xushmuomalalik;

-Ishga ijodiy yondoshish;

-Faollik;

-Muammoga diqqatini jamlay olish mahorati.

## AQLIY HUJUM

Aqliy hujum guruhlararo ishlarda qo'llaniladigan, ko'plab g'oyalarni ishlab chiqish mumkin bo'lgan metodlar. Bu haqiqatdan ham talabalarning o'quv jarayonida faol ishtirok etishlari, turli g'oyalarni bayon qilish chog'ida boshqalarni ham qizg'in ishga yo'llashlari, ilhom bilan ishlashlariga imkon beruvchi va unga rag'batlantiruvchi metoddir. Aqliy hujum shuning uchun ham faollashtirishning muhim usuliki, unda tanho ishlash mumkin emas, birgina g'oya guruhning barcha ishtirokchilarini bir xilda o'ziga tortib oladi.

O'qituvchi mavzuni yoki savolni ajratib olishi zarur, keyin esa o'quv faolligi 5-10 daqiqa oralig'idagi vaqt chegarasida engillashtiriladi.

Aqliy hujum turli tarzda qo'llanishi mumkin; masalan, qandaydir mavzuni muhokama qilish uchun, yangi savol qo'yish yoki istalgan qandaydir muammoni hal etish uchun.

**Asosiy qoidalar quyidagilar:**

1. Aytilayotgan barcha g’oyalar bir biriga nisbatan muhimlikda tengdir.

2.Kiritilayotgan g’oyalarga nisbatan tanqid mavjud emas.

3. G’oyani taqdim etayotgan paytda so’zlovchining gapini bo’lmaslik.

4. So’zlovchiga nisbatan baholovchi komponent mavjud emas.

**Metodni ishlatishga kirishmoq…**

**1-metod** guruhning barcha ishtirokchilariga bir mavzu va bir savol qo’yiladi.

1. o’qituvchi o’quv jarayonida tashabbusni o’z qo’liga shunday tarzda oladi: U auditoriyadagi barcha talabalarga savol beradi va qandaydir maxsus mavzuga daxldor barcha mumkin bo’lgan fikrlarni aytishni so’raydi.

2. Barcha, xatto, ahmoqona g’oyalarni ham aytishga ruxsat beriladi.

3. Aytilayotgan fikrlar ichida birgina asosiy mavzu saqlanib qolishi shart.

4. Birortasining ham fikri sharhlanmaydi, tanqid qilinmaydi, baholanmaydi.

5. Asosiy fikrlarni o’qituvchi flip karta, doskaga yozib oladi yoki ekranda ko’rsatadi.

6. Aqliy hujum tugagach, barcha g’oyalar to’planishi, guruhlarga ajratilishi yoki kategoriyalarga bo’linishi mumkin.

**Venn diagrammasi** - 2 va 3 jihatlarni hamda umumiy tomonlarini solishtirish yoki taqqoslash yoki qarama-qarshi qo‘yish uchun qo‘llaniladi. U o‘quvchilarda tizimli fikrlash, solishtirish, taqqoslash, tahlil qilish ko‘nikmalarini rivojlantiradi. Dastlab o‘quvchilar Diagramma Venna tuzish qoidasi bilan tanishadilar. Alohida/kichik gurhlarda diagramma Vennani tuzadilar va kesishmaydigan joylarni (x) to‘ldiradilar. Juftliklarga

birlashadilar, o‘zlarining diagrammalarini taqqoslaydilar va to‘ldiradilar. Doiralarni kesishuvchi joyida, ikki/uch doiralar uchun umumiy bo‘lgan, ma’lumotlar ro‘yxatini tuzadi. Masalan, o‘quvchilarda davlat ramzlariga nisbatan milliy g‘ururni shakllantirishda ham ushbu diagrammadan foydlanish mumkin.




**“Nima uchun**” sxemasi - muammoning dastlabki sabablarini aniqlash bo‘yicha fikrlar zanjiri tarzida tuziladi. U tizimli, ijodiy, tahliliy fikrlashni rivojlantiradi va faollashtiradi. Dastlab bunda ham o‘quvchilar “Nima uchun” sxemasini tuzish qoidasi bilan tanishadilar. Alohida/kichik guruhlarda muammoni ifodalaydilar. “Nima uchun” so‘rog‘ini beradilar va chizadilar, shu savolga javob yozadilar. Bu jarayon muammoning dastlabki sababi aniqlanmagunicha davom etadi. Kichik guruhlarga birlashadilar, taqqoslaydilar, o‘zlarining chizmlarini to‘ldiradilar. Umumiy chizmaga keltiradilar. Ish natijalari taqdimoti o‘tkaziladi. Masalan, o‘quvchilar bilan vatanimiz taraqqiyoti uchun milliy g‘ururli yoshlar kerakligi haqida ham shunday diagramma tuzish mumkin.

Tadbirlar davomida o‘quvchilarga muayyan muammoni yechimini jamoa bo‘lib hal etish uchun mazkur innovatsion metoddan foydalanish mumkin.

Nima uchun ?(Nima uchun Ona tabiat deymiz? )




**Baliq skleti-** bir qator muammolarni tasvirlash va uni yechish imkonini beradi. U o‘quvchilarni tizimli fikrlash, tuzilmaga keltirish, tahlil qilish ko‘nikmalarini rivojlantiradi. Bunda ham o‘quvchilar birinchi bo‘lib, chizmani tuzish qoidasi bilan tanishadilar. Alohida/kichik guruhlarda yuqori “suyagida” kichik muammoni ifodalaydi, pastda esa, ushbu kichik muammolar mavjudligini tasdiqlovchi dalillar yoziladilar. O‘quvchilar kichik guruhlarga birlashadilar, taqqoslaydilar, o‘zlarining chizmlarini to‘ldiradilar. Umumiy chizmaga keltiradilar. Ish natijalari taqdimoti o‘tkaziladi va o‘quvchilar o‘zlari chizgan chizmani ifodalab beradilar.

Pedagogik texnologiyaning samarali metodlaridan yana biri bu - **klasterdir.** «Klaster» so'zi “g'ujum”, “bog'lam” ma'nosini anglatadi. Bu usul ko'p variantli fikrlashni o'rganilayotgan tushuncha (hodisa, voqea)lar o'rtasida aloqa o'rnatish malakalarini rivojlantiradi. Klasterlar asosan yangi fikrlarni uyg'otish, mavjud bilimlarga yetib borish strategiyasi bo'lib, muayyan mavzu bo'yicha yangicha fikr yuritishga chorlaydi. Klaster tuzishda guruhdagi barcha o'quvchilarning ishtirok etishi lozim bo’ladi.

Tadbirlarda innovatsion texnolgiyalardan foydalangan holda tashkil etish uning o‘quvchilar tomonidan faol qabul qilinishiga olib keladi.

**“Zigzag”** usuli 1980-1990 yillardan boshlab paydo bo‘lgan. Bu usulning boshqa usullardan farqi shundaki, ishtirokchilar mayda guruhlarga ajratiladilar va talabalar raqamlanadilar, spiker (boshliq saylanadi). So‘ngra bir xil raqamlar bir-birini “topadilar”. Topshiriq beriladi va o‘zlashtirgach, tarqalishadilar. Har bir a’zo o‘zi o‘zlashtirgan materialni eski sheriklariga aytib beradi. Savol-javobda esa guruh baholanadi. Har bir raqamlanganlar yangi va har xil topshiriqlar olganini hisobga olsak, har bir talaba o‘z guruhi manfaati uchun ham berilgan topshiriqni bilishi kerak va bilishga majbur! Chunki, u o‘z guruhiga qaytganda, o‘rgangan mavzu bo‘yicha savol-javobda guruhi nomidan qatnashishi kerak.

«Yelpig‘ich» texnologiyasi

Bu texnologiya murakkab, ko‘ptarmoqli, mumkin qadar, muammo xarakteridagi mavzularni o‘rganishga qaratilgan.

Texnologiyaning mohiyati shundan iboratki, bunda mavzuning turli tarmoqlari bo‘yicha biryo‘la axborot beriladi. Ayni paytda, ularning har biri alohida nuqtalardan muhokama etiladi. Masalan, ijobiy va salbiy tomonlari, afzallik, fazilat va kamchiliklari, foyda va zararlari belgilanadi.

Bu interaktiv texnologiya tanqidiy, tahliliy, aniq mantiqiy fikrlashni muvaffaqiyatli rivojlantirishga hamda o‘z g‘oyalari, fikrlarini yozma va og‘zaki shaklda ixcham bayon etish, himoya qilishga imkoniyat yaratadi.

«Yelpig‘ich» texnologiyasi umumiy mavzuning ayrim tarmoqlarini muxokama qiluvchi kichik guruhlarning, har bir qantashuvchining, guruhning faol ishlashiga qaratilgan.

«Yelpig‘ich» texnologiyasi mavzuni o‘rganishning turli bosqichlarida qo‘llanilishi mumkin:

-boshida: o‘z bilimlarini erkin faollashtirish;

-mavzuni o‘rganish jarayonida: uning asoslarini chuqur fahmlash va anglab yetish;

-yakunlash bosqichida: olingan bilimlarni tartibga solish.

Bu texnologiya talabalarga tanqidiy, tahliliy va ainq mantiqiy fikrlashlarini muvaffaqiyatli rivojlantirishga hamda o‘z g‘oyalari, fikrlarini yozma va og‘zaki shaklda ixcham bayon etish, shuningdek, uni himoya qilishga imkoniyat yaratadi.

## 7-mavzu: Zamonaviy o'qitishning pedagogik va psixologik texnologiyalari

**Reja:**

1.O'quv faoliyatini tashkil etishda zamonaviy pedagogik texnologiyalarning psixologik mohiyati.

2. O'qituvchiilarni pedagogik kasb faoliyatiga tayyorlashning psixologik texnologiyalari.
3.Shaxsni kamol toptirishga yo'naltirilgan ta'lim texnologiyalari.
4.Zamonaviy pedagogik texnologiyalami qo'Uashda hisobga olinadigan ayrim pedagogik-psixologik tajribalar.
5.Muammoli ta'lim texnologiyasining psixologik asoslari.
6. Pedagogik texnologiyalar asosida o'quvchilarda bilish mustaqilligini rivojlantirishning psixologik muammolari.
7.Bilimlarning ko'nikma va malakalarga aylanish texnologiyasining pedagogik-psixologik mohiyati.
8.Pedagogik texnologiyalarni joriy qilishning ijtimoiy-psixologik tomonlari.

MAVZU: O‘qituvchi psixologiyasi Reja: 1. Hozirgi zamon o‘qituvchisiga qo‘yiladigan talablar 2. Pedagogik qobiliyatlar O‘qituvchining eng muhim shaxsiy xislatlari qo‘yidagilardir: - ijtimoiy javobgarlikni yuksak darajada his etish; - olijanobligi, aql-farosati, ma’naviy pok va ma’rifat bo‘yicha yuksak maqsadlarga mos kelishi, bunday xislatlarni jamiyat xohishi bo‘yicha bolalarga singdirib berishi; - o‘zini qo‘lga ola bilishi, sabr-toqatli, matonatligidir. Jamiyatning o‘qituvchilik kasbiga qo‘yadigan asosiy talablari quyidagichadir: - shaxsni ma’naviy-ma’rifiy tomondan tarbiyalashning milliy uyg‘onish mafkurasining hamda umuminsoniy boyliklarining mohiyatini bilishi, bolalarni mustaqillik g‘oyalariga sodiqlik ruhida tarbiyalashni bilishi, o‘z vatani, tabiatiga va oilasiga bo‘lgan muhabbati; - keng bilim saviyasiga ega bo‘lish, barcha sohalarga doir bilimlar bilan kurollanishi; - yosh pedagogik psixologik, ijtimoiy psixologiya va pedagogika yosh fiziologiyasi hamda maktab gigiyenasidan chuqur bilimlarga ega bo‘lishi; - o‘zi dars beradigan fan bo‘yicha mustahkam bilimga ega bo‘lib, o‘z kasbi sohasida jahon fanida erishilgan yutuq va kamchiliklardan xabardor bo‘lishi; -ta’lim va tarbiya metodikasini egallashi; - o‘z ishiga iqtisodiy yondashishi; - bolalarni bilishi, uning ichki dunyosini tushuna olishi; - pedagogik texnikani (mantiq, nutq; ta’limning ifodali vositalari) va pedagogik taktga ega bo‘lishi; o‘qituvchining o‘z bilim va pedagogik mahoratini doimiy ravishda oshirib borish Pedagogik qobiliyatlar- insonning pedagogik faoliyatga tayyorgarligi va uni muvafaqiyatli bajarishni ifodalovchi individual-o‘ziga xos xususiyatlari sifatida belgilanadi. Pedagogik qobiliyatlar tasnifi (V.

A.Krutetskiy bo‘yicha) 1. Didaktik qobiliyat- o‘quvchilarga mos o‘quv materialini bera olish qobiliyati. Ma’lumot yoki muammolar aniq va tushunarli berish, fanga nisbatan qiziqishlarini uyg‘otish, o‘quvchilarning faol mustaqil fikrlashlarini kuchaytirishdan iborat. 2. Akademik qobiliyat-fanning ba’zi sohalariga bo‘lgan (matematika, fizika, biologiya, adabiyot va hokazolar) qobiliyat hisoblanadi. 3. Perseptiv qobiliyat-o‘quvchilarning ichki olamiga kirib bora olish qobiliyati, psixologik kuzatuvchanlik bilan izohlanadi. 2 4. Nutq qobiliyati -O‘z fikrlari, hissiyotini nutq yordamida, shuningdek, mimika va pantomimika yordamida aniq va ravshan ifodalash qobiliyati. 5. Tashkilotchilik qobiliyati- birinchidan, o‘quv jamoasini tashkil etish uni muhim vazifalarini hal etishga undash qobiliyati, ikkinchidan, o‘z shaxsiy ishini to‘g‘ri tashkil etish qobiliyatidir. 6. Avtoritar qobiliyat-o‘quvchilarga bevosita hissiy-irodaviy ta’sir ko‘rsata olish qobiliyati va uning negizida avtoritetga aylanish qobiliyatidir. 7. Kommunikativ qobiliyat-bolalar bilan muloqatga kirishish, o‘quvchilarga to‘g‘ri yondashuvni topish, ular bilan pedagogik nuqtai nazardan maqsadga muvofiq o‘zaro munosabatlarni o‘rnatish qobiliyati, pedagogik taktning mavjudligi bilan belgilanadi. 8. Pedagogik tassavur (yoki bashorat qila olish qobiliyati) o‘quvchi shaxsini tarbiyaviy loyihalashtirish ya’ni o‘z harakatlarini (oldindan) oqibatlarini oldindan ko‘ra bilish qobiliyati. 9. Diqqatni taqsimlash qobiliyati- u o‘qituvchi uchun muhim ahamiyat kasb etib, diqqatni bir vaqt bir necha faoliyatga qaratishdan iborat qobiliyadir. Pedagogik qobiliyatlar tasnifi (N.V.Kuzmina bo‘yicha). N.V.Kuzmina va uning maktabi tomonidan ishlab chiqilgan pedagogik qobiliyatlar konsepsiyasi bugungi kunda bir muncha to‘liq tizimli talqinni ifodalaydi: Birinchi daraja Perseptiv-refleksiv pedagogik qobiliyatlar u o‘zida: Hissiylikning uch turini mujassam etadi: a) Obyektni his etish o‘quvchilar ehtiyojlarini talablar bilan mos kelishining empatiyasi va bahosi bilan bog‘liq; B) Meyor yoki taktni his etish; v) Tegishlilik hissi. Bu hissiyliklarning namoyon bo‘lishi pedagogik intuitsiyaning asosi hisoblanadi Ikkinchi daraja. Proyektiv pedagogik qobiliyat-ta’limning yangi samarali usullarini ishlab chiqishga bo‘lgan hissiylik bilan muvofiqlashtiriladi. Gnostik qobiliyat- o‘quvchilarning o‘qitish

metodikalarining tez va ijodiy egallashda, ta’limning turli usullarini yaratishda namoyon boʻladi hamda ular oʻqituvchining oʻz oʻquvchilari, oʻzi haqidagi ma’lumotga ega boʻlishini ta’minlaydi. Loyihalashtirish qobiliyati- tarbiyalovchi ta’limning yakuniy natijalarini rejalashtirishida namoyon boʻladi. Konstruktiv qobiliyat- birgalikdagi hamkorlik faoliyatini ijodiy ish atmosferasini yaratishda namoyon boʻladi. Kommunikativ qobiliyat-aloqa va pedagogik maqsadga muvofiq munosabatlarni oʻrnatishda namoyon boʻladi u quyidagilar orqali ta’minlanadi: ● indentifikatsiyaga boʻlgan qobiliyat; ● oʻquvchilarning individual qobiliyatlariga boʻlgan hissiylik; 3 ● yaxshi rivojlangan intuitsiya; ● suggestiv xususiyatlar; ● nutq madaniyati omillari (mazmuniylik, ta’sirchanlik) (L. D. Stolyarenkaga koʻra) Tashkilotchilik qobiliyati- oʻquvchilarning guruhda oʻquv materialini oʻzlashtirishda tashkil etish qobiliyatiga boʻlgan oʻziga xos hissiylikda namoyon boʻladi.

Muammoli ta’lim – bu mantiqiy fikrlash jarayoni (tahlil, umumlashtirish va boshqa shu kabilar) va oʻquvchilarning izlanishli faoliyati qonuniyatlarini (muammoli vaziyat, bilishga qiziqish, ehtiyoj) hisobga olib tuzilgan ta’lim va oʻqitishning ilgari ma’lum boʻlgan usullarini qoʻllash qoidalarining yangi tizimidir. Shuning uchun ham muammoli ta’lim koʻproq oʻquvchi fikrlash qobiliyatining rivojlanishini, uning umumiy rivojlanish va ye’tiqodining shakllanishini ta’minlaydi. Didaktikaning barcha yutuqlarini istisno qilmay, balki ulardan foydalangan holda muammoli ta’lim ilmiy bilim va tushunchalarni, dunyoqarashni shakllantirish, shaxs va uning intellektual faolligini har tomonlama rivojlantirish vositasi sifatida rivojlantiruvchi ta’lim boʻlib qoladi.

Muammoli ta’lim nazariyasi oʻquvchi intellektual kuchining rivojlantiruvchi ta’limni tashkil qilishning psixologik – pedagogik yoʻllari va usullarini tushuntiradi.

Muammoli vaziyatlarning roli va ahamiyatini aniqlash oʻquvchi faol fikrlash faoliyatining psixologik-pedagogik qonuniyatlarini izchil ravishda hisobga olish asosida oʻquv jarayonini qayta qurish gʻoyasiga olib keldi. Yangi pedagogik faktlarni nazariy jihatdan mulohaza qilib koʻrish asosida muammoli ta’limning

asosiy g‘oyasi aniqlanadi: muammoli ta’limda bilimning deyarli katta qismi o‘quvchilarga tayyor holda berilmaydi, balki o‘quvchilarning tomonidan muammoli vaziyat sharoitlarida mustaqil bilish faoliyati jarayonida yegallab olinadi.

Ma’lumki, shaxsning har tomonlama va garmonik rivojlanishining muhim ko‘rsatikichi – yuqori darajada fikr yuritish qobiliyatining mavjudligidir. Agar ta’lim ijodiy qobiliyatni rivojlantirishga olib borsa, u holda uni so‘zning zamonaviy ma’nosida rivojlanuvchi ta’lim deb hisoblash mumkin.

Rivojlanuvchi ta’lim deb, ya’ni umumiy va maxsus rivojlanishga olib keladigan shunday ta’limni hisoblash mumkinki, unda o‘qituvchi fikr yuritishning qonuniy rivojlanishni bilimga tayangan holda, maxsus pedagogik vositalar yordamida o‘z o‘quvchilarini fan asoslarini o‘rganish jarayonida fikrlash qobiliyati va bilish yehtiyojini shakllantirishga oid maqsadga yo‘naltirilgan ish faoliyatini olib boradi.

O‘qitish jarayoniga muammoli o‘qitish texnologiyasini qo‘llash uchun o‘qituvchi quyidagi masalalarni hal qilishi lozim:

O‘quv dasturi bo‘yicha mavzularni muammoli dars shaklida o‘tish mumkinligini;

Mavzu matnidagi masalalar bo‘yicha muammoli vaziyatni keltirib chiqaradigan savollar, topshiriqlarni aniqlash, bunda didaktikaning ilmiylik, tizimlilik, mantiqiy ketma-ketlik, izchillik prinsiplariga amal qilish;

O‘quvchilarning bilish faoliyatini faollashtirish va boshqarishni ta’minlaydigan vosita va usullarini aniqlashi, ulardan o‘z o‘rnida va samarali foydalanish yo‘llarini belgilash zarur.

Muammoli ta’lim texnologiyalari o‘quvchi faoliyatini faollashtirish va jadallashtirishga asoslangan. Muammoli ta’lim texnologiyasining asosi - insonning fikrlashi muammoli vaziyatni hal etishdan boshlanishi hamda uning muammolarni aniqlash, tadqiq etish va yechish qobiliyatiga ega ekanligidan kelib chiqadi.

Muammoli ta’lim o‘quvchilarning ijodiy tafakkuri va ijodiy qobiliyatlarini o‘stirishda jiddiy ahamiyatga ega.

Muammoli ta’limning bosh maqsadi - o‘quvchilarning o‘rganilayotgan mavzuga doir muammolarni to‘liq tushunib etishga yerishish va ularni hal yeta olishga o‘rgatishdan iborat. Muammoli ta’limni amaliyotda qo‘llashda asosiy masalalardan biri o‘rganilayotgan mavzu bilan bog‘liq muammoli vaziyat yaratishdan iborat.

Turli o‘quv fanlari bo‘yicha o‘qituvchilar darslar jarayonida muammoli vaziyatlar hosil qilishni va ularni yechish usullarini oldindan ko‘zda tutishlari kerak.

**Muammoli vaziyat yaratish usullari:**

- o‘qituvchi o‘quvchilarga dars mavzusi bilan bog‘liq ziddiyatli holatni tushuntiradi va uni yechish yo‘lini topishni taklif qiladi;
- bir masalaga doir turli nuqtai-nazarlarni bayon qiladi;
- hal etish uchun yetarli bo‘lmagan yoki ortiqcha ma’lumotlar bo‘lgan yoki savolning qo‘yilishi noto‘g‘ri bo‘lgan masalalarni yechishni taklif etadi va boshqalar.

**Muammoli vaziyatni hal etish darajalari:**

- -o‘qituvchi muammoni qo‘yadi va o‘zi yechadi;
- -o‘qituvchi muammoni qo‘yadi va uning yechimini o‘quvchilar bilan birgalikda topadi;
- -o‘quvchilarning o‘zlari muammoni qo‘yadilar va uning yechimini topadilar.

**Muammoli vaziyatni yechishda qo‘llaniladigan usullar:**

- muammoni turli nuqtai-nazardan o‘rganish, tahlil qilish;
- solishtirish, umumlashtirish;
- faktlarni aniqlash va qiyoslash;

- vaziyatga bog‘liq xulosalar chiqarish;
- o‘quvchilarning o‘zlari aniq savollar qo‘yishi va boshqalar.

Muammoli ta’lim texnologiyasi juda qadim zamonlardan shakllanib kelmoqda. Jumladan, qadimgi Gretsiyada muammoli savol-javoblar, qadimgi Hindiston va Xitoyda muammoli bahs-munozaralardan keng foydalanilgan. Muammoli ta’limni amerikalik psixolog, faylasuf va pedagog Dj. Dyui 1894 yilda Chikagoda tashkil etgan tajriba maktabida qo‘llagan. XX asrning 30 yillarida bu yo‘nalishda tadqiqotlar olib borildi. 70-80-yillarga kelib, amaliyotga keng joriy etildi.

Muammoli ta’limning asosiy g‘oyasi bilimlarni o‘quvchilarga tayyor holda berish emas, ular tomonidan dars mavzusiga tegishli muammolar bo‘yicha o‘quv-tadqiqotlarini bajarish asosida o‘zlashtirilishini ta’minlashdan iborat.

Bugungi kunda, muammoli o‘qitish deganda mashg‘ulotlarda pedagog tomonidan yaratiladigan muammoli vaziyatlar va ularni yechishga qaratilgan o‘quvchilarning faol mustaqil faoliyati tushuniladi. Buning natijasida o‘quvchilar kasbiy bilimlarga, ko‘nikmalarga, malakalarga ega bo‘ladilar va fikrlash qobiliyatlari rivojlanadi.

Muammoli o‘qitish, o‘qitishning shaxsga yo‘naltirilgan texnologiyalarga taalluqli, chunki bu yerda shaxs subekt sifatida qaraladi, muammoli vaziyatlarning maqsadi - pedagogik jarayonda o‘ziga xos qiziqish uyg‘otishdir.

**Muammoli o‘qitish, o‘qitishning eng tabiiy samarali usulidir, chunki ilmiy bilimlar mantig‘i o‘zida muammoli vaziyatlar mantiqini namoyish etadi.**

Muammoli vaziyatlar kiritilib, an’anaviy, bayon etish o‘quv materialining eng maqbul tarkibi hisoblanadi. Pedagog muammoli vaziyat yaratadi, o‘quvchini uni yechishga yo‘naltiradi, yechimni izlashni tashkil etadi. Muammoli o‘qitishni boshqarish pedagogik mahoratni talab etadi, chunki muammoli vaziyatning paydo bo‘lishi individual holat bo‘lib, tabaqalashtirilgan va individuallashtirilgan yondashuvni talab etadi.

**9-мавзу: Pedagogik texnologiyalarning asosiy tarkibiy qismlari, jarayonlari, turlari va natijalari.**

**Reja:**

1.Pedagogik texnologiyalarning asosiy tarkibiy qismlari.
2.Pedagogik texnologiyalarning asosiy jarayonlari.

3. Pedagogik texnologiyalarning turlari.

4. Pedagogik texnologiyalarning tajriba-sinov natijalari.

**Pedagogik texnologiya turlari va asosiy yo'nalishlari. Pedagogik texnologiya turlari**

| Pedagogik texnologiya turi | Maqsadi | Mohiyati | Mexanizmi |
|---|---|---|---|
| **Muammoli o'qitish** | O'quvchilarning bilish faolligi hamda ijodiy mustaqilligini oshirish | O'quvchilarga ularda bilimlar-ni o'zlashtirish borasidagi faollikni yuzaga keltirishga hizmat qiluvchi masalalarni maqsadga muvofiq, ketma-ket berib borish | Tadqiqotchilik metodlari, bilish faoliyatiga yo'naltirilgan masalalarni yechish |
| **Mujassam-lashtirilgan ta'lim** | Shaxsning xis qilish xususiyat-lariga maksimal darajada yaqin-lashtirilgan ta'lim jarayoni tuzilmasini yaratish | Mashg'ulotlarni bloklarga biriktirish hisobiga fanlarni chuqur o'zlashtirishga erishish | O'quvchilar ish qobiliyati dinamikasini hisobga oluvchi ta'lim metodlari |
| **Modul ta'limi** | Ta'lim mazmunini shaxsning individual ehti-yojlari va uning bazaviy tayyorgar-ligi darajasida muvofiqlashtirish | O'quvchilarning individual o'quv dasturi asosida mustaqil ishlashlari | Muammoli yonda-shuvni amalga oshirishning individual maromi |
| **Rivojlanti-** | Shaxs va uning | O'quv jarayonini | O'quvchilar |

| | | | |
|---|---|---|---|
| **ruvchi ta'lim** | qobiliyatlarini rivojlantirish | shaxsning ichki imkoniyatlari va ularni ro'yobga chiqarishga yo'naltirish | faoliyatini turli sohalarga yo'naltirish |
| **Differen-tsiallashgan ta'lim** | O'quvchilarning layoqati, qiziqish va qobiliyatlarini aniqlash uchun qulay sharoitlarni yaratish | Turli o'zlashtirish darajalari bo'yicha majburiy me'yor (standart) dan kam bo'lmagan hajmdagi dastur materialini o'zlashtirish | Individual ta'lim metodlari |
| **Faol o'qitish (majmuaviy ta'lim)** | O'quvchilar faolligini yuzaga keltirish | Bo'lajak kasbiy faoliyatning predmetli va ijtimoiy mazmuni-ni modellashtirish | Faol o'qitish metodlari |
| **O'yin texnologiya-lari** | Bilim, ko'nikma va malakalarni o'zlashtirishning shaxsiy faoliyat tavsifida bo'li-shini ta'minlash | O'quv axborotlarini qayta ishlash va o'zlashtirishga yo'naltirilgan mustaqil bilish faoliyati | O'quvchilarni ijodiy faoliyatga jalb etishning o'yin metodlari |

Shuningdek , hozirda pedagogik texnologiyalarning boshqa yo'nalishlari ham mavjud bo'lib, ulardan asosiylari **empirik, kognitiv, evristik, kreaktiv, inversion, integrativ, adaptiv, inklyuziv** pedagogik texnologiyalardan iborat. **Bu yo'nalishlar**ning asosiy xususiyatlari quyidagicha:

Empirik - (tajriba)

- Sezgi a'zolari orqali bilim olish. Bu texnologiyada asosiy e'tibor sezgi a'zolarining tabiiy rivojlanganlik imkoniyatlariga tayangan holda bilim berish va ularni yanada takomillashtirib borishga qaratiladi.

Kognitiv-(bilishga oid)

- Atrofdagi olam to’g’risidagi bilimlar doirasini kengaytirish texnologiyasi. U tabaqalash (tarkibiy qismlarga ajratib o’rganish) tafakkurini shakllantiradi, bilish ehtiyojlarini rivojlantiradi.

Evristik –(haqiqatni topish)

- Yo’naltiruvchi savollar berish yo’li bilan ta’lim berish tizimi. Topqirlik, faollikni rivojlantirishga xizmat qiluvchi, o’quv-izlanish ta’lim metodi. Optimallashgan (ko’p variantlardan eng ma’qulini, mosini tanlash) tafakkurni rivojlantiradi.

Kreaktiv –(ijodiy)

- Tadqiqot xarakteriga, xususiyatiga ega bo’lib, o’quvchilarda maqsadga yo’naltirilgan ijodiy tafakkurni jadal rivojlantiradi.

Inversion –(almashtirish)

- Axborotlarni turli tomondan o’rganish, o’rnini almashtirish xususiyatiga ega bo’lib, tafakkur (fikrlash) tizimini shakllantiradi.

Integrativ – (yaxlitlash)

- Axborotlarni tashkil qiluvchi cheksiz ko’p kichik qismlarning o’zaro ajralmas bog’liqligi ularning yaxlitligi, bir butunligi asosida yagona to’g’ri xulosani aniqlash.

Adaptiv – (moslashtirish)

- Axborotlarni o’rganish va ulardan foydalanish jarayonini o’rganish hamda

o’rgatish uchun qulaylashtirish, moslashtirish asosida kutilgan natijaga erishish.

Inklyuziv – (tenglik)

- O’qituvchi bilan o’quvchining o’zaro munosabatlarida tenglik asosida ta’lim tarbiya jarayonini tashkil qilish. Shu bilan birga, imkoniyati cheklangan o’quvchilarni sog’lom o’quvchilar bilan birgalikda o’qishni tashkil qilish pedagogik texnologiyasi.

Shunday qilib, avvaldan loyihalashtirilgan ta’lim-tarbiya jarayonining pedagogik texnologiyasi o’zida metodlar tizimi, ta’lim metodik usullari, maqsad, vositalari, o’qituvchi va o’quvchilarning birgalikda faoliyat ko’rsatish imkoniyatlari hamda yakuniy natijalariga erishish borasidagi majmuani mujassamlashtiradi.

**5. Pedagogik texnologiya tushunchasi bilan metodika orasidagi farq.**

Hozirgi kunda o’qituvchilar pedagogik texnologiya haqida aniq tushuncha va tasavvurlar birmuncha kamligi natijasida uni xususiy metodikalar bilan deyarlik teng hisoblash hollari uchraydi. Aslida esa ular orasida jiddiy farqlar mavjud bo’lib, quyida ular haqida qisqacha bayon qilinadi.

**Metod** - grekcha metodos so’zidan olingan bo’lib tatbiq qilaman, yo’naltiraman, ilmiy asoslayman degan ma’noni anglatsa, **metodika** - grekcha so’z bo’lib tushuntirishning yangi yo’lini topaman, qidiraman, izlayman degan ma’noni anglatadi.

Metodis olimlarimiz metodika fanini turlicha ta’riflaydilar biroq, ta’riflarning umumiy mohiyati bir-biriga yaqinligini e’tirof etish mumkin.

**Metodika** - biror ishni maqsadga muvofiq o’tkazish metodlari, yo’llari majmuasidir (1-ta’rif).

**Metodika** - o’quv jarayonini tashkil etish va o’tkazish bo’yicha tavsiyalar majmuasidan iborat (2-ta’rif).

**Metodika -** fani ma’lum o’quv fanlarini o’qitish qonuniyatlarini tadqiq qiladi. Masalan, **tillar** metodikasi, **arfmetika** metodikasi kabi alohida metodikalarga ajraladi. (3-ta’rif).

**Metodika** - o’qituvchining kasbiy faoliyatini yangilovchi va ta’limda yakuniy

natijani kafolatlaydigan tadbirlar majmuasi, yig'indisidir. O'quv fanlarini o'qitish qonuniyatlarini tadqiq qiladi (4-ta'rif).

Metodikaning pedagogik texnologiyadan farqini tushunish va amalda har ikkisidan unumli foydalana bilish talab qilinadi. **Ular orasidagi ayrim farqlar quyidagicha**:

O'qitish metodi uch xil. 1. An'anaviy metod (sakkiz qismga bo'linadi). 2. No'ananaviy metod (o'n qismga bo'linadi). 3. Umumiy o'qitish metodi (olti qismga bo'linadi). Jami 24 ta o'qitish metodikasi bor.

Ushbu farqlar haqidagi masala yuzasidan quyidagi fikrni eslash mumkin. «Aslida zamonaviy ta'lim metodlari muqaddas qiziquvchanlikni hozircha batamom bo'g'ib tashlamagani deyarli mo'jiza, chunki bu nozik nihol (ya'ni qiziquvchanlik) rag'batlantirish yo'li bilan bir qatorda, eng avvalo, erkinlikni talab qiladi, bo'lmasa, u shubxasiz, mavh bo'ladi» (A.Eynshteyn).

Bu yerda ta'lim metodlari qiziquvchanlikka yetarlicha erkinlik bera olmasligi nazarda tutilmoqda. Pedagogik texnologiya esa bolaning qiziquvchanligini har tomonlama rivojlantirishga qaratilgan.

Pedagogik texnologiya tushunchasi xususiy fanlar va mahalliy darajalardagi o'qitish metodikalari tushunchasi bilan mos keladigan hollar xususiy darajadagi pedagogik texnologiyalarga tegishli. Ular orasida faqat asosiy e'tiborni nimaga qaratilishida farqlar mavjud.

**Texnologiyalarda** ko'proq protsessual, miqdoriy va hisob-kitob komponentlari ifodalansa, **metodikalarda** maqsad, mazmun, sifat va variantli yo'naltiruvchi tomonlari ko'proq ifodalanadi. Texnologiya metodikalardan o'zining qayta tiklanuvchanligi, natijalarning turg'unligi, ko'plab «agar...»lar (agar o'qituvchi iste'dodli bo'lsa, agar bolalar qobiliyatli bo'lsa, yaxshi ota-onalar bo'lsa... kabilar) yo'qligi bilan farq qiladi.

Ya'ni texnologiya tegishli tayyorgarlikka ega bo'lgan hamma mutaxasislar tomonidan qayta tiklash va qo'llash mumkinligi bilan juda ham individual bo'lgan metoddan farq qiladi.

**Metod**-biror harakatni amalga oshirish **yo'li, usuli yoki ko'rinishidan** iborat.

Bunda harakatni amalga oshirish **yo'li** deb, bajarilishi talab qilinayotgan faoliyat uchun qo'llash mumkin bo'lgan bir nechta yo'llardan oldindan ko'zda tutilgan maqsadga muvofiq ravishda tanlangan yo'lni aytiladi. Masalan, savod o'rgatish yo'llari: oilada o'rgatish, maktabda o'rgatish, bog'chada o'rgatish, o'qituvchi yordamida o'rgatish, kitoblar, kompyuter, ko'rgazma qurollar va boshqalar

vositasida o'rgatish. Shunga o'xshash sanoqni, arifmetik amallarni o'rgatishda ham yuqoridagiga o'xshash yo'llardan foydalanish mumkin. Shu yo'llardan foydalanib harakatni amalga oshirishda turli usullar qo'llaniladi. **Usul - nima?** Bu biror narsani, hodisani, jarayonni amalga oshirish tartibi.

Pedagogik texnologiya o'quv jarayoni, ya'ni o'qituvchining, o'quvchining faoliyati bilan uning tarkibi, vositalari, usullari va shakllari bilan eng ko'p darajada bog'langanligi bilan ajralib turadi.

**Tayanch so'z va iboralar**: Redogogik texnologiya, ta'lim jarayoni, sub'ekti, ob'ekti, bilimni to'liq o'zlashtirish, tamoyil, dars qismlari, modulli ta'lim, muammoli ta'lim.

**Nazorat uchun savol va topshiriqlar:**

1.YuNESKO tomonidan pedagogik texnologiyaga qanday ta'rif berilgan?

2.Texnologiya so'zi ta'lim-tarbiya jarayonida qanday ma'no anglatadi?

3. Dars jarayonidagi faol shaxs kim?

4. Ilg'or pedagogik texnologiyning asosiy parametrlarini sanang.

5. Innovatsion metodlar xususida nima deya olasiz?

**Foydalanilgan adabiyotlar**

1. J.Yo'ldoshev, S.Usmonov, "Pedagogik texnologiya asoslari", T., 2004.

2. J.Yo'ldoshev, "Ta'lim yangilanish yo'lida", T., 2000.

3. Ptiyukov V.Yu., "Osnov pedagogicheskoy texnologi", M., 1999.

4. www.tests-tests.com

5.www.psiholog1.ru

6.uzedu.uz

7.www: ziyonet.uz

**10- mavzu: Innovatsion pedagogika predmeti amaida tatbiq qilinadigan vazifasi**

Reja:

1. Innovatsion pedagogika.
2. Innovatsion pedagogikaning boshqa fanlar bilan aloqasi.
3. Innovatsion pedagogikaning rivojlanishi va umumiy g'oyasi.
4. Innovatsion potentsial, innovatsion muhit, yangi jarayon.
5. Tarbiya tizimida innovatsiyalar.

O'qituvchii pedagogik faoliyatida psixologik to'siqlar. Lug‘aviy jihatdan “innovatsiya” tushunchasi ingliz tilidan tarjima qilinganda (“innovation”) “yangilik kiritish” degan ma’noni anglatadi. “Innovatsiya” tushunchasi mazmunan aniq holatni ifodalaydi.

Innovatsiya-muayyan tizimning ichki tuzilishini o‘zgartirishga qaratilgan faoliyat

O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasida ko‘rsatilishicha, innovatsiya quyidagicha mazmun va tushunchalarga ega:

“Innovatsiya (ingl. “innovationas” – kiritilgan yangilik, ixtiro)

1) texnika va texnologiya avlodlarini almashtirishni ta’minlash uchun iqtisodiyotga sarflangan mablag‘lar;

2) ilmiy-texnika yutuqlari va ilg‘or tajribalarga asoslangaan texnika, texnologiya, boshqarish va mehnatni tashkil etish kabi sohalardagi yangiliklar, shuningdek, ularning turli sohalar va faoliyat doiralarida qo‘llanishi”.

A.I.Prigojinning fikriga ko‘ra, innovatsiya maqsadga muvofiq ravishda muayyan ijtimoiy birlik – tashkilot, aholi, jamiyat, guruhga nisbatan munosabatga yangicha yondashish, bu munosabatni bir qadar turg‘un elementlar bilan boyitib borish tushunilishi lozim. Bu o‘rinda anglanadiki, muallifning qarashlari bevosita ijtimoiy munosabatlar, ularga nisbatan innovatsion yondashish mohiyatini ifodalaydi. Shundan kelib chiqqan holda har bir shaxs fuqaro, mutaxassis, rahbar, xodim, qolaversa, turli ijtimoiy munosabatlar jarayonining ishtirokchisi sifatida o‘ziga xos innovator faoliyatni tashkil etadi.

Amerikalik psixolog E.Rodjers o‘z tadqiqotlarida innovatsion xarakterga ega ijtimoiy munosabatlarning ijtimoiy-psixologik jihatlari, ijtimoiy munosabatlarga yangilik kiritish, bu jarayonda ishtirok etuvchi shaxslarning

toifalari, ularning yangilikka bo‘lgan munosabatlari, yangilikni qabul qilish, mohiyatini anglashga bo‘lgan tayyorlik darajasi hamda muayyan shaxslar toifalari o‘rtasidagi innovatsion xarakterga ega ijtimoiy munosabatlarning tasnifi masalalarini o‘rgangan.

Innovatsion ta’lim(ingl. “innovation” – yangilik kiritish, ixtiro) – ta’lim oluvchida yangi g‘oya, meyor, qoidalarni yaratish, o‘zga shaxslar tomonidan yaratilgan ilg‘or g‘oyalar, meyor, qoidalarni tabiiy qabul qilishga oid sifatlar, malakalarni shakllantirish imkoniyatini yaratadigan ta’lim.

Innovatsion ta’lim jarayonida qo‘llaniladigan texnologiyalar innovatsion ta’lim texnologiyalari yoki ta’lim innovatsiyalari deb nomlanadi.

Ta’lim innovatsiyalari-ta’lim sohasi yoki o‘quv jarayonida mavjud muammoni yangicha yondashuv asosida yechish maqsadida qo‘llanilib, avvalgidan ancha samarali natijani kafolatlay oladigan shakl, metod va texnologiyalar.

Ta’lim innovatsiyalari “innovatsion ta’lim” deb ham nomlanadi. “Innovatsion ta’lim” tushunchasi birinchi bor 1979 yilda “Rim klubi”da qo‘llanilgan.

Ta’lim innovatsiyalari bir necha turga ajratiladi.

Asosiy turlari

1.Faoliyat yo‘nalishiga ko‘ra

2.Kiritilgan o‘zgarishlarning tavsifiga ko‘ra

3.O‘zgarishlarning ko‘lamiga ko‘ra

4.Kelib chiqish manbaiga ko‘ra

5.Pedagogik jarayonda qo‘llaniladigan innovatsiyalar

6.Ta’lim tizimini boshqarishda qo‘llaniladigan innovatsiyalar

7.Radikal innovatsiyalar

8.Modifikatsiyalangan innovatsiyalar

9.Kombinatsiyalangan innovatsiyalar

10.Tarmoq (lokal) innovatsiyalari

11.Tizim innovatsiyalari

12.Modul innovatsiyalari

13.Jamoa tomonidan bevosita yaratilgan innovatsiyalar

14. O‘zlashtirilgan innovatsiyalar

Innovatsiyalar turli ko‘rinishga ega. Quyidagilar innovatsiyalarning asosiy **ko‘rinishlari** sanaladi:

- yangi g‘oyalar;
- tizim yoki faoliyat yo‘nalishini o‘zgatirishga qaratilgan aniq maqsadlar;
- noan’anaviy yondashuvlar;
- odatiy bo‘lmagan tashabbuslar;
- ilg‘or ish uslublari

Ta’lim tizimida yoki o‘quv faoliyatida innovatsiyalarni qo‘llashda sarflangan mablag‘ va kuchdan imkon qadar eng yuqori natijani olish maqsadi ko‘zlanadi. Innovatsiyalarning har qanday yangilikdan farqi shundaki, u boshqarish va nazorat qilishga imkon beradigan o‘zgaruvchan mexanizmga ega bo‘lishi zarur.

Barcha sohalarda bo‘lgani kabi ta’limda ham “novatsiya”, “innovatsiya” hamda ularning mohiyatini ifodalovchi faoliyat to‘g‘risida so‘z yuritiladi. Agar faoliyat qisqa muddatli, yaxlit tizim xususiyatiga ega bo‘lib, faqatgina tizimdagi ayrim elementlarni o‘zgartirishga xizmat qilsa u novatsiya (yangilanish**)** deb yuritiladi.

Bordi-yu, faoliyat ma’lum konseptual yondashuv asosida amalga oshirilib, uning natijasi muayyan tizimning rivojlanishiga yoki uni tubdan o‘zgartirishga xizmat qilsa, u innovatsiya (yangilik kiritish)deb ataladi

Ilmiy adabiyotlarda “novatsiya” (yangilanish, yangilik) hamda “innovatsiya” (yangilik kiritish) tushunchalarining bir-biridan farqlanishiga alohida e’tibor qaratiladi. Misol uchun, V.I. Zagvyazinskiyning e’tirof etishicha, “yangi”, “yangilik” tushunchasi nafaqat muayyan g‘oyani, balki hali amaliyotda foydalanilmagan yondashuv, metod hamda texnologiyalarni ifodalaydi. Ammo bunda jarayon elementlari yaxlit yoki alohida olingan elementlaran iborat bo‘lib, o‘zgarib turuvchi sharoit va vaziyatda ta’lim va tarbiya vazifalarini samarali hal etish g‘oyalarini o‘zida aks ettiradi.

Darhaqiqat, yangilik – vosita sanalib, u aksariyat holatlarda yangi metod, metodika, texnologiya va b. ko‘rinishida namoyon bo‘ladi.
Mohiyatiga ko‘ra novatsiya va innovatsiya o‘rtasida muayyan farqlar mavjud. Ular quyidagilardir:

**Innovatsiya**

1) tizimli, yaxlit va davomli bo‘ladi;

2) ma’lum amaliyotda yangi faoliyat tizimini loyihalaydi;

3) subyektlarning faoliyati to‘la yangilanadi;

4) yangi texnologiyalar yaratiladi;

5) faoliyatda yangi sifat natijalariga erishiladi;

6) amaliyotning o‘zi ham yangilanadi

**Novatsiya**

1)amaldagi nazariya doirasida qo ‘llaniladi.

2) ko ‘lam va vaqt boyicha chegaralanadi;

3) metodlar yangilanadi;

4)natija avvalgi tizimni takomillashtiradi.

Ta’lim jarayoni innovatsiya orqali yuksak saviyada tashkil etilsa bo‘lajak mutaxassislarda intellektual faollik namoyon bo‘ladi. Intellektual faolllik esa bo‘lajak mutaxassisning har tomonlama tayyorgarlik ko‘rishiga, bo‘lajak faoliyatning ustasi bo‘lib yetishishiga yordam beradi. Intellekt (lotincha intellectus – ya’ni aql, idrok, zehn) degan ma’noni anglatadi. Bu degani kishining bitta bilish faoliyati, tor ma’noda tafakkuri, fikr yuritish jarayonini shakllantirish demakdir.

Zamonaviy pedagogikaning vazifasi o‘quvchilar inttellektual faolligini oshirishda ta’lim jarayoniga yangiliklarni qo‘llashni talab etmoqda. Chunki bugungi kunda ta’lim jarayonida yangiliklarni joriy etish yaxshi samara bermoqda.

Talim sohasidagi yangiliklar, ta’limga yangilik va o‘zgartirish kiritish, mavjudlarini yaxshilash va takomillashtirishni taqozo etadi. Shuning uchun har doim ham ta’lim jarayonida qandaydir o‘zgarishlar sodir bo‘ladi.

Hozirgi davrni jamiyatning barcha sohalari kabi ta’lim sohasida ham katta va tezkor o‘zgarishlar davri deb atash mumkin. Yangiliklarning turli ko‘rinishlari mavjud. Yangiliklarning turlari asosan metodologik sabablarga ko‘ra ajratiladi.

Ta’lim sohalari bir-biri bilan shu darajada uzviy bog‘liqki, bir sohadagi yangiliklar, istalgan boshqa sohada yangiliklarni vujudga keltiradi. Shuning uchun ta’limning ayrim komponentlarida yangiliklarning joriy etilishi, qo‘llangan yangiliklarning umumiy samaradorligini aniqlashni talab etadi.

Ta’lim jarayoni yangiliklarini tasniflashda innovatsiya inson faoliyatining muhim ko‘rinishlaridan biri ekanligini hisobga olish lozim. Bu faoliyat jiddiy chegaralar va bo‘linishlardan holi. Yangilikka ta’lim jarayonining hamma tushunchalari va aspektlarini kiritish va ularni bir tushunchaga mujassamlashtirish qiyin. Yangilik ta’lim mazmunini tashkil qilish jarayonida uning metodologiya va texnologiyasigasiga ta’sir qiladi. Lekin shunday bo‘lsada ta’lim jarayonida qo‘llaniladigan yangilikni tasniflash zarur.

Bizning fikrimizcha birinchi asosiy mezon bu yangilikning qanday muhitda joriy qilishga bog‘liq. Ikkinchi mezon yangilikni qo‘llashning yo‘llari, uchinchisi

yangilik joriy qilish tadbirlarining kengligi va chuqurligi, to‘rtinchi mezon – yangilikning vujudga kelishiga sabab bo‘lgan asos.

Ta’limning qaysi sohasiga yangiliklarning kiritilishi va qo‘llanilishiga qarab, birinchi mezonga quyidagi yangiliklarni kiritish mumkin: 1) ta’lim mazmunida, 2) texnologiyasida, 3) tashkil qilishda, 4) boshqarish tizimida.

Yangiliklarni joriy qilishning yo‘llaridan qat’iy nazar ularni quyidagilarga ajratish mumkin:

a) tizimli, rejali, oldindan o‘ylangan;

b)kutilmagan, o‘z-o‘zidan paydo bo‘lgan, to‘satdan paydo bo‘lgan. Yangiliklarni joriy qilish tadbirlarining kengligi va chuqurligidan qat’iy nazar ularning quyidagi turlarini sanab o‘tish mumkin:

a) ommaviy, katta, global, tizimli, keskin, asosli, muhim, jiddiy, chuqur va boshqalar;

b) qisman, kichik, mayda.

Yangilikning paydo bo‘lish xususiyatiga qarab ularni quyidagicha birlashtirish mumkin: a) tashqi va b) ichki.

Yuqorida ko‘rsatilgan xususiyatlar ta’lim oluvchi manfaatdorligining yuksak darajasini belgilaydi, natijada ta’lim jarayonining samaradorligi ortadi.

Faoliyatni innovatsiyalar asosida tashkil eta oladigan pedagogik kadrlar tayyorlash har doim pedagogika fanining diqqat markazida turgan muhim masalalardan bo‘lgan.

O‘zbek xalqining yosh avlodni hayotga tayyorlashda ko‘p asrlar davomida qo‘llagan usul va vositalari, tadbir shakllari, o‘ziga xos urf-odatlari va an’analari, ta’lim-tarbiya haqidagi g‘oyalari va hayotiy tajribasi mavjud. Bu meros o‘tmishda ko‘plab alloma-yu donishmandlar yetishib chiqishiga asos bo‘lgan. Hozirgi kunda bu merosdan ijodiy foydalanish katta ahamiyatga ega.

Mutafakkirlar merosini o‘rganish natijasida insonning shakllanishida ilmning ahamiyati katta ekanligining guvohi bo‘ldik. Ularda bilim shaxs taraqqiyotining asosiy manbai ekanligi asoslab berilgan. Shuning uchun ham ajdodlarimiz bilim o‘rgatuvchi ustozga katta ahamiyat berganlar. Bu pedagogik

faoliyatga bo‘lgan asosiy talablardan biri edi. Chunki ilm bor joyda rivojlanish, taraqqiyot bo‘ladi, yangiliklarni joriy etishga keng yo‘lochiladi.

Sharq uyg‘onish davrining buyuk mutafakkiri Abu Nasr Forobiyaqlli, dono va o‘tkir fikrlaydigan kishilar to‘g‘risida shunday deydi: «Aqlli deb shunday kishiga aytiladiki, ular fazilatli, o‘tkir mulohazali, foydali ishlarga berilgan, zarur narsalarni kashf va ixtiro etishda zo‘r iste’molga ega; yomon ishlardan o‘zini chetda olib yuradilar. Bunday kishilarni oqil deydilar»[1]. Uning fikricha, «Ta’lim so‘z va o‘rgatish bilanginabo‘ladi. Tarbiya esa amaliy ish va tajriba bilan o‘rganishdir,ya’ni shu xalq, shu millatning amaliy malakalaridan iborat bo‘lgan ish-harakatga, kasb-hunarga berilgan bo‘lishidir. Agar ularish, kasb-hunarga berilgan bo‘lsalar, kasb-hunarga qiziqsalar, shu qiziqish ularni butunlay kasb-hunarga jalb etsa, demak,ular kasb-hunarning chinakam oshig‘i bo‘ladilar»[2].

Yusuf Xos Hojib bolaga bilim berib hunar o‘rgatishni ularning yoshligidan boshlash kerakligini ta’kidlaydi.[3]

Bolalarga kasb-hunar va tadbirkorlikni yoshligidan boshlab o‘rgatish masalasi Kaykovusning “Qobusnoma” asarida ham ko‘tarilgan. “Ey farzand, ogoh bo‘lki, hunarsiz kishi hamisha foydasizbo‘lur va hech kimga naf’ yetkurmas. Bilursanki, xori mug‘ilonning (tikanli buta) tani bordur ammo soyasi yo‘qdur. Hunarsiz kishi ham xori mug‘ilon yanglig‘ na o‘ziga va na o‘zgaga foyda berur”[4].

O‘zbek xalqining ulug‘ allomalaridan biri Abu Rayhon Beruniy asarlarida yosh avlodga bilim berishning turli yo‘llari va vositalari haqida tushunchalar berib, ularni mustaqil fikrlaydigan, yangilik yarata oladigan qilib tarbiyalash xususida to‘xtalib o‘tgan. «Qadimiy xalqlardan qolgan yodgorliklar» asarida Beruniy sxolastik metodlardan voz kechish, dars samaradorligini oshirish yo‘llarini izlash, bolalarning xotirasini rivojlantirish, fikrlashga o‘rgatishni ta’kidlab o‘tgan. “Maqsad gapni cho‘zish emas, balki o‘quvchini zeriktirmaslik, chunki, doimo birxil narsaga qaray berish malollik va sabrsizlikka olib keladi.

---

[1]Forobiy. «Fozil odamlar shahri». – T.: Abdulla Qodiriy nomidagi Xalq merosi. 1993. 182-b.

[2]Forobiy. «Fozil odamlar shahri». – T.: Abdulla Qodiriy nomidagi Xalq merosi. 1993. 182-b.

[3]O‘rtaOsiyopedagogikfikrtaraqqiyotidanlavhalar. – T.: 1996. 159-b.

[4]Kaykovus. Qobusnoma. – T.: Istiqlol. 1994. 26- b.

O‘quvchi fandan-fanga o‘tib tursa, turli bog‘larda yurganga o‘xshaydi. Birini ko‘rib ulgurmasdan boshqasi boshlanadi va u kishi har bir narsada o‘ziga yarasha lazzat bor deyilganidek ularni ko‘rishga qiziqadi va ko‘zdan kechirishni istaydi. Bir xilnarsa charchatadi, xotiraga malol keltiradi»[5].

Buyuk sarkarda Amir Temur o‘zining o‘gitlarida har bir ishni boshlaganda butun diqqat, zehn va bor kuchni shu ishga qaratish lozimligini ta’kidlagan: «Azmu jazm bilan ish tutdim. Bironishni qilishga qasd qilgan bo‘lsam, butun zehnim, vujudim bilanbog‘lanib, bitirmagunimcha undan qo‘limni tortmadim».[6]

Amir Temur o‘z davrida qo‘l ostidagilarni tadbirkor, ishbilarmon, mamlakat obodonchiligi, el-yurt osoyishtaligi uchun hamfikr, hamsuhbat, yelkadosh bo‘lishlarini talab qilgan.[7]

Ulug‘ mutafakkir va buyuk shoir Alisher Navoiy o‘zining “Mahbub ul-qulub” asarida maktab o‘qituvchilari mehnatiga baho beradiva uning mehnati ancha mashaqqat talab etishini tushuntiradi.[8]

Markaziy Osiyo allomalari merosida ilm va uni egallashdagi mahorat masalalari keng miqyosda talqin etiladi. Bunda albattailm o‘rgatuvchining muhim o‘rni ta’kidlanadi.

Hozirgi davrda ham o‘quvchilarni bilim, ko‘nikma va malakalarbilan qurollantirishda o‘qituvchining o‘rni beqiyos. O‘qituvchining muntazam izlanishi, bilimni o‘rgatishning yangi va samarali yo‘llarini kashf etishi o‘quvchilar bilimlarni yuqori darajada o‘zlashtirishlari, muhim amaliy ko‘nikma va malakalar egallashlariningomili bo‘la oladi.

O‘qituvchi o‘z faoliyatida yangiliklarni muntazam joriy qilishi lozim. Ta’lim jarayonida yangiliklarni joriy qilinishi quyidagi holatlarda yuqori samara beradi:

---

[5]Beruniy. QadimiyxalqlardanqolganyodgorliklarTanlanganasarlar. 1-jild. – Toshkent: 1968. 106-107 b.
[6]AmirTemuro‘gitlari. – T.: Navro‘z. 1997.  16- b.
[7]AmirTemuro‘gitlari. – T.: Navro‘z. 1997.  16, 39-40 b.

[16]Navoiy.  “Mahbubul-qulub” (Qalblarsevgisi) – T .: G‘afurG‘ulom. 1983. 28-29 b.

1) ***shaxsiy qiziqtiruvchi omillarga asoslangan bo'lganda.*** Talabalar o'quv jarayoni uchun mas'uliyatli bo'ladalar, chunki ular o'z ehtiyojlarini yaxshi biladilar.

2) ***birinchi navbatdagi ehtiyojlarga javob berganda.*** Ta'lim talabalarning birinchi navbatdagi ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda o'qishga intilish yuqori darajada bo'ladi.

3) o'quvchilarning jalb etilishini ta'minlanganda.

O'quv jarayonida sustkashlik bilan emas faol ishtirok etish.

4) ***mustaqil fikrga asoslanganda.***

O'quv jarayoni mustaqil fikrga asoslanganda, u eng katta samara keltiradi; talabalar bir-birlaridan o'rganadilar.

***5) teskari aloqani ta'minlaganda.***

Samarali bilim berilishi uchun yo'naltiruvchi va qo'llab quvvatlovchi teskari aloqa mavjud bo'lishi talab etiladi.

***7) o'rganuvchilarga nisbatan hurmat namoyish etilganda.***

Murabbiy hamda o'quvchi o'rtasida o'zaro hurmat va ishonch mavjud bo'lishi o'quv jarayoniga yordam beradi.

***8) do'stona muhit yaratilganda.***

Do'stona kayfiyatda bo'lgan talaba cho'chib o'tirgan, hayajonlanayotgan, badjahl talabaga nisbatan materialni ancha osonroq o'zlashtirib oladi.

***9) qulay vaziyat sodir bo'lganda.***

Demak, o'quvchida o'zlashtirishga nisbatan motiv hosil bo'lsa, o'quv materialini tez va oson o'zlashtiradi.

Xulosa qilib aytganda, o'z faoliyatini innovatsiyalar asosida tashkil eta oladigan o'qituvchilarning ishlari ko'p qirrali, murakkab masaladir. Ushbu masalani samarali hal qilish uchun o'qituvchilarning innovatsion faoliyatga tayyorgarligining pedagogik asoslarini yaratish lozim.

## ADABIYOTLAR

1. I.A.Karimov "Yuksak ma`naviyat – yengilmas kuch". T-Ma`naviyat-2008 y.
2. I.A.Karimov "Barkamol avlod orzusi" T-1999 y.

3. Azizxodjayeva N. “Pedagogik texnologiya va mahorat”., Toshkent., TDPU., 2006 y.
4. R. A.Mavlonova, M.Arabova, G` Saloxiddinova, M.Shirinov “Pedagogik texnologiya” ma`ruza matn 2009 y.
5. J.G` Yo`ldoshev “Pedagogik texnologiya asoslari” T., O`qituvchi, 2004.

## 11-мавзу: Pedagogik texnologiyalar asosida tanqidiy tafakkurni shakllantirish va rivojlantirish metodlari

**Режа:**

1.Tanqidiy fikrlash asoslari.

2 Tanqidiy fikrlashni shakllantirish va rivojlantirishning faol metodlari.

3.Tanqidiy mushohada metodi.

4.Tanqidiy mushohada qilishni tashkil etish uchun qo'llanadigan usullar

Tayanch tushunchalar: tanqidiy fikrlash, fikrlash, shakllantirish, rivojlantirish

Birinchi Prezidentimiz Islom Karimov yosh avlodning kamol topishida aqliy tarbiya va mustaqil fikrlash ko‘nikmalarini shakllantirishning o‘rni nihoyatda beqiyos ekanligini ta’kidlab, shunday deydi: «Har bir insonning, ayniqsa, endigina hayotga qadam qo‘yib kelayotgan yoshlarning ongiga shunday fikrni singdirish kerakki, ular o‘rtaga qo‘yilgan maqsadlarga erishish o‘zlariga bog‘liq ekanligini, ya’ni bu narsa ularning sobitqadam g‘ayrat - shijoatiga, to‘la - to‘kis fidokorligiga va cheksiz mehnatsevarligiga bog‘liq ekanligini anglab yetishlari kerak. Xuddi shu narsa davlatimiz va xalqimiz ravnaq topishining asosiy shartidir" [3, 98]. Darhaqiqat, ijtimoiy ong, aql-zakovat, borliqni idrok etish, ilm cho‘qqisiga intilish hissi insonni fikr tarbiyasining samarali yo‘llari, shakl va metodlarini takomillashtirishga undaydiki, bu, o‘z navbatida, yosh avlodda tanqidiy fikrlash ko‘nikmalarini shakllantirishning ta’sirchan mexanizmlarini topishga zamin yaratadi. Pedagogik, psixologik, sotsiologik adabiyotlar tahlili tanqidiy fikrlashni shakllantirishga doir turli qarashlar mavjudligini ko‘rsatadi.

Jadidchilik harakatining yirik namoyondalaridan biri, tilshunos va adabiyotshunos olim va ma’rifatparvar Abdurauf Abdurahim o‘g‘li Fitrat (1886-1938) 1929 yilda yaratgan “Tarbiyayi avlod” (“Avlod tarbiyasi” va “Tarbiyayi fikriya” (Fikr tarbiyasi”) asarlarida “sog‘lom fikrlilik” insonni saodatga boshlashini uqtiradi. U “Tarbiyayi fikriya” asarida shunday yozadi: “Fikr va aql insonni kamolotga yetkazadi va o‘qish, o‘rganish qobiliyati uni saodatmand qiladi. Insonning komil aqli yaxshilik muhokamasidir”[22, 36]. “Muhokama nima?”,-deya davom ettiradi fikrini olim. “Muhokama ikki qismga bo‘linadi: birinchisi- kazi (y) yathoyi ma’lum ( ma’lum bo‘lgan hukm, voqea va hodisalar), ikkinchisi Kazi (y) yathoy machhul (noma’lum voqea va hodisalar)dan xulosalar chiqarilishidir. Masalan, “butun insonlar o‘rtasida mehribonlik va muhabbat lozimdir” ( «Dar miyoni afrodi bashariyat mehriboni va muhabbat darkorast”), ya’ni bu kazi(y)yati machhul (noma’lum hukm) bo‘lib, bunga ikki ma’lum hukm lozimdirki, birinchisi “butun insoniyat bir-birlari bilan barobardirlar” («Afrodi bashar barodari yakdigarand”), ikkinchisi esa “barodarlar orasida muhabbat va mehribonlik lozimdir” (“Dar miyoni barodaran muhabbat va mehriboni darkorast”). Demak, muhokama uch qismdan tashkil topib, avvalgi hukm avvalgisini to‘ldiradi va “kaz(y)yati ma’lum” deb ataladi. Shunday qilib, inson kamolotga yetadi” [22, 54]. Ko‘rib turganimizdek, Abdurauf Fitrat XX asrning boshidayoq o‘quvchilarda analitik fikrlashga undash lozimligi, “ . . . bolalarni Isobot sohiblari bo‘lishlariga, bir voqea va hodisa ustidan fikr yuritganlarida ularga to‘g‘ri, bexato ma’lumotlar berish, asossiz muhokama tarbiyaga ziyon yetkazishi mumkin...”[22,59]ligining tarafdori bo‘lgan.

Insonning barcha mavjudotlardan yuksak jihati - bu uning fikrlash qobiliyatidir. Zotan, insonlar bir-birlari bilan o‘ziga xos o‘y-hayollari, mushohadalari, fikr yuritishlari, mustaqil fikrlash qobiliyatlari bilan ajralib turadi. Shuning uchun ham inson fikrini tarbiya qilish muhim sanaladi. Abdulla Avloniyning asarlarida fikr tarbiyasiga oid quyidagicha talqin berilgan: «Fikr tarbiyasi eng kerakli, ko‘p zamonlardan beri taqdir qilinub kelgan, muallimlarning diqqatlariga suyalgan, vijdonlariga yuklangan muqaddas bir vazifadur. Fikr insonning sharofatlik,

g‘ayratlik bo‘lishiga sabab bo‘ladur. Bu tarbiya muallimlarning yordamiga so‘ng daraja muhtojdurki, fikrning quvvati, ziynati, kengligi muallimning tarbiyasiga bog‘liqdir»[10]. Darhaqiqat, fikr ustida buyuk daholar so‘z yuritishib, muayyan ta’limotlar yaratishgan. Fikrlashda qalb, ong va sezgilarning uyg‘unligi haqida Arastu ta’limoti, fikrning ezgulikka yo‘naltirilishi haqida Abu Nasr Farobiy, insonparvarlikka yo‘naltirilishi haqida – Alisher Navoiy, fikrning mantiqiyligi haqida – Umar Hayyom, fikrlashda signal tizimi haqida I.P.Pavlov, fikrning bosqichma- bosqich shakllanishi nazariyasini yaratgan P.Y.Galperin, fikrlashda umumlashtirish haqida –R. Davidov ta’limotlari mavjud.

Prezidentimiz Islom Karimov «Tafakkur» jurnali bosh muharriri savollariga bergan javoblarida: «Bizga me’ros bo‘lib qolgan ta’lim-tarbiya tizimining ma’lum bir ma’qul jihatlari bilan bir qatorda uning eng nomaqbul tomoni shundan iboratki, o‘quv jarayonida o‘quvchi va talabalarni mustaqil va erkin fikrlashga yo‘l qo‘ymaslik. Agar bolalar erkin fikrlashni o‘rganmasa, berilgan bilimning samarasi past bo‘lishi muqarrar. Albatta, bilim kerak. Ammo bilim o‘z yo‘liga. Mustaqil fikrlash ham katta bir boylikdir»,[8]-deb takidlagan edilar.

Fikrlash-murakkab psixologik jarayon bo‘lib, o‘quv materiali xususiyatlari to‘g‘risida o‘ylash, narsa-hodisalarni o‘zaro taqqoslab, ularning xususiyatlarini ajratish, quyilgan topshiriq, muammolarni yechish faoliyati. Tushunilgan o‘quv materialining o‘quvchi tomonidan tahlil etilishi o‘zlashtirilgan bilimlarning yanada yuqori darajaga ko‘tarilishini ta’minlaydi. Mustaqil ish, o‘quv topshiriqlarini ta’limga tatbiq etish, mummoli vaziyatlarni vujudga keltirish fikrlash jarayonining samaradorligini oshiradi.

Bugungi kunda tanqidiy fikrlash – XXI asrda ijtimoiy-siyosiy sohada sodir bo‘layotgan hodisalarni yanada chuqurroq anglashga yordam beruvchi ko‘nikma sifatida qaralmoqda. Tanqidiy fikrlashga o‘rgatish O‘zbekiston Respublikasining «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi»da bayon etilgan yuqori kasbiy madaniyatli, ijodiy va ijtimoiy faol hayotda o‘z o‘rnini topa oladigan malakali kadrlarni shakllantirish vazifasini hal qilishga ham mos keladi.

Tanqidiy fikrlashning asosiy belgilari rus olimi I. Resnik fikricha quyidagilardan iborat: 1)O‘quvchilar o‘z bilimlarini muayyan masalalarni yechishda tatbiq eta olsalargina ularda bilim va ijodiy fikrlash rivojlanadi; 2) Tanqidiy fikrlash ta’lim jarayoniga jo‘shqinlik baxsh etadi, mashg‘ulotlarni o‘qituvchi va o‘quvchi uchun o‘zaro hamkorlik faoliyatiga aylantiradi [132, 46]. Shu nuqtai nazardan olganda, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida tanqidiy fikrlashni shakllantirish ularda bilim olishga ishtiyoqni kuchaytiradi hamda ta’lim jarayonida “o‘qituvchi, o‘quvchilar va o‘quv materiali o‘rtasidagi o‘zaro didaktik ta’sirni yuzaga keltiradi” [ 132,47].

Nemis olimi K. Rossning: «O‘quvchilarning oldin egallagan bilimlari va tajribalariga asoslangan o‘qish mustahkam bo‘ladi. Bularning hammasi o‘quvchiga yangi axborotni bilganlari bilan bog‘lash imkoniyatini beradi» [138, 6] -deb ta’kidlashini didaktikadagi o‘zlashtirish jarayoni bilan bog‘liq holda qarash maqsadga muvofiq. Chunki, o‘quvchi u yoki bu o‘quv materialini o‘zlashtirar ekan, o‘z faoliyatida oldindan tanish bo‘lgan faoliyatni va axborotlarni jonlantiradi. O‘zlashtirish – o‘z faoliyati natijasini o‘zgalar faoliyati natijasiga qo‘shib ko‘rsatishdir. O‘zlashtirish psixologik hodisa bo‘lib, quyidagi tarkibiy qismlardan iborat:

Idrok – o‘rganilayotgan narsa-hodisa mohiyatining ongda aks etishi – in’ikosi. U keng tushuncha bo‘lib, o‘quvchining sezgi a’zolari( ko‘rish, eshitish kabi o‘quvlar) yordamida his qilingan ma’lumot haqidagi bilim, tajribadan oldin o‘tgan narsa-hodisalar to‘g‘risidagi tasavvurlarni ham qamrab oladi. Bunda o‘qituvchining vazifasi bolalarning o‘quv materialini faol idrok etishini ta’minlash, turli motivlarni (havas, ishtiyoq, qiziqish) uyg‘otish, imkoniyatiga qarab sezgi a’zolarining aksariyatini ta’limda qatnashtirishdan iboratdir.

Ingliz olimi Dj. Benks: «O‘qituvchilar g‘oyalar va tajribalarning turli-tumanligini to‘g‘ri tushunsalargina tanqidiy fikrlash va o‘qish yaxshi natija beradi. Agar «yagona bitta javob ruhi» ustuvorlik qilsa, unda tanqidiy fikrlashga imkon bo‘lmaydi”[39, 56]-degan g‘oyani ilgari suradi. Demak, o‘quvchilarda tanqidiy fikrlashni shakllantirish orqali ularning oldindan idrok etgan bilimlarini

mustahkamlashga zamin tayyorlab, yangi ma’lumotlarni qo‘lga kiritishga keng imkoniyat yaratiladi.

Idrokning rivojlangan yuqori shakli tushunish hisoblanadi. O‘rganilayotgan narsa-hodisa tarkibini fahmlash, ular o‘rtasidagi munosabat, aloqalarni tahlil etish, tushunchalarning asosiy va ikkilamchi belgilarini ajratish, o‘quv materialining tarkibiy elementlari va ular o‘rtasidagi bog‘lanishlarni bilish, sababiyatli aloqalarni idrok etish tushuncha darajasiga ko‘tarila boradi. Amerikalik faylasuf va pedagog J. Dyuining fikricha: «O‘quvchilar muayyan muammo bilan shug‘ullana boshlasalargina, ularda tanqidiy fikrlash paydo bo‘ladi. Shu sababli, o‘quv jarayonining boshlang‘ich nuqtasi hisoblangan, biror vaziyat yoki hodisaga tegishli bo‘lgan eng muhim savol bu hodisa qanday muammoni vujudga keltirishini anglatadigan savoldir. Faqatgina muayyan muammo bilan kurashib, murakkab vaziyatdan chiqish uchun o‘zining shaxsiy yo‘lini izlagandagina, o‘quvchi haqiqatan ham fikrlaydi» [63, 44]. Darhaqiqat, rejali va maqsadli o‘qitish va tarbiyalash jarayonida o‘quvchilarning intellekt darajasini aniqlash zaruriyati tanqidiy fikrlashni shakllantirishni vujudga keltirgan. O‘z ibtidosida bu natijalar oddiy pedagogik metodlar orqali aniqlangan.

Bir qator tadqiqotchi olimlar tanqidiy fikrlashni shakllantirish zaruratini: «Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida intellektuallikni rivojlantirish, pedagogik faoliyatni optimallashtirish, qulaylashtirishda zarur bo‘lgan axborotni qo‘lga kiritish jarayoni»[178, 128, 129, 35, 65],-deb ta’kidlaydilar.

O‘quvchilarning tanqidiy fikrlash darajalari bir qator pedagogik metodlar orqali aniqlanadi. Masalan, Y.Yirasek, A.Kernlar tomonidan ishlab chiqilgan yoshlarning bilim olishga moyilliklarini aniqlovchi testlar, D.B.Elkoninning «Grafik diktant»lar, A.L.Vengerning «Nuqtalar bo‘ylab chizish», I.Shvansarning «Aqliy rivojlanishni diagnostika qilish» kabi metodikalari mashhurdir.

«Tanqidiy fikrlash» atamasi ilk bor XX asrning ikkinchi yarmida vujudga kelgan. Mazkur tushuncha haqida tafsilot berishdan oldin, muayyan fikrlash ko‘nikmalari ustida to‘xtalish maqsadga muvofiqdir. Chunki bu ko‘nikmalar o‘quvchilarda tanqidiy fikrlashni tarkib toptirish uchun nihoyatda zarurdir.

Esda saqlash - fikrlash ko‘nikmalarining hosil bo‘lishida asosiy manba bo‘lib hisoblanadi. Usiz o‘quv jarayonini amalga oshirib bo‘lmaydi, lekin u tanqidiy fikrlashdan tubdan farq qiladi. Bir qator olimlar (V.V. Guzeyev, I. A. Zimnyaya, V. Bershadskiy, M.V. Alekseyev) har qanday fikrlashdan ko‘ra xotirani rivojlantirishni yuqoriroq qadrlab, har qanday fikrlash uchun xotira muhim ekanligini ta’kidlaydilar. O‘quvchining tanqidiy fikrlash jarayonini tadqiq etgan mutaxassislar (B.Blum, L.Stross, Q.Nazarov) tanqidiy fikrlashning vujudga kelishi uchun aqliy faoliyatning murakkab turlarini hosil qilish zarurligini ko‘rsatib o‘tadilar.

O‘quv jarayonini usiz amalga oshirib bo‘lmaydigan «notanqidiy fikrlash» turlaridan yana biri- murakkab g‘oyalarni tushunish bilan bog‘liq. Matematika, tarix va adabiyot darslarida o‘quvchilar ba’zan o‘qituvchining aytganlari yoki darslikda nima haqida yozilganligini tushunish uchun ancha «bosh qotiradilar». Tushunish, ayniqsa, agar o‘quv materiali qiyin bo‘lsa, murakkab aqliy jarayon bo‘lib hisoblanadi. Masalan, boshlang‘ich sinf o‘quvchisi murakkab o‘quv materialini tushunish uchun uning miyasida murakkab aqliy jarayonlar kechadi, lekin bu jarayonlarni tanqidiy fikrlash deb bo‘lmaydi. O‘zgalar fikrini tushunish uchun birinchi bosqichda shaxsiy fikrlash sust bo‘ladi: bunda kimdir tomonidan yaratilganni idrok qilinadi, xolos, «Tanqidiy fikrlash - yangi, tushunib bo‘lingan g‘oyalar tekshirilayotganda, baholanayotganda, rivojlantirilayotganda va qo‘llanayotganda sodir bo‘ladi»,-deb ta’kidlaydi o‘zbek olimi S.S. G‘ulomov [194, 14]. Rus olimasi S.V. Stolbunova: «Dalillarni eslab qolish va g‘oyalarni tushunish tanqidiy fikrlash uchun zarur bo‘lgan dastlabki shartlar bo‘lib hisoblanadi, lekin ular o‘zaro yaxlitlikda ham tanqidiy fikrlashni anglatmaydilar»-degan g‘oyani ilgari suradi [153, 32].

«Tanqidiy fikrlash» tushunchasiga mos kelmaydigan yana bir fikrlash turi bu- intuitiv (ichki his-tuyg‘u bilan) sezib fikrlashdir. Sportchi, rassom, musiqachilar miyasida ham murakkab fikrlash jarayoni sodir bo‘ladi, lekin ular buni hatto sezmaydilar ham. Demak, «tanqidiy fikrlash» atamasidan pedagogik muhitda anchadan beri foydalanib kelinmoqda, ammo uning talqinlari bugungi kungacha

turlichadir. Bir qator pedagog-psixolog olimlar I.S. Kon, L.S. Rubinshteyn, S.S. G‘ulomov, E. G‘oziyevlar tanqidiy fikrlash «yuqori tartibdagi» fikrlashni bildiradi (Benjamin Blum tizimiga ko‘ra o‘rganish qobiliyatlarining so‘nggi oliy pog‘onasi), degan g‘oyani ilgari surishsa, faylasuf olimlar (Z. G‘ofurov, J. Tulenov, Q. Nazarov) fikrlaricha- tanqidiy fikrlash deganda mantiqiy fikrlash va isbotlash ko‘nikmalari tushuniladi, uning yordamida o‘quvchilar diqqat bilan o‘qish, chuqur munozaralar yuritish va yozuvda o‘z fikrlarini aniq va o‘ylab ifoda etish imkonini oladilar. Adabiyot nazariyotchilari va tarixchilari uchun matnning tarkibiy qismlarini ajratishga va matnning kitobxonga ta’sir qilish usullarini tanqidiy qayta mushohada qilishga, hamda muallif asarni yaratishda amal qilgan sababalarni aniqlashda yordam beradigan matnga yondashish «tanqidiy» deb hisoblanadi.

Dayana Xalperi «Psixologiya kriticheskogo mishleniya» asarida: «Faol va interaktiv bilishning bir necha darajalarida bir vaqtda ro‘y beradigan jarayon tanqidiy fikrlash bo‘lib hisoblanadi. Tanqidiy fikr egasiga hiyla-nayranglar kamroq ta’sir qiladi, o‘zining shaxsiy qarashlar tizimi bo‘lgani uchun ular turli xavf-xatardan holi bo‘ladilar»[59,36],-deb yozadi. Shunga yaqin fikrni boshqa amerikalik olimlar Djeni Stil, Kert Meredis, Charlz Templlarning «Tanqidiy fikrlashni rivojlantirish uchun o‘qish va yozish» (TFRO‘YO) loyihasida ko‘rish mumkin: «Odam tanqidiy fikrlar ekan, u yoki bu g‘oyalar bilan tanishadi, ularni amalga oshirishdagi mumkin bo‘lgan oqibatlarini ham e’tiborga oladi. Bunda odam bu g‘oyalarni dastlab ma’lum darajadagi ishonchsizlik bilan idrok qiladi va qarama-qarshi nuqtai-nazarlar bilan taqqoslaydi. Ularni asoslash uchun qo‘shimcha mulohazalar tizimidan foydalanadi va bular asosida o‘z nuqtai-nazarini ishlab chiqadi»[60, 18].

O‘zbek olimasi Sh. A. Abdullayeva “O‘quvchilarda refleksiv mushohada qilish ko‘nikmalarini shakllantirish” asarida: “Tanqidiy fikrlash - fikr yuritishning shunday ko‘rinishiki, unda aqliy operatsiyalar (analiz, sintez, induksiya, deduksiya)ning barchasi ishtirok etadi [24, 34]»,- deb yozadi. Demak, o‘quvchi taqdim qilinayotgan o‘quv materialini o‘zlashtirishi uchun bilish jarayonining

induktiv (ayrim, xususiy tajribalarni umumlashtirib xulosa chiqarishga fikran harakat qilish) va deduktiv (umumiydan ayrimlikka yuksalish)pog'onalaridan o'tadi.

Barcha fikrlarni umumlashtirib, quyidagicha xulosaga kelindi: tanqidiy fikrlash- bilim o'zlashtirish va mustaqil fikrlashning yuqori darajadagi tarkibiy qismi bo'lib, shaxsning voqea, hodisa, borliqni obyektiv idrok etish imkoniyatini kengaytiruvchi aqliy hodisadir. Tanqidiy fikrlashda g'oyalar va ularning ahamiyati ko'pfikrlilik nuqtai nazaridan ko'rib chiqiladi hamda ular boshqa g'oyalar bilan taqqoslanadi.

Unda tahlil, taqqoslash, izohlash, qo'llash, muammolarni hal qilish yoki yangi fikr kashfiyotiga alohida e'tibor beriladi. Bunda: a) har qanday tanqidiy fikrlash jamiyatning ehtiyoji natijasida yuzaga keladi, shakllanadi va ma'naviy-madaniy asoslariga tayanadi. Har qanday tanqidiy fikrlash ijtimoiydir, u insonning odamlar orasidagi faoliyati bilan bog'liq; b) tanqidiy fikrlash inson faoliyati shakllaridan biridir, ya'ni jamiyatni, ijtimoiy jarayon va hodisalarni tanqidiy ravishda baholash demakdir. U bilish shakllari bilan uyg'unlashib, tabiatni bilish (tabiatshunoslik) va tafakkurni bilish (gnoseologiya, mantiq)dan farq qiladi; v) O'quvchilarda tanqidiy fikrlash shakllantirilganda, avvalambor ularda bunyodkor g'oyalarni vayronakor g'oyalardan farqlay olishga o'rgatish lozim.

O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi Qonuni, «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi», «Pedagogik ta'lim Konsepsiyasi» talablari bilan hamohang ravishda barkamol insonni voyaga yetkazish zarurligi ta'kidlangan.

Mustaqillikning dastlabki kunlaridanoq kamol topayotgan yosh avlodning tanqidiy fikrlashini shakllantirish va rivojlantirish uchun muhit yaratildi. Keyingi yillarda hurriyat buyuk o'zgartiruvchilik mo'jizasini ko'rsatib, dunyoqarashimizni o'zgartirib, fikrimiz, tafakkurimizni boyitmoqda. Voqealar rivojini butun mohiyati bilan anglash, dunyoga kengroq va tiyrakroq nazar bilan qarashni taqozo etmoqda.

Shu jihatdan olganda o'quvchilarni «o'qishga o'rgatish», va tanqidiy fikrlashni egallashlari muhim vazifalar qatoridan o'rin olmokda. Yangi axborotlarga duch

kelar ekan, o‘quvchilar uni mustaqil ravishda baholashi, unga turli xil nuqtai-nazardan qarashi, undan o‘z ehtiyoj va maqsadlari yo‘lida foydalana olish imkoniyati to‘g‘risida xulosa yasay olishlari zarur. Haqiqiy tanqidiy fikrlaydigan odam bo‘lib yetishish uchun o‘quvchilar ijodiy fikrlab, o‘zini sinab ko‘rishi va bunga oid malakalarni egallashlari zarur.

Tanqidiy fikrlash muloqot madaniyatini o‘stiradi va guruh bilan ishlash malakalarini rivojlantiradi.

O‘quvchilarning tanqidiy fikrlashini shakllantirish natijasida har bir rejali o‘quv jarayonining didaktik ta’minoti e’tiborga olinadi, tahsil oluvchi o‘quv materialini qanday o‘zlashtirayotgani doimiy monitoringi ishlab chiqiladi, ta’lim jarayonidagi muammolarning yechimini topishga harakat qilinadi. Mohir pedagog o‘quv jarayonida tug‘iladigan qiyinchiliklarni boshqalardan ko‘ra yaxshiroq tushunadi.

O‘quvchilarning tanqidiy fikrlashlarini shakllantirish shunday uslubiy xizmatni talab etadiki, bunda yoshlarning shaxsiyatiga zarar keltirmaslik, ularning pedagogik dahlsizligini ta’minlash hamda milliy qadriyatlar, urf-odatlar, an’analar orqali ularga ijobiy ta’sir ko‘rsatish lozim bo‘ladi. Demak, O‘zbekiston davlatining har tomonlama rivojlanishi va amalga oshirilayotgan islohotlarning muvaffaqiyati yosh avlodning mustaqil fikrlashi, keng bilimi, tarbiyasi va umumiy madaniyatining shakllanganlik darajasiga bog‘liq. Shu sababli, jamiyatimizdagi barcha yoshlarda erkin mushohada qilish, tanqidiy fikrlash ko‘nikmalarini shakllantirish lozimligi ijtimoiy ehtiyoj kasb etadi.

O‘quvchilarga tanqidiy fikrlash uchun eng avvalo, ularning o‘zlari mas’ul ekanliklarini anglatish lozim. Pedagogning vazifasi tanqidiy fikrlashni rag‘batlantirib turuvchi muhitni yaratishdangina iborat bo‘ladi.

Tanqidiy fikrlashni paydo qilish uchun quyidagilarga e’tiborni qaratish lozim:

o‘quvchida o‘ziga xos nuqtai-nazarni paydo qilish;

bir fikrdan boshqasining afzalligini asoslash mahorati;

murakkab muammolarni yechish mahorati;

dalillarga asoslangan holda bahslashishga odatlantirish;

yagona fikrni ishlab chiqish uchun o‘zaro hamkorlikda ishlash mahorati;
o‘quvchilarda mavjud bo‘lgan bilimlar tanqidiy fikrlash ko‘nikmalarini shakllantirishga qay darajada xizmat qilishini aniqlash.

O‘quvchilarni faol o‘ylash jarayoniga kiritish, muammoli vaziyatni yechish, mantiqiy jarayonlarni oqilona hal etishga o‘rgatish bilim o‘zlashtirishda ijobiy natijalarga olib kelishi muqarrar.

Tanqidiy fikrlashni rivojlantirish oson narsa emas. Bu muayyan yosh davrida tugallanishi va unutilishi mumkin bo‘lgan masala ham emas. Tanqidiy fikrlashga olib boradigan aniq-ravshan yo‘llar yo‘q. Biroq, o‘qitish shartlarining muayyan to‘plami borki, uning yordamida tanqidiy fikrlovchilarni tarbiyalash mumkin. Jumladan, quyidagi shartlarga alohida e’tibor berish zarur:

Tanqidiy fikrlash tajribasini orttirishga vaqt va imkoniyat berish;
O‘quvchilarga fikrlash imkoniyatini berish;
Turli g‘oya va fikrlarni qabul qilish;
O‘quv jarayonida o‘quvchilarning faol qatnashishlariga imkon berish;
O‘quvchilarni tanqidiy mulohaza yuritishga qodir ekanligiga ishontirish.

Shu bilan birga, o‘quvchilar:
O‘z-o‘ziga ishonchni rivojlantirib, o‘z g‘oya va fikrlarining qimmatini tushunishlari kerak;
Ta’lim jarayonida faol qatnashishlari lozim;
Turli fikrlarni hurmat bilan eshitishlari kerak;
O‘z mulohazalarini shakllantirishga tayyor bo‘lishlari yoki undan o‘zlarini tiyishlari lozim.

Tanqidiy fikrlash xususiyatlari quyidagilar:
tanqidiy fikrlash- bu mustaqil fikrlashdir;
axborot- tanqidiy fikrlashning boshlanishidir;
tanqidiy fikrlash savolning qo‘yilishi va hal qilinishi zarur bo‘lgan muammoni aniqlashdan boshlanadi;
tanqidiy fikrlash ishonchli dalillarga intiladi;
tanqidiy fikrlash-ijtimoiy fikrlashdir.

Birinchidan, tanqidiy fikrlash- bu mustaqil fikrlashdir.

Boshlang‘ich sinflarda mashg‘ulot tanqidiy fikrlash tamoyillari bo‘yicha yaratilar ekan, har bir ishtirokchi boshqalarnikidan mustasno holda o‘zining g‘oyasi, qadriyatlarni baholashi va ishonchiga ega bo‘ladi. Demak, fikrlash yakka tartibli harakterga ega bo‘lgandagina, uni tanqidiy fikrlash deb atash mumkin. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari o‘z aqli, fikrlashi va eng murakkab savollarga ham o‘zlari javob topa olish erkinligiga ega bo‘lishi kerak. Qanday fikrlash zarurligini har bir o‘quvchi o‘zi uchun o‘zi hal qiladi. Shunday qilib, mustaqillik tanqidiy fikrlashning eng muhim jihatlaridan biridir.

Ikkinchidan, axborot tanqidiy fikrlashning natijasi emas, balki uning boshlanishidir. Bilim o‘quvchini tanqidiy fikrlashga undovchi motiv bo‘lib hisoblanadi. Murakkab fikrni yaratish uchun anchagina «xom ashyo»- dalillar, g‘oyalar, matnlar, nazariyalar, ma’lumotlar, konsepsiyalarni qayta ishlash zarur.

Uzluksiz ta’lim tizimida tahsil olayotgan har qanday yoshdagilar ham tanqidiy fikrlash qobiliyatiga ega bo‘lishadi, hatto birinchi sinf o‘quvchilarida ham hayotiy tajriba va bilimlar mavjud bo‘ladi. Bolalarning fikrlash qobiliyatlari o‘qitish natijasida yanada takomillashib boradi. Hatto juda yosh bolalar ham tanqidiy fikrlash va butunlay mustaqil fikrlash qobiliyatiga ega. Aynan tanqidiy fikrlash tufayli odatdagi bilish jarayoni alohidalik va anglashuvchanlik, uzviylik va samaradorlik kasb etadi.

Uchinchidan, tanqidiy fikrlash, savolning qo‘yilishi va hal qilinishi zarur bo‘lgan muammoni aniqlashdan boshlanadi. Insoniyat o‘z tabiatiga ko‘ra qiziquvchandir. Biz biron-bir yangilikni sezar ekanmiz, albatta uning mohiyatini bilishni xohlaymiz. Qandaydir tarixiy obidani ko‘rar ekanmiz, bizda uning ichkarisiga kirish istagi paydo bo‘ladi. «Barcha hayvonot olamida,- deb yozadi kimyogar va faylasuf Mikayel Poloniy,- uning eng sodda shakli bo‘lgan chuvalchangdan, ehtimol hatto amyobadan boshlab, biz abadiy ehtiyotkorlik harakatini, ehtiyojni bevosita qondirishga bog‘liq bo‘lmagan izlanuvchanlik faoliyatini: har qanday jonli mavjudotni o‘z atrofini aql-zakovat bilan nazorat qilishga intilishini kuzatamiz»[53,56]. Qiziquvchanlik har qanday tirik mavjudotning ajralmas

xususiyatidir. Bu xususiyat yosh bolalarda ayniqsa quchli bo‘ladi. Biroq, har qanday bosqichdagi haqiqiy bilish jarayoni o‘quvchining muammoni hal qilishi, o‘zining shaxsiy qiziqishlari va ehtiyojlaridan paydo bo‘lgan savollarga javob izlashi bilan belgilanadi.

Bundan xulosa qilish mumkinki, boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi darsga tayyorgarlik ko‘rar ekan, o‘quvchilar to‘qnashishi mumkin bo‘lgan muammolar doirasini aniqlashi, so‘ngra esa, o‘quvchilarni bu muammolarni o‘zlari mustaqil ravishda shakllantirishlariga tayyorlashi zarur. Tanqidiy fikrlash tufayli o‘qitish aniq maqsadga yo‘nalgan, mazmunli faoliyatga aylanishi hamda bu faoliyat davomida o‘quvchilar haqiqiy aqliy ish bajarib, hayotiy muammolarni hal qilishga qodir bo‘lishlari lozim. Ularni dalillar asosida matnlarni tahlil qilishga, teng kuchli nuqtai-nazarlarni taqqoslab hamda jamoa imkoniyatlaridan foydalanib, o‘zlarini qiziqtirgan savollariga javob topishga undash ta’limni texnologik yondashuvlar asosida qurishga zamin yaratadi.

To‘rtinchidan, tanqidiy fikrlash ishonchli dalillarga intiladi. Tanqidiy fikrlovchi kishi muammoning o‘z shaxsiy yechimini topadi va bu qarorni oqilona, asosli dalillar bilan mustahkamlaydi. O‘quvchi boshqa qarorlar bo‘lishi mumkinligini ham tan olishi mumkin, lekin o‘zi tanlagan qaror boshqalarnikiga nisbatan eng mantiqiy va oqilona ekanligini isbotlashga harakat qilishi ta’lim jarayonining samaradorligini oshiradi.

Har qanday ishonchli dalil uch asosiy qismdan iborat bo‘lib, tasdiqlash-dalil markazi, uning mazmuni bo‘lib hisoblanadi (ba’zan u tezis, asosiy g‘oya yoki qoida deb yuritiladi). Tasdiqlash bir necha dalillar bilan mustahkamlanadi. Dalillarning har biri o‘z navbatida isbotlar bilan mustahkamlanadi. Statistik ma’lumotlar, matn parchasi, shaxsiy tajriba, umuman olganda, ushbu ishonchli dalillarni isbotlashga yordam beruvchi va muhokamaning boshqa ishtirokchilari tomonidan tan olinishi mumkin bo‘lgan barcha g‘oyalardan isbotlovchi sifatida foydalanish mumkin. Ishonchli dalillarning yuqorida qayd qilingan barcha qismlari tasdiq, dalil va isbotlash negizida, uning to‘rtinchi qismi bo‘lgan asos

turadi. Asos- bu muayyan yo‘naltiruvchi boshlang‘ich nuqta bo‘lib, u notiq uchun ham, yoki yozuvchi va uning muxlislari uchun umumiy hisoblanadi.

Ishonchli dalillar, unga qarama-qarshi dalillarni mavjud bo‘lishi, ularni giperbolik tarzda (oshirib ko‘rsatilishi), yoki qabul qilinishi mumkinligini ham hisobga olgandagina o‘z samarasini ko‘rsatadi. Boshqacha nuqtai-nazarlarning tan olinishi ishonchli dalillarning ta’sir kuchini yanada oshiradi. O‘ta ta’sirchan dalillar bilan qurollangan tanqidiy fikrlovchi kishi, hatto katta obro‘ga ega bo‘lgan fikrga ham qarshi tura oladi, amaliyotda bunday kishining fikrini o‘zgatirish mumkin emas.

Beshinchidan, tanqidiy fikrlash- ijtimoiy bo‘lib hisoblanadi (har bir inson ijtimoiy organizmdir). Har qanday fikr, agar u boshqalar bilan o‘rtoqlashilgandagina o‘tkirlashadi yoki faylasuf Xanna Arendt yozganidek:

«...kimningdir huzurimda bo‘lishi, meni barkamollikka erishtiradi»[35, 119]. Bahslashuvda, o‘qiganimizda, muhokamada ishtirok etganimizda, e’tiroz bildirganimizda, boshqalar bilan fikr almashganimizda, biz o‘z nuqtai nazarimizni aniqlashtiramiz va uni chuqurlashtiramiz, shuning uchun ham o‘quvchilarda tanqidiy fikrlashni shakllantirishni mo‘ljallagan o‘qituvchi o‘z mashg‘ulotlarida juftlikda yoki guruhlarda ishlashning turli shakllaridan samarali foydalanishga intiladilar. Umuman olganda, tanqidiy fikrlashni shakllantirish jarayoni o‘quvchi shaxsini konstruksiyalashga nisbatan anchagina keng ma’nodagi vazifalarni hal qiladi.

Tanqidiy fikrlash (boshlang‘ich sinf o‘quvchilari misolida)yozma ishda yaqqolroq namoyon bo‘ladi. “Yozuvda,-deb ta’kidlaydi S.S. G‘ulomov fikrlash jarayonini kuzatish mumkin bo‘ladi va bu o‘qituvchi uchun ham qulaylik yaratadi. Yozayotgan o‘quvchi doimo faol bo‘ladi. U doim mustaqil fikrlaydi va bunda u o‘zida mavjud bo‘lgan barcha bilimlardan foydalanadi. U o‘z fikrini mustahkamlash uchun yetarli darajadagi ishonchli dalillarni qatorlashtirib tashlaydi. Bundan tashqari u o‘z tabiati jihatidan ijtimoiy harakterga ega bo‘ladi. Chunki, xat yozuvchi, uni o‘qiydiganga mo‘ljallab yozadi. O‘quvchi uchun eng qimmatlisi - o‘qituvchining uning ishiga qiziqishi va unga hurmat bilan qarashi,

o‘z fikrlari to‘g‘risida sinfdoshlari, boshqa o‘qituvchilar, ota-onalar va hatto notanish kishilar bilan o‘rtoqlashish imkoniyatiga ega bo‘laganligidir” [194,36]. Shunday ekan, yozishni tanqidiy fikrlashning eng muhim vositasi deb hisoblash mumkin.

Tanqidiy fikrlash asoslari uch bosqichdan iborat bo‘lib, ular: ilm o‘rganishga qiziqish uyg‘otish, ya’ni motivatsiya hosil qilish, o‘zlashtirilgan bilimlarni idrok qilish hamda ularni mushohada qilish ( refleksiya)dir.

Tanqidiy fikrlash motivatsiya bosqichidan boshlanadi, uning davomida o‘quvchilarning fanga nisbatan qiziqishi uyg‘onadi, zarur savollar tug‘iladi va bilimlarni egallash uchun falsafiy kategoriya «sabab» shakllanadi. Shundan keyingina o‘zlashtirilgan bilimlarning ma’nosini anglash, idrok etish bosqichida o‘quvchilar yangilikni izlash uchun rag‘batlanadilar. Bolaning refleksiya bosqichi ta’lim jarayonining kulminatsiyasi bo‘lib hisoblanadi. Uning davomida o‘quvchilardan o‘z bilimlarini umumlashtirish, bilib olgan narsalarni bungacha bilgan narsalari bilan taqqoslash, ularning savollariga javoblarni qay darajada olganiga qarab baholash (va zaruratga qarab yangi savollarni shakllantirish), egallangan bilimlarni o‘zga muammolarga nisbatan qo‘llash, tayyor axborot haqida mushohada yuritish, munozara qilish va tug‘ilgan g‘oyani himoya qila olish kabilar uchun zamin yaratiladi.

Boshlang‘ich sinflarda o‘quvchilarning erkin mushohada yuritishlari uchun, avvalambor motivatsiya bosqichining ahamiyati kattadir, unda yangi bilimlar, o‘zi mustaqil tanlagan maqsad uchun intilish anchagina kuchli bo‘ladi. Motivatsiya bosqichida faoliyatning bir nechta bilim beruvchi muhim turlari amalga oshiriladi. Birinchidan, kichik maktab yoshidagi o‘quvchi mazkur mavzu to‘g‘risida bilganlarini tiklashda faol ishtirok etadi. Bu esa uni o‘z bilimlarini tahlil qilishga va tez orada batafsil ko‘rib chiqiladigan mavzu haqida o‘ylashga majbur etadi.

O‘quvchilar yangi bilimlarini oldin bilgan va tushunganlar kontekstida qabul qilsa, unda bilim o‘zlashtirish darajasi yuqori bo‘ladi. Agar axborot o‘quvchiga oldingi bilimlar bilan bog‘lanmasdan taqdim etilsa, u tez xotiradan yo‘qoladi.

Ta'lim jarayoni - yangi bilimlarni avvaldan ma'lum bo'lgan axborot bilan bog'lash jarayoni ekan, boshlang'ich sinf o'quvchilarining yangi tasavvurlari ilgarigi bilimlari va tasavvurlari asosida kengayadi. O'quvchilarga ilgarigi bilim va tasavvurlarini sintez qilishga yordam berish didaktikada muhim ahamiyat kasb etadi.

Motivatsiya bosqichining ikkinchi maqsadi- o'rganilayotgan axborotni tezkorlik bilan idrok etishga qiziqishni kuchaytirishdan iboratdir, chunki ta'lim- intilish talab etadigan intensiv faoliyatdir.

Boshlang'ich sinf o'quvchilari yangi axborotni ongli, puxta tushunishlari va yangi ma'lumotga tanqidiy yondashishlari uchun ta'lim jarayonida faol qatnashishlari kerak. O'quvchi belgilangan maqsad asosida o'ylab, fikrlarini o'z so'zlari bilan ifodalash orqali faollashadi. Bilimlarni namoyish qilish (o'ziga va sherigiga) og'zaki yoki yozma nutq yordamida, faol fikrlash orqali sodir bo'ladi. Shunday qilib, o'quvchilarga yangi axborotni avval bilganlari bilan samarali bog'lashga imkoniyat yaratish, ularda tanqidiy fikrlashga o'rgatishga zamin tayyorlaydi.

Motivatsiya bosqichining uchinchi maqsadi- o'rganilayotgan mavzu bo'yicha o'quvchida oydinlashtirilgan maqsadni tushunishga zamin hozirlashdan iborat. Motivatsiya va maqsadning hosil bo'lishi o'quvchilarning faolligini yanada oshiradi.

Mustaqil ravishda tanlangan maqsadlar, tashqaridan majburiy kiritilgan maqsadlardan kuchliroq bo'ladi. Shaxsiy qiziqish xususiy maqsadni belgilaydi. Agar barqaror qiziqish bo'lmasa, o'quv faoliyatining motivatsiyasi susayadi. Umuman olganda o'quvchi o'z savollariga javob olishi orqali haqiqiy tushunishga erishadi.

## 12- мавзу: Pedagogik texnologiyalarning asosiy tarkibiy qismlari, jarayonlari, turlari va natijalari.

**Режа:**

**1.** Pedagogik texnologiyalarning asosiy tarkibiy qismlari.

2. Pedagogik texnologiyalarning asosiy jarayonlari.
3. Pedagogik texnologiyalarning turlari.
4. Pedagogik texnologiyalarning tajriba-sinov natijalari.

**Tayanch tushunchalar**: pedagog, texnologiya, jarayon. Tur, natija, kafolatlangan natija

Pedagogika talabalar guruhi bilan ishlashda yuqori natijaga erishish yo‘llarini doimo izlab kelgan va o‘z vosita, usul va shakllarini hamma vaqt takomillashtirib kelgan. Ko‘zlangan maqsadga erishish imkoniyatini beruvchi, qandaydir usul yoki usullar majmuasini topish ilinjida bo‘ldi. Buning natijasida turli uslubiyotlar paydo bo‘ldi. Pedagogik tajriba to‘planishi bilan yangi, samaraliroq uslubiyotlar yaratila bordi. Ammo, yangi uslubiyotlarni yaratish borasidagi amaliy ishlar natijasi, o‘sib borayotgan talablarga hamma vaqt ham javob bermas edi. O‘qitishdagi doimiylik, rejalashtirilgan natijalarga erishish kafolati kabi muammolar o‘z yechimini kutar edi.

O‘quv maqsadlarning noaniq va mujmal qo‘yilishi, shu bilan bog‘liq o‘qitishdan kutilgan natijaning yo‘qligi, an’anaviy ta’lim maktabining kamchiligi hisoblanadi. Hozirgi zamon bozor iqtisodiyoti sharoitida, oliy ta’lim muassasasi, o‘qitishdan kutiladigan natija yo‘qligidek, ortiqcha daxmazaga yo‘l qo‘ya olmaydi. O‘qitish natijasi aniq va erishiladigan bo‘lishi lozim, aks holda, tayyorlangan mutaxassislarga ehtiyoj ham noaniq bo‘ladi va ular talab qilib olinmaydi. An’anaviy o‘qitish maktabiga tayangan oliy ta’lim muassasasi, hozirgi zamon ishlab chiqarish va boshqa sohalarning aniq talablariga javob beradigan mutaxassislarni tayyorlashga qodir bo‘lmaydi. Shuning uchun, o‘quv jarayonini takomillashtirish, talabalar qiziqishini oshirish, o‘qitish natijalarini yaxshilashning eng samarali yo‘llarini izlash ishlari uzluksiz davom ettirilmoqda. O‘qitish sifatini oshirish, obyektiv zaruriyatga aylanganligi tufayli, alohida o‘qitish uslublaridan pedagogik texnologiyaga o‘tish muammosining dolzarbligi ortib bormoqda. O‘quv jarayonini birinchi marta ushbu tarzda talqinlash Y.A.Komenskiyning pedagogikasida uchratish mumkin.

Komenskiy asarlarida, inson tabiati qonuniyatiga uyg‘unlashgan o‘qitish tartibini izlash urinishlari mavjud. O‘qitish texnologiyasining asosiy elementlari - dars

tamoyili, sinf tamoyili, o‘qitishning predmetligi, o‘quv materialini bayon etishning umumtartibi – aynan Y.A.Komenskiy tomonidan ishlab chiqilgan edi, bu esa uning pedagogik tizimining individual jamiyatdagi uning ommaviy so‘ngra umumiy ta’limi ehtiyoji uchun uzoq yillar xizmat qilishini ta’minlaydi. U o‘qitishning yagona takomillashgan usulini ko‘z oldiga keltirib, uni soat mexanizmining aniq va ravon ishi bilan taqqoslagan edi. Komenskiy Y.A. bu haqda - «O‘qitish san’ati - vaqt, fanlar va usullarning mohirona taqsimotidan boshqa hech narsani talab etmaydi. Agar biz bu taqsimotni aniq o‘rnata olsak, maktab yoshlarini ularning soni qanchaligidan qat’iy nazar, tipografiya asboblari bilan minglab qog‘ozlarni nafis harflar bilan bezatishdan yoki Arximed mashinasini o‘rnatib, uylar, minoralar yoki xilma-xil og‘irliklarni ko‘chirishdan, yoki minglab kemada okeanni kesib o‘tib, Yangi Olamga (Amerikaga) jo‘nab ketishdan ham osonroq bo‘ladi. Hamma narsa soatdek yengillik bilan, shunday zavq va shavq bilan oldinga yuradiki, shunday zavq va shavq bilan unga o‘xshash avtomatni kuzatamiz va nihoyat, faqat bunaqa epchil asbobda erishilishi mumkin bo‘lgan ishonch bilan unga qaraymiz. Shunday qilib, Olloh taolo haqi, soatga to‘la o‘xshagan shunday maktab tuzilmasini ishlab chiqishga urinib ko‘ramiz».

O‘quv maqsadlarining turli-tumanligi, ta’lim mazmuni elementlarining xilma-xilligi (o‘quv materiali turlari), talabalarning individual xususiyatlari oliy darajadagi yagona o‘qitish usuliga erishishga to‘sqinlik qiladi. O‘qitish amaliyotida, o‘qitishning turli tuman yo‘llari, usullari va shakllari keng qo‘llaniladi. Ammo o‘qitishda yagona samarali (integral) yondashuv sohasidagi izlanishlar jadallik bilan hamon davom ettirilmoqda. O‘qitishni, o‘ziga xos ishlab chiqarish texnologik jarayonga aylantirishi mumkin bo‘lgan didaktik yondashuvlar, didaktik vositalarni izlash davom etmoqda. 50-yillarda o‘quv jarayoniga mashinalarni kirib kelishi va tarqalishi bilan, pedagogik texnologiyalarni rivojlanish bosqichi boshlandi. Bu paytda sanoat ishlab chiqarishida yangi ilmiy yo‘nalish – sistemotexnika paydo bo‘ldi va u «odam-mashina» majmualarini yaratish masalalarini yechib berdi. Ushbu ilmiy yo‘nalishda «odam-mashina» tizimida odamning rolini aniqlash muhim ahamiyatga ega, hozirgi kunda ushbu muammo yechimining uch bosqichini ko‘rsatish mumkin:

Birinchi bosqich - «mashina hamma narsaga qodir» tamoyilini qo‘llab, mashinani odamga bog‘liqsiz loyihalash.

Ikkinchi bosqich - vazifalarni odam va mashina o‘rtasida taqsimlash tamoyili asosida, odam bilan mashinaning o‘zaro ta’sir jarayonlarini o‘z ichiga oluvchi mashinalarni loyihalash.

Uchinchi bosqich - odamni texnik tizimning tarkibi sifatida qarashdan voz kechish bilan belgilanadi, loyihalash asosiga odam faoliyati tamoyili qo‘yiladi, ya’ni odam faoliyati tizimi loyihalana boshlandi. Faoliyat tizimi o‘zining funksional birliklaridan iborat mazkur bosqich, industrial jamiyat o‘rniga kelayotgan, informatsion yoki postindustrial deb ataluvchi yangi jamiyatning rivojlanayotgan elementlariga yo‘naltirilgan. Yangi jamiyatning taraqqiyoti, bilimlarni to‘plash va qayta ishlash jarayonlarida inqilobiy shartni qo‘yadi, bunda markaziy rolni telekommunikatsiyalar tarmog‘iga ulangan kompyuter bajaradi. Informatsiya (axborot) bosh tovar mahsulotga aylanadi, uni yaratish qobiliyati esa mamlakatning strategik resursiga aylanadi. Ishlab chiqarishda yangi yuqori texnologiyali tarmoqlar paydo bo‘ladi, mavjudlarining esa shakli keskin o‘zgaradi.

Ishlab chiqarishdagi o‘zgarishlar, yangi turdagi xodim paydo bo‘lishiga olib keladi. Xodimning bu turi o‘zining quyidagi sifatlari bilan ajralib turadi: u ko‘proq mustaqil, ijodiy fikr qiladi, endi u mashinaga qo‘shimcha qism hisoblanmaydi. Qo‘l asboblari to‘plamiga ega bo‘lgan sanoatlashmagan davrning, hunarmand ustasidek, yangi intellektual ishchilar, bilimlar, mahorat, axborotlar kabi ma’naviy asboblar to‘plamiga egalar.

Intellektual ishchilar doimiy o‘zgarishlar, muammolar, vaziyatlarga moslashuvchan bo‘ladilar. Ular o‘z ishlarini qattiq nazoratsiz, o‘z hohishlariga ko‘ra, ijodiy, erkin bajarishga moyil bo‘ladilar. Ular o‘zlarida iste’dodli shaxsni ifoda etadilar. Qayerda intellektual ishchi faoliyati uchun sharoit yaratilgan bo‘lsa aynan shu yerda ishlab chiqarish raqobatbardosh va daromadli bo‘ladi.

Bunda ishlab chiqarishning sifati va samaradoligiga ishchilarning muskul energiyasi, texnik malakasi orqali emas, balki uning omilkorligi, ma’lumoti, harakatchan fikrlash qobiliyati va ishga ijodiy munosabati orqali erishiladi.

Postindustrial jamiyat xodimini shakllantirish uchun, jamiyat ishlab chiqarishning yangi talablariga javob beradigan, yangi ta’lim texnologiyasi zarur bo‘ladi, yangi turdagi xodim uchun yangi turdagi pedagog mos keladi. Sistema texnika majmuasi taraqqiyotining uch bosqichiga mos, ta’lim tizimida o‘qituvchining uch turli maqomi, pedagogik faoliyatning uch turini alohida qayd etish mumkin.

Pedagogik faoliyatning birinchi turi, shu bilan xarakterlanadiki, o‘qituvchi o‘z ishining ustasi hisoblanadi, nodir bilimlar, ko‘nikmalar tashuvchisi, shaxsiy tajribaga, pedagogik qobiliyatga ega bo‘ladi (qadimgi davrdagi hunarmandga o‘xshash). Uning «asboblari» - yo‘llari, usullari individual bo‘lib, pedagogik iste’dodining mevasidir, qo‘llanmalar, ko‘rgazmali va texnik vositalar unga meros qolgan yoki o‘zi tomonidan ishlab chiqilgan.

Pedagogik faoliyatning ikkinchi turi, shu bilan xarakterlanadiki, unda o‘qitish tajribasi umumlashtiriladi, tizimlashtiriladi va ilmiy fan ko‘rinishini oladi. Bunga, kitob chop etishning paydo bo‘lishi, pedagogik mehnatning bo‘linishi va ixtisoslashuvi sabab bo‘ldi. Bu yerda pedagogik jarayon, oqilona tashkil etilgan, o‘qitish ma’lum qoidalar bo‘yicha amalga oshiriladi. Ushbu sharoitlar bilimni obyektivlashtirish imkonini berdi. O‘qituvchi sanoatlashgan (industrial) jamiyatning ishlab chiqarish xodimiga o‘xshab, sanoatlashgan (industrial) turdagi xodimga aylanadi.

Pedagogik faoliyatning uchinchi turi shu bilan xarakterlanadiki, u pedagogik texnologiya asosida amalga oshiriladi, o‘qituvchining holatini, zamonaviy kompyuterdan foydalanuvchi holati bilan taqqoslash mumkin. O‘qitish texnologiyasi kasbiy yondashuv asosida aniqlanadi. Ular odatda, shaxsga yo‘naltirilgan o‘qitish texnologiyalari hisoblanadi.

«Pedagogik texnologiya» atamasi, ishlab chiqarish - texnologik sohasidan olingan, o‘ziga xos ma’lum qoida va tamoyillarga ega bo‘lgan, «texnologiya» tayanch iborasini o‘z ichiga oladi. Ishlab chiqarish sohasida, mahsulotni tayyorlash uchun, ishlab chiqarishni tayyorlash talab etiladi, u turli xildagi ilmiy-tadqiqot konstruktorlik, texnologik, tashkiliy-rejaviy tadbirlarni qamrab oladi.

Oliy malakali mutaxassislarni tayyorlash jarayoni ham shunga o‘xshash tadbirlar majmuasini o‘z ichiga oladi. Oliy ta’lim sohasida kadrlar tayyorlash bosqichlari va ishlab chiqarishni tayyorlash bosqichlari juda o‘xshashdir.

Ishlab chiqarishni tayyorlashning birinchi bosqichida ilmiy-tadqiqotlar natijasi bo‘yicha konstruktorlik tayyorgarligi amalga oshiriladi, ta’lim esa davlat ta’lim standartlari (ta’lim sohasi «konstruksiyasi»ni aniqlovchi) tayyorlanadi.

Oliy ta’limning Davlat ta’lim standarti kadrlar tayyorlash sifatiga, ta’lim mazmuniga qo‘yilgan talabalar; ta’lim oluvchilar tayyorgarligining zaruriy va yetarli darajasi; ta’lim muassasalari bitiruvchilariga qo‘yilgan malakaviy talablar, o‘quv yuklamasining maksimal hajmi; ta’lim muassasalari faoliyati va kadrdar tayyorlash sifatini baholash tartiblari hamda yo‘l-yo‘riqlarini belgilaydi.

Mamlakatimizda oliy ta’lim sohasi ilmiy tadqiqot ishlari va davlat ta’lim standartlari loyihalarini ishlab chiqish oliy va o‘rta maxsus ta’limni rivojlantirish Markazi hamda ta’lim yo‘nalishlari bo‘yicha tayanch oliy ta’lim muassasalari tomonidan bajariladi.

O‘qitish jarayoni bilan ishlab chiqarish texnologik jarayon taqqoslash asosida – pedagogik texnologiya o‘zida o‘qitishning zamonaviy samarali shakl va usullarini qamrab olganidek, zamonaviy ishlab chiqarish - texnologik jarayon ham mahsulot tayyorlashning eng samarali usullarini qamrab olishini ta’kidlash mumkin.Ishlab chiqarishni tayyorlashning ikkinchi bosqichida konstruktorlik tayyorgarlik bajarilgandan so‘ng ishlab chiqarishning tayyorgarligi amalga

oshiriladi, uning o‘zagini – detallarni tayyorlash, mashina uzellari va agregatlarini yig‘ish, texnologik jarayonlarni ishlab chiqish - tashkil etadi. Texnologik jarayonlar – texnologik xaritalar va ularning to‘plamlari ko‘rinishida rasmiylashtirildi. Texnologik jarayonning texnologik xarita ko‘rinishida aks ettirilishi, yuqori malakaga ega bo‘lmagan ishiga, yuqori sifatli mahsulot tayyorlash imkoniyatini beradi, chunki texnologik xarita mahsulot tayyorlashning barcha bosqichlari – materiallar, tayyorlash, jihozlar, texnologik operatsiyalar mazmuni va ketma-ketligi, ishlov berish sharoitlari, asboblar, vaqt meyorlari, sifat nazorati vositalari keltiriladi. Ishlab chiqarish - texnologik jarayon, - minimal material va insoniy manbalar xarajatlari, ishlab chiqarishning maksimal mehnat unumdorligi va rentabelligi bilan zaruriy sifatdagi mahsulot olinishiga imkoniyat yaratadi. Ishlab chiqilgan texnologik jarayonsiz, zamonaviy samarali ishlab chiqarish bo‘lishi mumkin emas. Ishlab chiqarish sohasiga o‘xshab, ta’lim sohasida davlat ta’lim standartlari yaratilgandan so‘ng (ta’lim «konstruksiya»si barpo etilishi) – texnologik tayyorgarlik amalga oshiriladi (namunaviy o‘quv rejalar, fanlarning namunaviy o‘quv dasturlarini darslik va o‘quv qo‘llanmalar tayyorlash, laboratoriya jihozlari, o‘qitishning texnik vositalari loyihalash, tayyorlash va sotib olish, o‘quv ishlarini hisoblash uchun vaqt meyorlarini o‘rnatish va h.k.), u ta’lim jarayonini tartibga soladi, ta’lim muassasasini va kadrlar tayyorlash sifatini baholaydi.Pedagogik texnologiya, ommaviy ta’lim sharoitida davlat ta’lim standartlari talablari darajasida kadrlar tayyorlashni ta’minlaydi.O‘quv jarayonining texnologik tayyorgarligi o‘qitish jarayonini (ishlab chiqarish - texnologik jarayonda, bu mahsulot tayyorlashning texnologik operatsiyalari, uni maqbullashtirish va samaradorligini o‘z ichiga oladi. O‘qitish jarayonini birxillashtirish (unifikasiyalash), o‘qitishda maksimal samaradorlikka yetishish, pedagogik texnologiyani yaratish va qo‘llash orqali erishiladi.Pedagogik texnologiya negizida, pedagogik ilmiy usul va malakalari, ishlab chiqarishning usul va malakalaridek, o‘quv jarayonini ro‘yobga chiqaruvchi obyektiv mantiqiy imkoniyatlar sifatida mavjud bo‘lishi mumkinligi haqidagi, tasavvur yotadi.

Ishlab chiqarish sohasida ushbu imkoniyatlar qanday ro‘yobga chiqarilsa, pedagogik ishda ham shunga o‘xshash jarayon sodir bo‘ladi. Yuqori malakali pedagog o‘zning pedagogik qobiliyati tufayli bu imkoniyatlarni aniqlaydi va ularni ishlab chiqadi.

O‘qitish jarayonining mavjud obyektiv qonuniyatlarni o‘rganish va qo‘llash, o‘qitishda zaruriy natijaga erishish, ma’lum darajada hattoki pedagog va talabaning qobiliyatiga bog‘liq emas degan xulosaga olib keladi.

Pedagogik jarayon qanchalik chuqur ishlangan va obyektlashgan bo‘lsa, uni ro‘yobga chiqarish uchun, shunchalik kam qobiliyat talab etiladi. Ushbu, ommaviy ta’limning butun amaliyotida o‘z tasdig‘ini topdi. Bundan tashqari kompyuterli o‘qitishni joriy etish amaliyoti, odamning bevosita ishtirokisiz ham, o‘qitishning usul va yo‘llari tizimi, amalga oshirilishi mumkinligini ko‘rsatmoqda.

Pedagogik texnologiyaning xususiyati shu bilan belgilanadiki, unda qo‘yilgan maqsadlarga erishish kafolatini beruvchi o‘quv jarayoni yaratiladi va ro‘yobga chiqariladi.Ishlab chiqarish texnologik jarayon ma’lum mahsulot uchun ishlanganidek, xuddi shunday pedagogik texnologiya ham har qaysi fan uchun o‘qitish texnologiyasining asosiy elementlarini o‘z ichiga olgan umumiy uslubiyot asosida ishlab chiqiladi.Pedagogik texnologiyaning afzalligi ham, ahamiyati ham shu bilan belgilanadi. Bu ommaviy o‘qitish sharoitida, talabalarni to‘la o‘zlashtirishini ta’minlovchi yagona to‘g‘ri yo‘ldir.Pedagogik texnologiya, ishlab chiqarish texnologik jarayondek, rejalashtirilgan natijaga erishishni kafolatlaydi.

1.3. Pedagogik texnologiya tamoyillari.

Ilmiy-texnik taraqqiyot jadallashuvi sharoitida, «Pedagogika» va «Texnologiya» fanlar ulashuvida paydo bo‘lgan, pedagogik texnologiya mustaqil fanga aylandi. Har bir mustaqil fan o‘z mohiyatiga ko‘ra uning nazariy asoslarini tashkil etuvchi o‘zining tamoyillariga ega bo‘ladi, pedagogik texnologiya tamoyillari,

«Pedagogika» va «Texnologiya» fanlarining negizini tashkil etuvchi qoidalar yig‘indisiga tayanadi. Pedagogik texnologiya maqsadlari, vazifalari, tarkibi, mazmunining tahliliga ko‘ra uning quyidagi asosli tamoyillari shakllantirilgan: ilmiylik, loyihalanish, tizimlilik, yo‘naltirilganlik, faoliyatli yondashuvlik, boshqariluvchanlik, tuzatuvchanlik, natijaviylik, qayta takrorlanuvchanlik, tejamlilik. Ushbu barcha tamoyillar o‘zaro bog‘liq bo‘lib, biri birini talab etadi va to‘ldiradi. Bu tamoyillar asosida o‘quv jarayoni tashkil etiladi, ya’ni uning tayyorgarligi va o‘qitish jarayoni amalga oshiriladi.

Pedagogik texnologiyaning tamoyillarida pedagogik va texnologik fanlarning yutuqlari qamrab olingan. «Pedagogik texnologiya» fani ko‘rinishidagi mazkur tamoyillar majmuasi aniqligi, isbot talab etmasligi, amaliyligi tufayli, yuqori malakali kadrlar tayyorlashda ajoyib natijalarni beradi.

1. Ilmiylik tamoyili.

Bu tamoyil har qanday o‘quv predmeti, o‘quv materiali fanining zamonaviy yutuqlariga tayanishi lozimligini ko‘rsatadi. Ushbu tamoyil, eng avvalo o‘quv dasturlar, o‘quv qo‘llanmalar va dasturlarni yaratish jarayonida amalga oshiriladi. Ilmiylik tamoyiliga muvofiq har yili fanlarning ishchi o‘quv rejalari va o‘quv materiallarini takomillashtirish, muammoli mashg‘ulot o‘tkazish talab etiladi. Ilmiylik shakli va fanning tili o‘rganiladigan predmetlar xarakterining asosiy ko‘rsatkichlari hisoblanadilar. Ilmiy axborotni ifoda etilish aniqligi va qat’iyligi, uni ifoda etish tizimi va aloqalariga, juda katta e’tibor qaratishni talab etadi. Oliy maktabda, ilmiylik birinchi navbatda obyektiv olam qonuniyatlarini ochish bilan uzviy bog‘liq va fanlararo bog‘lanishlar va fanlarning o‘zaro ta’sirini shakllanishini talab etadi.

Ushbu tamoyilning Oliy maktabda ro‘yobga chiqarishi uchun, barcha o‘qituvchilar tomonidan majburiy ravishda ilmiy-tadqiqot ishlarning olib borilishini va bu ishga talabalarni jalb qilinishi taqozo etiladi. Bu talabalarda ajoyib va nostandart yechimlar qabul qilish, individual va ijodiy ishlash

malakalarini hosil qilish, ilmiy adabiyot va axborotlardan foydalanish ko‘nikmalarini, ularda tanqidiy fikrlash, bilimlar harakatchanligi, tez o‘zgaruvchan sharoitlarga moslashish – qobiliyatlarini rivojlanish imkoniyatlarini shakllantiradi. Oliy maktabda o‘quv jarayoni doimo harakatdagi jarayondir, shuning uchun u doimiy ravishda nafaqat fan va texnikaning holatini, balki ularning zamonaviy taraqqiyoti barcha xususiyatlarini e’tiborga olishni talab etadi.

*2. Loyihalanish tamoyili*

Bu tamoyil, pedagogik texnologiyaning eng muhim xususiyatlaridan birini belgilaydi. Loyihalanish tamoyili - bu o‘quv jarayonini tashkil etish, hujjatlarini – o‘quv jarayoni grafigi; ishchi o‘quv reja; fanning ishchi o‘quv dasturi; fanning, bo‘limlarning, tayanch iboralarining o‘quv maqsadlari toifalari; o‘qitish jarayoni texnologiyasi, egallangan bilim va malakalarni baholash – oldindan yaratishni anglatadi. Ishlab chiqilgan hujjatlar asosida o‘quv jarayoni amalga oshiriladi. Bu hujjatlarning barcha bandlariga rioya etilishi, rejalashtirilgan natijalarga erishishni kafolatlaydi. Ishlab chiqarish texnikaviy sohada, loyihalanish bazaviy hisoblanadi, ya’ni binolar va inshootlar, mahsulotlar ishlab chiqarish jarayonlari oldindan loyihalanadi.

Mazkur tamoyilning ahamiyatini, shu bilan baholash mumkin-ki, uning asosida pedagogik texnologiyaning ta’rifini keltirib chiqarish mumkin

Pedagogik texnologiya - bu, amaliyotga samarani tadbiq etiladigan, tegishli tamoyillar asosida ishlab chiqilgan o‘quv jarayonning loyihasidir.

3. Tizimlilik tamoyili

Pedagogik texnologiya, o‘quv jarayonining barcha elementlarini qamrab olishi bilan alohida ajralib turadi. Tizimlilik tamoyilining mohiyati shu bilan ifodalanadi. O‘quv jarayonining barcha elementlari, ularning o‘zaro bog‘liklik sharti asosida yagona tizim kabi loyihalanadi. Bunda o‘quv

jarayonning barcha elementlari tuzilmasi, tashkil etilishi va faoliyati – talabalarni o‘qitishga rag‘batlantiradi.

Bu yerda, o‘quv jarayoni va o‘qitish jarayoni tushunchalarini aniq ta’riflash zarurligini qayd etmoq, joizdir. Agar bu tushunchalarni ishlab chiqarish sohasi bilan solishtiradigan bo‘lsak, ular ishlab chiqarish jarayoni va texnologik jarayon tushunchalari bilan mos keladi. (1.3-rasm). Ishlab chiqarish jarayoni ikki qismdan – ishlab chiqarishni tayyorlash va texnologik jarayonlaridan iborat.

Ishlab chiqarishni tayyorlash qismida - ishlab chiqarilishi ilmiy tadqiqot jihatdan asoslash masalalari yechiladi, mahsulotlarni tayyorlashning konstruktorlik va texnologik hujjatlari tayyorlanadi, tashkiliy-texnikaviy tadbirlar bajariladi.

Ishlab chiqarishning texnologik jarayonida - mahsulotni tayyorlash bo‘yicha texnologik operatsiyalar bajariladi.

## 13- мавзу: Innovatsion pedagogika predmeti amalda tatbiq qilinadigan vazifasi

**Reja:**

1.Innovatsion pedagogika.

2.Pedagogikaning qanday bo'lishi va uning vazifasi.

3.Innovatsion pedagogikaning boshqa fanlar bilan aloqasi.

4.Innovatsion pedagogikaning rivojlanishi va umumiy g'oyasi.

5.Innovatsion potentsial, innovatsion muhit, yangi jarayon.

6.Madaniyat va texnika «Innovatsiya» tushunchasini ishlab chiqish.

7.Tarbiya tizimida innovatsiyalar.

9.O'qituvchii pedagogik faoliyatida psixologik to'siqlar

## 14- мавзу: Kreativlik. Kreativlik muammosiga zamonaviy yondashish

**Reja:**

1.Kreativ dars tuzulishining texnologiyalari.
2.Ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish.
3.Tafakkur olamida ijodiy fikirlashning o'rni.
4.Boshlang'ich sinflarda ijodiy tasavyurni rivojlantirish imkoniyatlari.

Tayanch tushunchalar: kreativlik, kreativlikni rivojlantirish, kreativlikni rivojlantirishga to‘sqinlik qiluvchi omillar, kreativ potensial, pedagogik kreativlik, pedagogning kreativ potensiali, kreativ potensialning tarkibiy asoslari va tamoyillari, pedagogning kreativ potensialini aniqlovchi mezonlar.

1. “Kreativlik” va “pedagogik kreativlik” tushunchalarining mohiyati. Zamonaviy pedagogikada “kreativ pedagogika” tushunchasi qo‘llanila boshlaganiga hali u qadar ko‘p vaqt bo‘lmadi. Biroq, o‘qitish jarayoniga innovatsion hamda ijodkorlik yondashuvlarini qaror toptirishga bo‘lgan ehtiyoj “Kreativ pedagogika”ning pedagogik turkum fanlar orasida mustaqil predmet sifatida shakllanishini ta’minladi. Ushbu predmet asoslarini pedagogika tarixi, umumiy va kasbiy pedagogika hamda psixologiya, xususiy fanlarni o‘qitish metodikasi, ta’lim texnologiyasi va kasbiy etika kabi fanlarning metodologik g‘oyalari tashkil etadi. “Kreativ pedagogika” fanining umumiy asoslari mutaxassis, shu jumladan, bo‘lajak mutaxassislarning kasbiy kamol topishlari uchun zarur shartsharoitni yaratishga xizmat qiladi. Shaxsning mutaxassis sifatida kasbiy kamol topishi, rivojlanishi o‘z mohiyatiga ko‘ra jarayon tarzda namoyon bo‘ladi. Kasbiy yetuklik inson ontogenezining muhim davrlari kasbiy kamol topish, rivojlanish g‘oyalarining qaror topishi (14-17 yosh)dan boshlanib, kasbiy faoliyatning yakunlanishi (55-60 yosh)gacha bo‘lgan jarayonda kechadi. Ijodkor shaxsning shakllanishi va rivojlanishi uning ichki va tashqi olami o‘zgarishining o‘zaro mos kelishi, ijtimoiy-iqtisodiy shartsharoitlar hamda inson ontogengizi – tug‘ilishidan boshlab to umrining oxiriga qadar uzluksizlik, vorisiylikni taqozo etadigan faoliyat mazmuniga bog‘liq. Ma’lumki, kasbiy tajriba bilim, ko‘nikma va malakalarning integratsiyasi sifatida aks etadi. Biroq, kasbiy-ijoiy faoliyat ko‘nikmalarining o‘zlashtirilishi nafaqat amaliy ko‘nikma va malakalarning

integratsiyasi, mutaxassis sifatida faoliyatni samarali tashkil etish usul va vositalarini ishlab chiqishni emas, shu bilan birga kasbiy ijodkorlik metodologiyasidan xabardor bo‘lish, ijodiy tafakkurni rivojlantirish va kreativ xarakterga ega shaxsiy sifatlarining yetarli darajada o‘zlashtirilishi talab etadi. Ijodkor shaxsning shakllanishini shaxsning o‘zaro mos tarzda bajarilgan ijodiy faoliyat va ijodiy mahsulotlarni yaratish borasidagi rivojlanishi sifatida belgilash mumkin. Ushbu jarayonning sur’ati va qamrovi biologik va ijtimoiy omillar, shaxsning faolligi va kreativ sifatlari, shuningdek, mavjud shart-sharoit, hayotiy muhim va kasbiy shartlangan hodisalarga bog‘liq. Zamonaviy sharoitda pedagogning kreativlik sifatlariga ega bo‘lishi taqozo etadi. So‘nggi yillarda yetakchi xorijiy mamlakatlarning ta’lim tizimida talaba va talabalarda kreativlik sifatlarini shakllantirish masalasiga alohida, jiddiy e’tibor qaratilmoqda. Buni Bronson, Merriyman (2010 y.), Ken Robinson (2007 y.), Fisher, Frey (2008 y.), Begetto, Kaufman (2013 y.), Ali (2011 y.), Treffinger (2008 y.) va b. tomonidan olib borilgan ko‘plab tadqiqotlar, ularning natijalarian ko‘rish mumkin. Birgina Ken Robinson tomonidan 2007 yilda tayyorlangan “Maktab kreativlikni barbod etyaptimi?” nomli video lavhani YouTube saytida 5 mln marta tomosha qilingan. Qolaversa, o‘qituvchilar kreativlik asoslarini o‘rganishga jiddiy kirishganlar (Begetto, Kaufman, 2013 y.). O‘qituvchilarda pedagogik faoliyatni kreativ yondashuv ko‘nikma, malakalarini shakllantirish hamda rivojlantirishga doir adabiyotlar chop etilyapti, Ta’lim departamenti tomonidan tayyorlangan video lavhalarga asoslanuvchi noan’anaviy darslar tashkil etilyapti (Ali, 2011; Ta’lim departamenti, 2013 y.). Salmoqli amaliy ishlar olib borilayotganligiga qaramay, ko‘pchilik o‘qituvchilar hali hanuz shaxs (o‘zlarida hamda talabalarda kreativlik sifatlarini qanday qilib samarali shakllantirish tajribasini o‘zlashtira olmayaptilar. Ta’lim tizimini boshqarish organlari har yili ta’lim muassasalarida yuqori samaradorlikka erishishga e’tibor qaratadi. Ana shu maqsadda o‘quv dasturini ishlab chiqiladi, yangi o‘quv darsliklari yaratiladi. Bu esa ham talabalar, ham o‘qituvchilarni kasbiy o‘sishlariga yordam beradi. Olib boriladigan amaliy harakatlar talabalarda yutuqlarga erishish, olg‘a intilishga bo‘lgan ehtiyojni

muayyan arajada yuzaga keltiradi, ularning o‘quv-bilish qobiliyatlarini bir qadar rivojlantirishga yordam beradi. Biroq, o‘quv yilining oxirida kelib oliy ta’lim muassasalarida talabalarning fanlarni o‘zlashtirishlarida yuqori darajadagi ijobiy natijalar kuzatilmayapti. Ko‘plab talabalarning ta’lim olishga nisbatan qiziqishi yo‘qolgan. Buning natijasida o‘qituvchilar ham avvalgidek zavqu shavq bilan kasbiy faoliyatni tashkil etishni o‘ylashmayapti. Ta’lim tizimini boshqaruvchi organlar ta’lim olishga nisbatan xohish-istagi bo‘lmagan talabalar, bu kabi ta’lim oluvchilarni o‘qitishni istamayotgan o‘qituvchilar faoliyatini o‘zgartirish borasida yangidan-yangi choratadbirlar belgilansa-da, ahvol o‘zgarishsiz qolmoqda. Buning sababi nimada? Balki darslarning avvaldan o‘ylab, rejalashtirilib qo‘yilishi talabalar uchun qiziq bo‘lmayotgandir, balki balki ta’lim mazmunining muayyan qolipga solinganligi talabalar uchun hech qanday stimul bermayotgandir, rag‘bat bildirmayotgandir. O‘quv mashg‘ulotlarining avvaldan rejalashtirilishidan voz kechish, talabalarda tanqidiy, kreativ tafakkurni shakllantirish va rivojlantirish, ularni ijodiy fikrlash, yangi g‘oyalarni o‘ylab topishga majbur qilish ta’lim olishga bo‘lgan munosabatni o‘zgartirish, ularni yutuqlarga erishishga rag‘batlantirishda asosiy omil bo‘lar. O‘quv mashg‘ulotlarida yetishmayotgan omil – kreativlik sanaladi . Shaxsda kreativlik sifatlarini rivojlantirish jarayonining umumiy mohiyatini to‘laqonli anglash uchun dastlab “kreativlik” tushunchasining ma’noni tushunib olish talab etiladi. Ken Robinsonning fikriga ko‘ra, “kreativlik – o‘z qiymatiga ega original g‘oyalar majmui” (Azzam, 2009 y.) sanaladi. Gardner esa o‘z tadqiqotlarida tushunchani shunday izohlaydi: “kreativlik – shaxs tomonidan amalga oshiriladigan amaliy harakat bo‘lib, u o‘zida muayyan yangilikni aks ettirishi va ma’lum amaliy qiymatga ega bo‘lishi lozim”. Emebayl (1989 y.)ning yondashuvi nuqtai nazaridan ifodalansa, kreativlik “muayyan soha bo‘yicha o‘zlashtirilgan puxta bilimlar bilan birga yuqori darajada noodatiy ko‘nikmalarga ham ega bo‘lish” demakdir. Ko‘plab tadqiqotlarda intellekt va kreativlik o‘rtasidagi aloqadorlik xususida turlicha qarashlar mavjud. Bir guruh tadqiqotchilar ular o‘rtasida hech qanday bog‘liqlik yo‘q ekanligini uqtirsalar, ikkinchi guruh vakillari kretivlik va

intellekt darajasi bir-biriga bog‘liq ekanligini ta’kidlaydilar (Kim, 2005 y.). “Kreativlik” tushunchasi o‘zida madaniy xilma-xillikni aks ettiradi. G‘arb kishilari uchun kreativlik, umuman olganda, yangilik sanaladi. Ular kreativlik negizida noan’anaviylik, qiziquvchanlik, tasavvur, hazil- mutoyiba tuyg‘usi va erkinlik mavjud bo‘lishiga e’tiborni qaratadilar (Myordok, Ganim, 1993 y.; Shternberg, 1985 y.). Sharqliklar esa, aksincha, kreativlikni ezgulikning qayta tug‘ilish jarayoni, deb tushunadilar (Xui, Sternberg, 2002 y.; Rudovich, Xui, 1997 y.; Rudovich, Yuye, 2000 y.). Garchi g‘arblik va sharqliklarning kreativlik borasidagi qarashlari turlicha bo‘lsa-da, biroq, har ikki madaniyat vakillari ham mazkur sifat va unga egalikni yuqori baholaydilar (Kaufman, Lan, 2012 y.). Patti Drapeau nuqtai nazariga ko‘ra kreativ fikrlash, eng avvalo, muayyan masala yuzasidan har tomonlama fikrlash sanaladi. Har tomonlama fikrlash talabalardan o‘quv topshirig‘i, masalasi va vazifalarini bajarishda ko‘plab g‘oyalarga tayanishni talab etadi. Bundan farqli ravishda bir tomonlama fikrlash esa birgina to‘g‘ri g‘oyaga asoslanishni ifodalaydi. Mushohada yuritishda masala yuzasidan bir va ko‘p tomonlama fikrlashdan birini inkor etib bo‘lmaydi. Binobarin, bir va har tomonlama fikrlash kreativlikni shakllantirishda birdek ahamiyat kasb etadi. YA’ni, topshiriqni bajarish, masalani yechishda talaba yechimning bir necha variantini izlaydi (ko‘p tomonlama fikrlash), keyin esa eng maqbul natijani kafolatlovchi birgina to‘g‘ri yechimda to‘xtaladi (bir tomonlama fikrlash). Yuqorida bildirilgan fikrlarga tayangan holda “kreativlik” tushunchasini quyidagicha sharhlash mumkin: Kreativlik (lot., ing. “create ” – yaratish, “creative” – yaratuvchi, ijodkor) – individning yangi g‘oyalarni ishlab chiqarishga tayyorlikni tavsiflovchi va mustaqil omil sifatida iqtidorlilikning tarkibiga kiruvchi ijodiy qobiliyati Shaxsning kreativligi uning tafakkurida, muloqotida, histuyg‘ularida, muayyan faoliyat turlarida namoyon bo‘ladi. Kreativlik shaxsni yaxlit holda yoki uning muayyan xususiyatlarini tavsiflaydi. Kreativlik iqtidorning muhim omili sifatida ham aks etadi. Qolaversa, kreativlik zehni o‘tkirlikni belgilab beradi, “talabalar e’tiborini ta’lim jarayoniga faol jalb etishni ta’minlaydi”. Xorijiy mamlakatlarda barcha sohalarning mutaxassislari

kabi o‘qituvchilar ham o‘zlarida kreativlik sifatlari mavjudligi va uning darajasini aniqlab boradi. Buning uchun ular E.P.Torrens tomonidan 1987 yilda asoslangan va shaxsning kreativ tafakkurga egaligini aniqlovchi testdan o‘tadi. Mazkur test shaxs kreativligi va uning darajasini ijodiy faoliyatni tashkil etishdagi faollik, tezkor fikrlash, o‘ziga xos (orginal)lik va takomillashganlik kabi mezonlar bo‘yicha baholash imkoniyatini yaratadi. Talaba tomonidan tavsiya etilgan savollarga beriladigan javoblar aynan mana shu to‘rtta mezonni qanotlantirishi lozim

## 15-мавзу: Pedagogikada an'anaviy integratsiyaning talqin qilishlik

**Reja:**

1.Boshlang'ich ta'limning integratsiyali pedagogikasi fanining mohiyati,maqsadi va vazifalari.

2. Integralli ta'limning sinflarga bo'linishi.

4. Ta'lim integratsiyasi fanining metodologik asoslari

Tayanch tushunchalar: integratsiya, integralli ta'lim, metodologik asos.

Pedagogik izlanishlar shuni ko‘rsatadiki, integratsion asosda fanlarni o‘rgangan o‘quvchilar predmetli o‘rgatishning chiziqli kurslarini qisqa muddatda o‘zlashtirmoqdalar. Tez o‘kitish maqsad qilib olinmaganiga qaramasdan, undagi tabiat, mehnat, rasm, o‘qish soxasidagi elementlar bu fanlarni tez o‘rganishda umidli asos bo‘lib hizmat qilmokda. Pozitiv natijalar deb dunyo haqidagi ilmiy tasavvurlarning zamonaviy darajasiga to‘g‘ri baxo berish; o‘quvchi oldida olamning ko‘p o‘lchovli dunyo manzarasining dinamikada, turli bog‘lanishlarda yaratish, aylantirish; ko‘rish gorizontlarining kengaytirish, o‘zi uchun dunyo qaytadan kashf etish, o‘quvchi bilan muloqotdagi yangi metodik shakllarni izlash; turli mutaxassislar faoliyatlarini muammolarni hal etishda birlashtirish, o‘quv faoliyatida toliqishiing oldini olish, yangi sifatli pedagogik natija olish, ta’limning yangi falsafasi bo‘lishi, pedagogik protsessining integrativ borlig‘ini aks etishga aytiladi.

Integratsiyaga qarshi, fikrlar muammo tug‘ilishi xavfini yaratishi mumkin .

Ayrim olimlar integratsiyani mexanik birikishga xavf tug‘diradi deb hisoblamokdalar. Ta’lim muassasalari rahbarlari ko‘pincha integratsion kursning maqsad va vazifalarini aniqlashda kerakli o‘quv dasturini tanlashda, o‘qituvchilar malakasini oshirishda qiyinchiliklarga duch kelmoqdalar. Shunday qilib, integratsiya ta’lim rivojlanishga zamin yaratgan holda, har bir maktabda dolzarb muammo ham bo‘lib kelmoqda. Bu integrativ yondashuv mohiyatini tushunmaslikdan kelib chiqmoqda. Ta’lim tizim tashkilotchilari zimmasiga bu masalani to‘g‘ri yechishda katta mas’uliyat tushmoqda. Ta’lim mazmunining insoniylashtirishda asosiy механизм деб интеграцияни англаш қадриятни ,яъни zamonaviy maktabning rivojlanishida ilg‘or tendensiyalar ahamiyatini aniqlashga imkon beradi.

Integrasiya kursi- o'quv fanlaridan biri bo'lib, fanlararo bilimlarni (integrativ bilimlarni) chuqurlashtirish va oshirish, ularni shakllantirish uchun o'rganiladi. U har xil turlar,usullar, uslublar, fanlararo integrasiya ob'ektlari asosida tuzilgan.

Boshlang‘ich maktab fanlarining integratsion aloqalari kam ishlab chiqilgan, qarama-qarshi ifodalangan. Bu aloqalarning mohiyati haqida olimlar orasida qarama -qarshiliklar ko‘p

Integratsiya atama va uslubiy nuqtaiy nazardan hodisa sifatida nima ekanligani ko‘rib chiqaylik.

«Intergratsiya» so‘zi lotincha integratio-tiklash, to‘ldirish, «integer» butun so‘zidan kelib chiqqan.

Ikkita tushunchaga egamiz:

1. Tizim, organizmning alohida tabaqalashtirilgan qism va vazifalarning bog‘liqlik xolatini bildiruvchi tushuncha va shu
   xolatga olib boruvchi jarayon.
2. Tabaqalashtirish jarayonlari bilan birga amalga oshirilayotgan fanlarni yaqinlashtirish jarayoni.

Differensiatsiya - fransuzcha (diffe’rentiofion lotincha differentia - farq, har hillik, ya’ni butunni bo‘laklarga bo‘lish, ajratish. Ta’lim mazmunini intergratsiyalash - dunyo tendensiyasi (g‘oya, fikr, intilish). Integrativ yondoshishi turli darajadagi tizimli aloqalarning obyektiv yaxlitligni aks ettiradi. (tabiat- jamiyat - inson). Integratsiya ilgari bo‘lingan qismlarni bir butunga birlashtirish bilan bog‘liq. U tizim elementlarining yaxlitlik va uyushqoqlik darajasining oshirishga olib keladi.

Integratsiyalash mobaynida bir-biriga bog‘liqlik xajmi oshadi va tartibga tushadi, shu tizim qismlarning ishlashi va o‘rganish obyektining yaxlitligi tartibga solinadi. Bu umumiy qoidalarni qanday qilib maktab ta’limida qo‘llash mumkin? Zamonaviy didaktik va metodikada ta’kidlanishicha, o‘quvchilarni o‘qitish, rivojlanishi va tarbiyasining muvoffaqiyatlari ularning dunyoning birligi xaqida tushunchaning shakllanganligi, o‘z faoliyatlarini umumiy tabiat qonunlari asosida yo‘lga solish zaruriyatini tushunishlari, tabiatshunoslik kursida predmentlararo va predmetlar ichidagi aloqalarni yecha olishlari bilan bog‘liq. Ta’limdaga integratsiya o‘quv predmetlari mazmunini konstruksiyalashga tizimli yondoshish orqali ko‘rib chiqiladi.

Kursning maqsadi - bolani dunyo bilan suhbatga tortish, inson tabiat, jamiyat, fan, san’at bilan suxbatlashishga faqat odamlar suhbatlashadigan til bilangina emas, hayvonlar, o‘simliklar tili bilan, rassomlar, musiqachilar, olimlar foydalanadigan til bilan tanishtirishdir. Kichik maktab o‘quvchisiga fikr doirasi keng bo‘lgan muloqot san’atining boshlang‘ich savodini egallashda yordam berish. Bu savod o‘z ichiga odamlar bilan muloqotdan tortib (tengdoshlar, katta yoshdagilar, kichik yoshdagilar) o‘z-o‘zi bilan muloqotdan to atrof-muxitdagi hodisalar bilan muloqotni kiritadi.

**Kursning maqsadlaridan** yana biri o‘zi yashaayotgan olam haqida narsa va hodisalar orasidagi bog‘liqlik, o‘zaro yordam, moddiy va madaniyatning turli-tumanligi haqida keng va eng asosiysi, insonning ichki (ma’naviy) va (ijtimoiy) dunyosi haqida, olamda xukm suruvchi qonunlar (tabiiy, ilmiy, tarixiy, axloqiy) haqida tushuncha berish. Asosiy urg‘u faqat ma’lum bilimlarni egallashgagina

emas, balki obrazli fikrlashni rivojlantirishga beriladi. Olamning umumiy ko‘rinishi tovushlar, obrazlar, ranglar orqali tanishtiriladi, bola esa ham dunyoni, ham o‘zini o‘rganuvchi, tekshiruvchi o‘rniga qo‘yadi. Bunda kursning ta’limiy kichik maktab o‘quvchilarining kurs bilan parallel ravishda asosiy fanlarni ham o‘rganishlariga hamda o‘rta maktab ta’limida qulay sharoitlar yaratishga xizmat qiladi

**Fanni o`rganish borasida vazifalar** jumlasiga quyidagilar kiradi.

1.O`quvchilarda tizimli fikrlashning mo`ljal asosini shakllantirish;

2. Hayotning vujudga kelishida tabiatning birlamchi ekanligini qonuniy deb tushunish;

3. O`quvchilarni tabiiy o`zgarishlarini kuzatish vositasida evolyutsion qonuniyatlarini anglashga o`rgatish;

4. Tabiiy muammolarni, mustaqil aqliy operatsiyalar vositasida hal qilish mumkinligini tushuntirish va ularni hal qilish yo`llarni topish qobiliyatini tarbiyalash;

5. Tabiat go`zlliklarini anglash, ularni asrash ekologik fikrlash qobiliyatini rivojlantirish;

Integrasiya kurslarining sinflarga bo'linishini turli asoslarda qilish mumkin: maqsad va muammolar asosida : maktab tabiiy- ilmiy tizimidagi vazifalari asosida: qo'shiluvchi fan tarmoqlari asosida integrasiya usullari va yo'llari asosida: o'quv rejasidagi o'rni asosida: kursni o'rganishda sarflangan vaqt asosida: o'quvchilar uchun qiyinli darajasi asosida va h.k. Shuni e'tiborga olamizki, bu kurslarning mualliflari odatda o'z oldilariga bir necha maqsad va muammolarni echish masalasini qo'yadilar, shu sabali kurslar ko'p maqsadli, turli vazifali bo'ladi.

Ko'p miqdordagi dasturlar va ularni tadbiq etishga urinishlarini ko'rib chiqib, biz bu kurslar qurilishining asosiy yo'nalishlarini ajratishimiz va ularni

moxiyatiga qarab sinflarga bo'lishimiz mumkin. *Integrativ ta'limning sinflarga bo'linishi (klasifikasiya).*

1. Ko'p fanlar integrasiyasi.

Ularni ya'ni universal yoki bir necha asosiy tizim kurslarini almashtiruvchi umumiy deb ham atash mumkin. Masalan, o'qish, tabiat, rasm darslarining bitta umumiy darsga birlashtirish.

Odatda, bunday kurslarning mualliflari tabiiy fanlar materiallarini birlashtirib, ularni bir ma'lum tizimga keltirishida va o'z kurslarini integrativ yoki kompleks (umumiy) deb ataydilar. Ko'rinib turibdiki boshlang'ich ta'lim tizimidagi tabiiy fanlar materiallarini berishda to'g'ri ketma-ketlikga faqat darslar tuzilishini saqlab qolibgina erishish mumkin. Ba'zi e'tiborli olimlar ta'kidlaydilarki, bu ananaviy maktablarda ham tabiiy fanlarni ketma-ket o'rganish yo'li b ilan ham hal qilinmoqda. Bir qator olimlar boshlang'ich ta'limga ham darslarga ajratib o'qitish ananalari tarqalgan deb hisoblaydilar.

Tabiiy fanlarni o'qitishni tizim bo'yicha dovom ettirishni bekor qilish va soddalashtirish uchun ko'pgina mualliflar gumanitar sinflar uchun umumlashtirilgshan kurslar (darslar) taklif qiladilar. Bularga umumiy tushunchalar beruvchi, bolalarda tabiiy fanlarni o'rganishga qiziqish uyg'otish vazifasini bajaruvchi, tabiat haqida qiziqarli ko'rinishda hikoya qiluvchi boshlang'ich tabiiy fanlar kurslari (masalan, boshlang'ich sinflardagi “tabiatshunoslik ”) kiradi.

2. Chegaradosh fanlar asosida tuzilgan kurslar.

Keng integrasiya jarayoni oldingi ilmiy yo'nalishlarni bog'lovchi yangi tabiiy fanlar va ilmity yo'nalishlar hosil bo'lishiga olib keladi.

Boshlang'ich sinflarda ekologik ta'limni kuzatib, o'qish , tabiatshunoslik, mehnat (tabiiy materiallar bilan ishlash), rasm fanlarida ekologik mavzular kiritilgani ko'riladi. Bir- biriga yaqin chegradosh fanlarning qatoriga malekulyar biologiya, biofizika, giofizika, biokimyo, astrofizika, astrokimyo kiradi. Bu fanlar asosida maktab integrativ tabiiy fanlari tuziladi.

3. Asosiy fanlar asosida tuzilgan kurslar.

Zamonaviy bilimlarning har bir bo'limini qamrab oluvchi asosiy fanlar asosida tuziladi. Ular qatoriga pedagokika, pedogogik texnologiya,pedogogik psixologiya, inson yoshi psixologiyasi, fan rivojlanishi jarayoni o'rganuvchi pedagogik psixologiya, fanning insonning boshqahayot jarayonlariga bog'liqligini o'rganuvchi: kibernetika-boshqarish, aloqa va informasiyani qayta ishlash: informasiyaning tuzilishi va xususiyatlarini uning shaxs shakllanishidagi o'rnini o'rganuvchi informatika inson hayotining turli jarayonlarida ilmiy yo'nalish bo'lgan sistemalarning aloqalrini o'rganuvchi sinergetikaning qo'llanishi. Bu sinfdagi integrativ kurslarni mazmuni shu fanlar ma'nosi va strukturasi asosida tuziladi.

4.Umumiy ilmiy tushunchlar, qonuniyatlar,nazariyalar asosidagi kurslar.Bu asosda integrativ kurslar yaratish haqidagi fikrlar yaxshi natijalar berdi. Mualliflar orasida yuqori darajadagi umumiylikni bildiruvchi tushunchalar: “materiya”, “harakat”,”modda”, “maydon”, “energiya” va boshqalar ko'p ishlatildi. Qonunlar orasida sermahsuli tabiatni saqlash qonuni, odamlarining ish faoliti tufayli rivojlanishi, tabiatga tuyg'u bilan qarash bo'ldi.

Nazariyalar orasidagi integrativ kurs yaratish uchun asos bo'lib asosiy tabiiy – ilmiy nazariyalar xizmat qiladi. Shunisi e'tiborga oyiqki, bu asosda integrativ kurslar yaratishga urishlar ko'p bo'lgan bo'lsa ham, ular qovushmaganligi va ma'lum ketma-ketlikga , didaktik maqsadga ega eamsligi bilan ajralib turadi.

5. Fan evolyusiyasi bilan bog'liq muammolarni, tabiatni ilmiy nuqtaiy nazardan o'rganish uslublarini, olmning ilmiy ko'rinishini o'rganish asosidagi kurslar.

Yuqoridagi barcha mavzular integrativ mazmunga ega va tadbiq etishga katta imkoniyatlari bor, afsuski, bunday kurslar maktab ish faoliyatida qo'llanuvchi materialning va o'qitish uslubining murakkabligi tufayli hali keng tarqalgani yo'q.

6. Kompleks ob'ektlar asosida.

Integrativ kurs yaratishga asos bo'lgan kompleks ob'ektlarga er, biosfera, odam va uning yashash muhiti misol bo'la oladi. Bu kurslarning bir xil mavzularida bir ob'ekt turli fan nuqtai nazaridan ko'riladi.

Shu xildagi integrasiya o'tgan asrning yigirmanchi yillarida maorif tizimida qo'llanilgan. Keyinchalik u bekor qilingan, lekin bizning davrimizda aytish mumkinki qaytadan tug'ildi. Bizning nazarimizda, ma'lum hajmda u tabiiy fanlar ta'limiga yaxshi ta'sir ko'rsatadi.

7. Turli muammolar asosida

Integrativ kurslarni turli lokal (mahalliy) va global (umumjahon) muammolar asosida tadbiq etishga urinishlar ko'p uchraydi. Bunda tabiiy ilmiy fanlarning muammolar asosida birlashtirilishi qo'llaniladi. Bu sinfdagi integrativ kurslar
( asosan ekologiya bilan bog'liq kurslar) maktablar ish faoliyatida keng tarqalgan.

Muammolar bo'yicha tuzilgan integrativ kurslar rivojlanishiga global ta'limning rivojlanishi ham turtki bo'ldi.

Bu yo'nalishning tarafdorlari zamonaviy shaxsning rivojlanishiga bugungi kunda mamlakatlarning va millatlarning ekonomika, fan, siyosat, ma'naviyatining uzviy bog'liqligidan kelib chiquvchi globallik omili kuchli ta'sir ko'rsatadi deggan tasdiqlashni asos qilib olganlar.

8. Faoliyat asosida

Tabiiy fanlar asosini o'rganishda o'quvchilar kitob bilan ishlash,kuzatishlar olib borish, tajribalar o'tkazish, olingan bilimlarni bir tizimga solish- turli o'quv - ta'lim ish faoliyati bilan to'qnashadilar. O'quvchilarni faoliyatning bir turi bilan tanishtiruvchi bir butun kurs yaratish maqsadga muvofiqdek ko'rinadi. U o'qitish jarayonining har bir vaqtida foydali bo'lishi mumkin va kichik hajmda ham tabiiy fanlrni o'qitishda, o'quvchilarning ortiqcha kuch sarf qilishlari muammosini hal qilishda, mustaqil bilim olish ko'nikmalarini rivojlantirishda yordam beradi. Bu sinfdagi integrativ kurslarni yaratish va ularni o'quv jvrvyoniga tadbiq qilish bugungi kunda muhim ahamiyat

kasb etadi. Tabiiy fanlarni o'zlashtirishni tekshirishlar natijalari shuni ko'rsatadiki, o'zbek o'quvchilari chet ellik o'quvchilarga nisbatan ko'p ma'lumot o'zlashtirsalar ham, uni tadbiq qilishda sezilarli darajada orqada qoladilar.

Ko'pchilik bunga sabab asosiy ko'nikmalarning moslashtirilmaganida deb biladi. Sabab nimada? Balki ularning biri ko'p yillar davomida an'anaviy maktabda integrativ darslarga e'tibor berilmaganidadir?

Bu erda bugungi kungacha yaratilgan integrativ kurslarning asosiy sinflari sanab o'tildi. Lekin o'quv fanlarini integrasiyasi jarayonida qator kamchiliklar ham bo'lishi mumkin.

*Birinchidan*. Aytib o'tilgan tabiiy integrativ kurslarni tuzish yo'llari ko'pincha bir-birini takrorlaydi va birga qo'llaniladi, bu bilan yangi asoslar yaratilib, ularni tartibga keltirish,ilmiy asos yaratish qiyinlashadi.

*Ikkinchidan*. Integrativ kurslar fanlararo aloqaning o'rnini bosa olmaydi. Bizning fikrimizcha,ular bu aloqaning tashkil etuvchilaridan biri.

*Uchinchidan.* Tabiiy ilmiy ta'limning optimal tuzilishi shundayki,integrativ kurslar o'quv rejasining o'zgaruvchan qismiga kirib,uning regional tashkil etuvchisi hisoblanadi.

*To'rtinchidan*. To'liq o'quv metodik qo'llanmalarning yo'qligi integrativ kurslarning o'quv jarayoniga tadbiq etilishida qiyinchiliklar tug'diradi. Ularning mualliflari progrpmma tuzib,umumiy metodik ko'rsatmalar tuzishgandan so'ng to'xtab qoladilar.

*Beshinchidan.* Integrativ kurslar uchun o'qituvchilarni rejali va maqsadga muvofiq tayyorlash tizimi hali etilgani yo'q.

**1. Savol va topshiriqlar:**

1.Integrasiya kursining vazifalarini ayting.

2. 2.Integrativ ta’lim qanday sinflarga bo’linadi?

3. Integrativ kurs yatishga asos bo’lgan komplekslarni ayting.

4. 4.O’quv fanlari integrasiyasi jarayonida uchraydigan kamchiliklar.

## Adabiyotlar:

1. Karimov I.A Barkamol avlod-O`zbekiston taraqqiyotining poydevori. Toshkent “O`zbekiston” 1997

2. Barkamol avlod orzusi. Tuzuvchi muallif. SH. Karimov va boshqalar. Toshkent “Sharq” 1999

3.Mavlonova.R,Raxmonqulova.N.Boshlang`ich ta`limning integratsiyalashgan pedagogikasi. Toshkent “O`qituvchi” 2006

4.Tursunov.I,NishonaliyevU pedagogika kursi.Toshkent“O`qituvchi” 1997

**16-mavzu.**

## Integratsiyalashgan darslarni rejalashtirish

**Reja:**

1. Ta`lim jarayonida integratsiyaning nazariy va amaliy asoslari
2. Boshlang‘ich sinflarda integratsiyaning yaratilishi haqida
3. Integratsiyali ta`lim jarayonidagi kuzatish va xulosalar
4. Integratsiyaning hozirgi zamon muammolari.
5. Ta’lim tizimida integratsiyaning qo‘llanishi.
6. Integratsiyalashgan darslarni rejalashtirish
7. Integratsiya darajalari

Tayanch tushunchalar: metodologiya, kontenental moslashuv, individ, ideal, dunyoqarash,

**1-masala.**

Ta`lim jarayonida insonning intelektual rivojlanish haqidagi ta`lim falsafasi XXI asr boshida ta`lim falsafasida shunday ustuvor yo`nalish vujudga keldiki, unda insonni yaxlit intelektual rivojlantirish masalasi vazifa qilib qoyilmoqda. Lekin hozirgacha maktab ta`limida amalada bo`lgan predmetli o`qitish shakli ushbu vazifani amalaga oshirishga imkon bermay keldi. Yana shuni ham ta`kidlash kerakki, hozirgi paytda fanlarni integratsiyalab o`qitish

haqidagi takliflar faqat tashqi birikish harakteriga ega bo`lib qolmoqda. Aslida integratsiyali ta`limni ichki mantiqiy bog`lik va chuqurroq metodologik aloqalarga asoslanib amalga oshirish zarur. Shuningdek, hozir vujudga kelayotgan integratsiyali fanlar mazmunida turli falsafiy oqimlarga aloqador g`oyalarning yagona nuqtaga birlashuv ehtimoli tug`ilmoqda. Chunki, endilikda ta`lim falsafasida chegaradosh fanlarning tabiiy moslashuvigina emas, balki kichik kontinental (bir guruhga kiruvchi fanlarning boshqa guruh fanlari bilan) moslasahuvi ham o`zlashtirilmoqda.

Didaktik olimlarning tekshiruvlarida uslubning amaliy faoliyat bilan bo‘lgani genetik tabiati ajratib ko‘rsatiladi.N.N.Skatkin, I.Y.Lerner, Aleksyuk Y.K. Babanskiylarning tekshiruvlarida ta’lim uslublariga taalluqdi ikkilamchi tur belgilarining ta’rifi beriladi. Ular uslub-ifoda, mazmun va ta’lim usuli ekanligi isbotlab berishgan. Gegel falsafadagi uslubni mazmun xarakatining shakli sifatida ko‘rsatadi. Ta’lim jarayonida turli hil mantiqiy tizimlar orqali o‘qituvchi va u bilan birgalikda o‘quvchilar o‘z bilim, qobiliyat va ko‘nikmalarini deduksiya, induksiya, sintez, umumlashtirish, konkretlashtirish, taqqoslash shaklida ifodalaydidar.Barcha mantiqiy jarayonlar uslubning mazmun bilan uzviy bog‘langan ichki tomonini tashkil qiladi. Boshlang‘ich sinflarda o‘quv jarayoni foydalanilayotgan usul, uslub va shaklarining turli tumanligi bilan ajralib turadi. Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan yang o‘quv rejalari va dasturlariga o‘tish davrida jamiyat va atrof-muhit o‘rtasidagi aloqalarni uyg‘unlashtirish, atrof-muhitga jiddiy munosabatni o‘rnatish va shakllantirnsh masalalari muhim ahamiyat kasb etadi.
Atrof-muhitga jiddiy munosabatlarning poydevori boshlang‘ich sinflarda o‘rgatiladi. Shuning uchun iqtisodiy ta’limning natijasi maktab ta’limiing birinchi bosqichiga bog‘liq. Yangi psixologik-pedagogik tadqiqotlar kichik yoshdagi maktab o‘quvchilarining bilish faoliyatlari cheklanganligi haqida ilgarigi tushunchalarni ko‘rib chiqishga imkon beradi. Bu boshlang‘ich iqtisodiy ta’limiing barcha tarkibiy qismlarini o‘zgartirish va yangilashga asos yaratadi. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining yosh xususiyatlariga javob beradigan va dars talablariga mos keladigan, maqsadni aniqlash bunday yangilanishning asosiy masalasidir. XIX-XX asrlar oralig‘ida pedagogikada kichik maktab o‘quchilarining tabiiy muhit bilan tanishtirishning integratsiyalangan kursini yaratish fikri paydo bo‘lgan. Bu fikr A.Y.Gerd, D.N.Kaygorodov, A.P.Pavlov nomlari bilan bog‘liq bo‘lib, ular boshlang‘ich maktabga atrofdagi jonli va jonsiz dunyo hakidagi bo‘linmagan kursni kirgizishni talab qilishdi.

Integratsiyalashgan ta’lim-tarbiya, fanlararo aloqalarning ayrim jihatlari mashhur pedagoglarning (Y.Komenskiy, D.Lokk, I.Gerbart, M.Pestalotssi, K.Ushinskiy va boshqalar), didaktiklarning (I.D.Zverev,

M.A.Danilov, V.N. Maksimova, S.P.Baranova, N.M.Katkina va boshqalar) psixolog olimlarning (E.N.Kabanova, Meller,N.F.Talizina, Y.A.Samarina, G.I.Vergeles), medist olimlarning (M.R.Lvov, V.G.Goretskiy, N.N.Svetlovskaya. Y.M. Kolyagin, G.N.Pristupova) ishlarida ko‘rib chiqilgan.

Bir qator ishlar boshlang‘ich ta’limdagi fanlararo va fanlar ichidagi aloqalarga bag‘ishlangap. Bu muammolar o‘quv fanlarinn integratsiyalashga o‘tishning yaqin rivojlanish zonasidir. (T.G.Raizayeva., G.N.Akvileva, D.I.Troytap, G.V. Baltyukova, N.Y. Velenkin, N.M.Drujnina, T.S.Nazarova, I.K. Blinova, R.G.Matyushova).

Rus pedagogik olimlari T. Kun, V.S. Styopinlarning tatqiqotlarida falsafa, tabiat va ma`daniyat haqidagi fanlar integratsiyalash sinab ko`rildi. Ular fizika, kibrnetika ilmlarini anorganik olamdaki hodisalarni tushuntirishga biologiya, ximiya muammolarni hal etishga tadbiq etishni taklif etmoqdalar.

Nems olimi Nils Borning kashfiyoti (qo`shimchalik prinsipi) yangi fanlarning rivojlanishiga asos soldi. Hozirgi zamon falsafasida olg`a surilayotgan va integratsiyaning ta`lim zaminini tashkil etuvchi element tarkibiga dunyo qarash unversiyali kiradi. Dunyoqarash univeriyasi fan mazmunini anglash, tushunish moddiy olamni ko`ra bilish imkonini yaratadi.

Ma`lumki, komil shaxsning ta`lim-tarbiya jarayonida ijtimoiylashuviga erishish bugungi kunda pedagogika nazariyasi fanining yetakchi muammolaridan biri hisoblanadi. Ushbu muammoni hal etishda individ uchun dunyoqarash unversiyalarini o`zlashtirishiga imkon beruvchi shart-sharoitlar yaratilgandagina erishish mumkin. Dunyoqarash unversiylari jumlashiga dunyoga umumiy ta`rif beruvchi zaruriy tushunchalar, kategoriyalar kiradi. Ular moddiy olamdagi tabiiy va ijtimoiy jarayonlarga nisbatan universal ma`noda qo`llanish imkoniga ega. Masalan, kenglik, vaqt, harakat, miqdor, sifat, sabab, oqibat, zaruriyat, tasodif, shaxs, inson,

jamiyat, men, boshqalar, go`zallik, ong, ishonch, adolat, tenglik, haqiqat.

Diferensiyalangan ta`limda unversiyalar uning barcha qonuniyatlarini qamrab oladi. Unversiyalarning o`zlashtirilishi boshqa fanlarning o`zlashtirilishiga ham asos bo`ladi.

Yana ma`danityat unversiyalari ham borki, ular turli ijtimoiy ma`daniy yo`nalishlarda asos bo`ladi. Bunday ta`lim falsafasi moddiy olamni ma`naviy o`zlashtirishiga yordam beradi. Uni adabiyot, san`at, tarix fanlarini integratsiyalab o`qitish vositasida amalga oshirish mumkin. Kundalik fikrlash, ma`naviy olamni anglashda falsafiy ma`naviyat universiyalari yordam beradi. Falsafa maydonida dunyoni umumiy ta`riflovchi tushunchalar olamni anglash ob`yektiga aylanadi. Ular asosida ma`daniyat unversiyalardan foydalanib, fikriy tajribalar o`tkazish imkoniyati tug`iladi, fikrlashning ideal yo`nalishlari ham belgilab olinadi.

Hozirgi davr pedagogik amaliyotida fanlar aro bog`lanish asosida ta`limni integratsiyalash yo`lidagi izlanishlar davom etmoqda. Bu vazifa g`oyat murakkab va ayni paytda katta samara berishi ham mumkin. Shuning uchun integratsiyani navbatdagi shovshulik kompaniya deb tushunmaslik kerak

2-masala. Hozirgi paytda integratsiyali pedagogika fanini o`rganish maslasida turlicha qarashlar mavjud ular orasida eng samarali yo`l sifatida o`quvchilarga integratsiyli fanlar asosida “tabiat+inson” tizimidagi bilimlarni sindirishga imkon beruvchi tizim deb tushuntirilmoqda. Chunki XXI asr boshida jamiyat hayotida shunday vaziyat vujudga keladiki, endi yer yuzida yashyotgan har bir inson ma`naviy – ekologik tushunchalarni o`zlashtirib olgan bo`lishi zarur. Hozirgacha tabiat boyliklaridan

rejasiz foydalanish, uni g`orat qilish kelajakda inson hayotini hatolarga qo`yishi mumkinligi aniq bo`lib qoldi. Shuning uchun bugungi kunda ekologik ma`naviyatni tarbiyalash integratsiyali kurslarni bosh vazifasi bo`lishi kerak deb hisoblanmoqda. Bunday g`oya yoshlarga yer yuzida birdamlik, yagona maqsad uchun kurash, inson va tabiat uzviyligi, inson va tabiat hayotining gallaktika tizimi qonuniyatlari bilan aloqadorligini tushuntirishni ko`zda tutadi. **Integratsiyali pedagogika fanini o`rganishni quyidagi tamoyillarga amal qilinadi.**

1.Ta`lim jarayonini yanada insonparvarlashtirish.

2.Tabiatshunoslikka doir ilmlarni "tabiat+inson" tizimida integratsiyalash.

3. O`quvchi shaxsi shakllanishini tabiiy bilimlarni anglash vositasida amalga oshirish;

4. O`quvchilarda fikrlash yo`nalishlarida tabiat haqidagi bilimlar ta`sirining ustivorligi;

5. Kelgusida ilmiy izlasnishiga mos keluvchi didaktik materiallarni turli sohalardan izlash;

